

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

N.MUSLIMOV, S.BOLTABOYEV, A.TURAYEV

KASBIY KOMPETENTLIK



Toshkent – 2024

**Narzulla MUSLIMOV, Salimboy BOLTABOEV,
Abbos TURAYEV**

KASBIY KOMPETENTLIK
(o'quv qo'llanma)

Toshkent – 2024

UDK:
BBK:

**Kasbiy kompetentlik/ Muslimov N.A., Boltaboev S.A., Turaev A.B.–
Toshkent: “TDPU” nashriyoti, 2024. – 150 b.**

Ushbu o‘quv qo‘llanma pedagogika oliy ta’lim tashkilotlari 60112300 – Texnologik ta’lim yo‘nalishlari bakalavriat mutaxassisliklari o‘quv rejasi va dasturi doirasida tayyorlangan bo‘lib, unda kasbiy kompetentlikning mazmuni, turlari, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yangicha yondashuvlari, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy omillari, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish yo‘llari, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyati, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda professional ta’limining o‘ziga xos qonuniyatlari va prinsiplari, maqsadi, mazmuni, metod va vositalari, tashkil etish shakllari, natijalarini nazorat qilish va baholash mezonlari yoritilgan. Mazkur o‘quv qo‘llanmadan o‘qituvchilar, izlanuvchilar, qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi talabalari hamda professional ta’limi nazariyasi va metodikasi bilan qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Qo‘llanmani mukammallashtirish va kelgusida darslik sifatida nashr ettirishga oid bergan fikr-mulohazalaringizni mualliflar minnatdorchilik bilan qabul qilib, uni Toshkent shahar Yakkasaroy tumani, Bratislova ko‘chasi 2-uyga yuborishingizni so‘raydi.

Taqrizchilar:

p.f.d., prof.	H.Tojiboyeva;
p.f.d., prof.	D. Himmataliyev
p.f.d., prof.	M.Mamarajabov

O‘quv qo‘llanma Nizomiy nomidagi TDPUning 2024 yil “ iyun“ dagi Kengashi qarori bilan nashr etishga tavsiya etilgan. (Bayonnoma № _)

© “TDPU” nashriyoti, 2024 yil

Mundarija

Soʻz boshi.....	6
I.BOB. KASBIY KOMPETENTLIKNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	8
1-MAVZU. KASBIY KOMPETENTLIK FANINING MAZMUNI, MAQSADI VA VAZIFALARI	8
1. Kompetensiya tushunchasi, turlari va kasbiy kompetensiyaning shakllanishi.....	8
2. Kasbiy kompetentlik fanining asosiy tushuncha va tamoyillari	8
3. Kasbiy kompetensiya tushunchasi mazmuni, turlari va shakllanish bosqichlari	8
2-MAVZU. TAʼLIM SIFATINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISH YOʻLLARI	35
1. Oʻquv-tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagogning mahorati.....	35
2. Pedagogik texnika – pedagog xulqining boshqarish omili sifatida.....	35
3. Pedagogik texnikaning asosiy komponentlari va uni shakllantirish yoʻllari	35
4. Pedagogik deontologiya, pedagogik boshqaruv va texnika oʻqituvchi faoliyatini samarali tashkil etishning asosiy shakli.....	35
3-MAVZU. TAʼLIMI JARAYONIDA SHAXS RIVOJLANISHINING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI	63
1. Kasbiy taʼlim jarayonida shaxs rivojlanishining pedagogik shart-sharoitlari.....	63
2. Pedagogning kasbiy professionalligi va uni innovatsion faoliyatda namoyon boʻlishi.....	63
3. Taʼlim jarayonini loyihalash va modellashtirish pedagogning kasbiy professional ijodkorligini rivojlantirish omili	63
4-MAVZU. BOʻLAJAK TEXNOLOGIYA FANI OʻQITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGI VA KREATIVLIGI	83
1. Texnologiya fanidan oʻquv mashgʻulotlarni tashkil etish metodikasi	83

2. Talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish.....	83
3. Talabalarining o`quv-blish faoliyatini nazorat qilish va baholash	83
5-MAVZU. TEXNOLOGIYA FANI O`QITUVCHISINING O`QUV TARBIYA JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHI	96
1. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati va nazariy asoslari.....	96
2. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining turlari.....	96
3. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interaktiv metodlar	96
II.BOB. BO'LAJAK TEXNOLIYA FANI O`QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	119
1-Amaliy mashg'ulot. Pedagogik jarayonda innovatsion ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llash shartlari.....	119
2-Amaliy mashg'ulot. O'qitish amaliyotida innovatsion ta'lim shakl, metod va vositalaridan foydalanish.....	125
3-4- Amaliy mashg'ulot. Pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish.	133
5- Amaliy mashg'ulot. Pedagogik mahoratni rivojlantirish	138
Xulosa.....	149
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	150

Soʻz boshi

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik taʼlim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4623-sonli qarorida pedagogika taʼlim sohasini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari belgilab berilgan. Jumladan, tarbiya va oʻqitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta oʻzlashtirgan, taʼlim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qoʻllash koʻnikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash; pedagogik kasbga qiziqishi yuqori boʻlgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish; pedagogik taʼlim sohasining taʼlim yoʻnalishlari va mutaxassisliklari boʻyicha oʻquv reja va dasturlarini ilgʻor xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovatsion oʻquv-meʼyoriy va taʼlim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish; sohada taʼlim, ilm-fan va ishlab chiqarish uygʻunligini taʼminlash orqali taʼlim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish; pedagog kadrlar buyurtmachilari ehtiyoj va talablarini muntazam oʻrganib borish, ular bilan oʻzaro hamkorlikni rivojlantirish hamda pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiy asoslangan istiqbolli rejalarini belgilash va ularni amalga oshirish; oliy pedagogik taʼlimga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va taʼlim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini taʼminlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qoʻshimcha sharoitlar yaratish; pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy taʼlim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish; pedagogik taʼlim infratuzilmasini yaxshilash, sohadagi xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish; yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy koʻnikmaga ega, tarbiya, oʻqitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish.

Shuningdek, zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida taʼlim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu o'quv qo'llanma doirasida ta'lim oluvchilar kasbiy kompetentlik fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari, ta'lim sifatini rivojlantirishda pedagogik kompetentligini shakllantirish yo'llari, ta'limi jarayonida shaxs rivojlanishining pedagogik shart-sharoitlari, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va kreativligi hamda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasiga oid yangi bilimlarni o'z kasbiy faoliyatida ta'lim texnologiyalaridan samarali, maqsadli qo'llash, ta'lim jarayonini oqilona loyihalashtirish kompetentligi rivojlanadi boyitadi. Bu esa o'z navbatida o'qitish jarayonida talabalarning faolliklarini ta'minlash, ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

I.BOB. KASBIY KOMPETENTLIKNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1-MAVZU. KASBIY KOMPETENTLIK FANINING MAZMUNI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Reja:

- 1. Kompetensiya tushunchasi, turlari va kasbiy kompetensiyaning shakllanishi.**
- 2. Kasbiy kompetentlik fanining asosiy tushuncha va tamoyillari.**
- 3. Kasbiy kompetensiya tushunchasi mazmuni, turlari va shakllanish bosqichlari.**

Tayanch tushunchalar: “Kompetentlik”, Kasbiy kompetentlik, Maxsus yoki kasbiy kompetentlik, innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik.

Kompetensiya tushunchasi, turlari va kasbiy kompetensiyaning shakllanishi. Kasbiy kompetentlik fanining maqsadi - Oliy ta'lim tashkilotlarida tayyorlanayotgan bo'lajak pedagoglarni mutaxassislikka oid kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilarining intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlarini boyitishda ularni innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan yaqindan tanishtirishni ko'zda tutadi.

Fanning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Kompetentlik va kompetensiya tushunchalari, turlari va kasbiy kompetensiyaning shakllanishiga oid ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilish.
2. Ta'lim sifatini oshirishda pedagog kompetentligini rivojlantirish yo'llarini aniqlash.
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablari texnologiya fani o'qituvchisining sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilishda o'qituvchining kasbiy kompetentligini izohlash.
4. Xorijiy tajribalar asosida kasbiy kompetensiyalarni zamonaviy yondashuvlar asosida uzluksiz yangilab borish va rivojlantirish yo'llarini aniqlash.

Respublikamimizda ta'limning moddiy texnik ta'minotini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida axborot-ta'lim muhitini yaratish, axborot resurslarini ishlab chiqish, ularni ta'lim jarayonida qo'llash metodikalarini takomillashtirish, o'quvchilar va o'qituvchilarning jahon ta'lim


resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Shu o‘rinda har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo‘sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur. Ayni o‘rinda shu va shunga yondosh g‘oyalar yuzasidan so‘z yuritiladi.

“Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish hisoblanadi.

“Kompetentlik” pedagogik kategoriya sifatida ta‘lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan (nostandart) holatlarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Shundan kelib chiqqan holda kasbiy kompetentlik kategoriyasiga quyidagicha izoh keltirilgan. **Kasbiy kompetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishini ko‘zda tutadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va hatti-harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, **“kompetensiya”** mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi (1-rasm):




1-rasm. Kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- ✓ o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- ✓ yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- ✓ davr talablarini chuqur anglaydi;
- ✓ yangi bilimlarni izlab topadi;
- ✓ ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi (2-rasm):



2-rasm. Kasbiy kompetentlik negizida shakllanadigan sifatlar

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

a) **psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

b) **metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

c) **informatsion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

d) **kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

e) **innovatsion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

f) **kommunikativ kompetentlik** – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

g) **Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

h) **Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan. Ana shunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin.

A.K.Markova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi bayon qilingan: **Maxsus yoki kasbiy kompetentlik** (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish); **Ijtimoiy kompetentlik** (qo‘shimcha faoliyatni hamkorlikda tashkil etish); **Shaxsiy kompetentlik** (o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini namoyon etish); **Individual kompetentlik** (o‘z-o‘zini boshqarish, kasbiy rivojlanish va yangiliklar yaratish).

Ta’lim amaliyotida kompetentlik yondoshuvini amalga oshirish ushbu jarayonning barcha jihatlarini chuqur va har tomonlama ilmiy o‘rganishni talab etadi. Shu bilan birga, ta’kidlash kerakki, kompetentlikni pedagogik fenomen sifatida talqin qilish qiyin, chunki, kompetentlik kategoriyasi pedagogikaga boshqa fanlardan kiritilgan bo‘lib, u fanlarda yetarli darajada chuqur anglab yetilgan va o‘zining mustahkam o‘rniga ega. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning natijasi sifatida pedagogika fanining tushunchalari tarkibiga nisbatan yaqinda kirib kelgan va hozircha pedagogik, xususan didaktik tushunchalar tizimiga to‘laqonli tarzda tegishli.

Shu bilan birga, ta’limda kompetentlikka yo‘naltirilgan yondoshuvlarning dolzarbligi tufayli “kompetentlik”, “kompetensiya”, “tayanch kompetensiyalar” atamalari ta’limning yangi sifatlariga doir masalalarni muhokama etishda tobora ko‘proq ishlatilmoqda va borgan sari keng tarqalib bormoqda. Pedagogik hamjamiyatda kompetentlik va kompetensiyalar, ulardan qaysi birlari tayanch (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullari qanday ekanligi

tushunib yetish jarayoni jadal bormoqda, ushbu tushunchalarni aniqlashtirish bo'yicha qizg'in munozaralar davom etmoqda. Shu sababli bugungi kunda ushbu tushunchalarning juda ko'plab ta'riflari va talqinlari mavjud.

Kompetentlik – bu faqatgina o'zlashtirilgan bilimlar va tajribalarning mavjudligi hamda salmoqli hajmi bo'libgina qolmay, balki, ularni kerak vaqtda ishga sola bilish va o'zining xizmat vazifalarini bajarish jarayonida ulardan foydalana olish demakdir.

Bu ma'noda kompetentlik insonning, shaxsning, kasb egasining tavsifi hisoblanadi, shu bilan birga, u shaxsning shaxsiy imkoniyatlarining yig'indisi, uning o'z kasbiy bilimlari va tajribalarini amaliy faoliyatida samarali ravishda qo'llay olish qobiliyati hisoblanadi.

Mutaxassisning, uning samarali kasbiy faoliyatga qodirligining tavsifi sifatidagi kompetentlik ta'limda kompetentlik yondoshuvining asosi bo'lib qoldi. Bunday kompetentlikning murakkab, integral xarakterini ta'kidlab o'tgan holda, xorijdagi boshqaruv modellarida uning uch darajasi ajratib ko'rsatiladi:

1) Integrativ kompetentlik – bilim va ko'nikmalarni yig'ishga va tashqi muhitning tez o'zgarib turadigan sharoitlarida ulardan foydalana bilishga qodirligi.

2) Ijtimoiy-psixologik kompetentlik – zehn-idrok, odamlarning xulq-atvorini tushunish bo'yicha bilimlar va ko'nikmalar, ularning faoliyati motivatsiyasi, kirishuvchanlik va muloqat madaniyatining yuqori darajaliligi.

3) Boshqaruv faoliyatining muayyan sohalari – qarorlar qabul qilish, axborot yig'ish, odamlar bilan ishlash metodlari va hokazolar bo'yicha kompetentligi.

Kompetentlikning tarkibiy qismlari inson uchun qiziqarli bo'lgan faoliyatni amalga oshirish jarayonidagina rivojlanadi va namoyon bo'ladi. Bir necha omillar natijasida hosil bo'ladigan samarali faoliyat, muayyan vaziyatda namoyon bo'ladigan, alohida olingan kompetentlik yoki layoqatlilik darajasiga nisbatan, maqsadga erishishga qaratilgan harakat jarayonida vaziyatlarning keng doirasini qamrab oladigan bir qator mustaqil va o'zaroalmashuvchan kompetentliklarga anchagina ko'proq bog'liq bo'ladi.

Kompetentlikni baholashda alohida olingan biror bir layoqatlilik darajasini emas, balki, inson tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarga erishish uchun sarf qilinadigan uzoq vaqt davomida, turli xildagi vaziyatlarda namoyon qilinadigan kompetentliklarning to'liq to'plamini nazarda tutish kerak bo'ladi. Bunda inson duch kelib qolgan muayyan vaziyat uning rivojlanishiga, qadriyatlarning shakllanishiga va yangi kompetentliklarni egallashiga bevosita ta'sir etadi.

Kasbiy faoliyati samarador bo'lishi uchun egallanishi muhim bo'lgan kompetensiyalar sohasining turli-tumanligini anglash aynan ushbu kompetensiyalar doirasini aniqlash, shuningdek, ular orasidan o'z xarakteriga ko'ra eng universal bo'lgan tayanch, bazaviy kompetensiyalarni ajratib olish muammosini keltirib chiqardi.

Bugungi kunda jahon ta'limida tayanch kompetensiyalarning turli xil tasniflari mavjud. M.Stobart tayanch kompetensiyalarning quyidagi beshta guruhini belgilab ko'rsatgan:

1) Siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar (masalan, ma'suliyatni o'z zimmasiga olish, birgalikda qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, ziddiyatlarni murosaga keltirish yo'li bilan hal etish, demokratik institutlarning faoliyatida ishtirok etish);

2) Ko'pmadaniyatli jamiyat hayotiga oid kompetensiyalar (masalan, tafovutlarni to'g'ri tushunish, bir-biriga nisbatan hurmat, boshqa madaniyat, til va diniy etiqodga ega bo'lgan odamlar bilan hamjihatlikda yashash);

3) Og'zaki va yozma muloqatni amalga oshira bilishga oid kompetensiyalar (masalan, bir nechta tillarni egallaganlik);

4) Axborot jamiyatining vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan kompetensiyalar (masalan, yangi texnologiyalarni egallaganlik, ularni qo'llay olish, ommaviy axborot vositalari kanallari orqali tarqatiladigan axborot va reklamalarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'la olish);

5) Uzluksiz ta'limning asosi sifatida butun umri davomida kasbiy jihatdan hamda shaxsiy hayotida ta'lim olishga kompetentlilik.

So‘nggi kompetensiya alohida ahamiyatga ega, shuning uchun ba’zi tadqiqotchilar uni tizimli kompetensiya deb ataydilar. Ye.P. Tonkonogaya va V.Yu. Krichevskiyalar kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlarni ko‘rib chiqar ekanlar, kompetentlikni xushaxloqlik, pedagogik-tashkilotchilik, boshqaruvchanlik, kommunikativlik va boshqa sifatlardan bir qatorga qo‘yadilar. Kompetentlikning o‘zi pedagogda umumiy dunyoqarashining kengligi va madaniyatining yuqoriligini, pedagogika, psixologiya, boshqaruv nazariyasi va ta’limni boshqarishning ilmiy asoslari bo‘yicha kasbiy bilimlarining mavjudligini, o‘z bilimlarini amaliyotda rivojlantirishga layoqatliligini, ijtimoiy va psixologik-pedagogik tadqiqotlar metodlarini bilishini, pedagogik va boshqaruv ko‘nikmalarining zaruriy majmuasiga ega bo‘lishini nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, kompetentlik kasbiy bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi, shuningdek, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash hamda takomillashtirishga layoqatlilik bilan belgilanadi.

Pedagog-olimlarning ishlarida kompetentlikni pedagogik nuqtai-nazardan yanada kengroq va sinchiklab o‘rganish imkonini beradigan turli jihatlari va tarkibiy qismlari ajratib olingan va o‘rganib chiqilgan.

S.E. Shishov tomonidan kompetentlikning quyidagi ta’riflari keltirilgan: - o‘qish-o‘rganish tufayli egallangan bilimlar, tajriba, qadriyatlar va moyilliklarga asoslangan umumiy layoqatlilik; - bilim va vaziyatlar o‘rtasidagi aloqani o‘rnatish qobiliyati, muammoga mos keladigan hal etish yo‘lini topish (kompetentlik deb aytish uchun biror-bir vaziyatda namoyon etiladigan taqdirdagina joiz bo‘ladi, namoyon etilmagan kompetentlik – kompetentlik emas, yashirin imkoniyatlar bo‘lib qolsa ham katta gap).

L.M. Dolgova, P.V. Simonov va boshqalarning fikricha, kompetentlik – olingan bilimlarga asoslangan holda harakat qila olishlik demakdir. Namunalarga o‘xshash harakatlarni ko‘zda tutadigan “bilim, ko‘nikma va malakalardan” farqli o‘laroq, kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi. “Kompetentlik – ijtimoiy amaliyot ko‘rinishidagi bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi bo‘lib, u ta’lim jarayoni natijalariga

ijtimoiy-madaniy talablar va jamiyat tomonidan talablar qo'yiladigan hollarda namoyon bo'ladi", – deb ta'kidlaydi L.M. Dolgova.

V.V. Bashevning ta'kidlashicha, kompetentliklar – insonning individual qobiliyati bo'lib, ular shart-sharoitlar o'zgargan paytda ushbu qobiliyatning boshqa shart-sharoitlarga ko'cha olishida namoyon bo'ladi. Qo'llash sohalari ularning maxsusligi va aniqligini belgilaydi (matematik, tillar bo'yicha, siyosiy va boshqa kompetentliklar). Jamiyatni o'rganish sohasida samarali faoliyat ko'rsatuvchi odam quyidagilarga qodir bo'lishi kerak, ya'ni kompetentli odam: 1) o'zi tushib qolgan vaziyatni tadqiq eta olishi; 2) boshqa odamlar bilan muloqot o'rnatish olishi; 3) qarorlar qabul qila olishi; 4) qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish bo'yicha individual va jamoaviy harakatlarni tashkillashtira olishi; 5) faoliyatning yangi usullarini egallay olishi.

Shunday qilib, kompetentlikni layoqatlilik, tayyorlik, imkoniyatga egalik va shu bilan birga, ma'lim bir harakatlar natijasi sifatida talqin etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, kompetentlik – faoliyatga doir kategoriya bo'lib, sub'ektning qo'yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan kasbiy, ijtimoiy va boshqa faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi. Eng umumlashtirilgan holda ta'riflaydigan bo'lsak, kompetentlik – individning umuman jamiyatda va xususan kasbiy sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun zarur bo'lgan, atrofidagi ob'ektlar va sub'ektlar bilan o'zaro hamkorligi bo'yicha ma'lum bir malakalari va kasbiy tajribalari shakllanganligining muayyan darajasi demakdir.

N.G. Vitkovskayaning ta'riflashicha, kompetentlik – qo'yilgan muammolarni hal etishga qaratilgan insonning ichki (bilim, ko'nikma va malakalari, ma'naviy sifatlari, psixologik xususiyatlari) va tashqi (moddiy-texnik, ijtimoiy) imkoniyatlarini safarbar qila olishga qodirligidir.

Psixologik nuqtai-nazardan, A.K. Markovanning fikricha, kompetentlik – muayyan insonning xarakteristikasi, ya'ni kasbiy talablarga munosibligi darajasi bo'yicha insonning individual xarakteristikasi demakdir.

N.A.Muslimov o'zining tadqiqot ishlarida o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllanganlik asosini olitita sifatlar, ya'ni motivatsion xislatlar

(insonning butun hayoti davomida shakllanib, rivojlanib boruvchi tanlagan kasbiga bo'lgan ehtiyojlari, motivlari va maqsadlarni qamrab oladi), intellektual salohiyat (barcha rasmiy hujjatlar asosida o'qituvchi axborot va ma'lumotlarni uzatishga, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga intiladi), irodaviy sifatlar (maqsadga intiluvchanlik, ichki va tashqi to'siqlarni, jismoniy va aqliy zo'riqlashlarni yenga olishlik, o'zini tuta bilishlik va tashabbuskorlik xislatlari), amaliy ko'nikmalar (psixologik, pedagogik, metodik va texnik-texnologik qobiliyatlar, amallar, individning faoliyat va muloqotning turli sohalaridagi ko'nikmalari), hissiy sifatlar (o'z hissiyotlarini boshqarishning zaruriy malakalarini shakllantirishi, o'zining aniq hislari (qahr, g'azab, bezovtalik, arazlash, hasad, hamdardlik, uyalish, mag'rurlik, qo'rqish, ko'ngilchanlik, muhabbat va boshqalar)ni boshqarishi hamda o'z hissiy holatlarini va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni tushunishi) hamda o'z-o'zini boshqara olish (maqsadlarni va ularga erishish vositalarini tanlashdagi erkinlik, vijdonlilik, o'z faoliyatiga tanqidiy yondoshuv, harakatlarning keng qamrovliligi va anglanganligi, o'z xulqini boshqalarniki bilan qiyoslab borishi, kelajakka ishonchi, o'z jismoniy va psixologik holatini talab darajasida tutib turishi va boshqara olishi) sifatleri tashkil etishini ta'kidlab o'tadi.

Kompetentlikning mavjudligi to'g'risida inson mehnatining natijasiga qarab baho beriladi. Har bir soha mutaxassisining kompetentlilik darajasi uning bajargan ishi shu kasbiy faoliyatning yakuniy natijasiga qo'yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi.

Kompetentlikka insonning mehnat faoliyati davomida qilgan harakatlarining miqdoriga qarab emas, balki faoliyatning natijasiga qarab baho berish to'g'ri bo'ladi. Xuddi shuningdek, savodxonlik darajasiga qarab ham kompetentlikni belgilab bo'lmaydi.

M.P. Choshanov fikricha, kompetentlik – kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati bo'lib, uning o'ziga xos tomonlariga quyidagilar kiradi: - kompetentli odamning bilimlari amaliy tezkor va harakatchan, ular bu bilimlarni doimo yangilab turadilar; - kompetentlik mazmunli (bilimlar) va jarayonlarga doir

(ko‘nikmalar) komponentlariga ega. Muammoning mazmunini tushunishning o‘zi yetarli emas, uni amaliy jihatdan maqbul usullar bilan yecha bilish kerak, ya’ni metodlarning moslashuvchanligi kompetentlikning zaruriy tavsifi hisoblanadi; - kompetentlik maqbul yechimlarni tanlay bilish, qarorni asoslab bera olish, noto‘g‘ri yo‘llarni chiqarib tashlash, ya’ni tanqidiy fikrlay olishni taqozo etadi.



A.K. Markova muayyan insonning kompetentligi uning kasbiy mahoratiga nisbatan torroq bo‘ladi, deb hisoblaydi, ya’ni: “Inson umuman olganda o‘z kasbining ustasi bo‘lishi mumkin, lekin barcha kasbiy masalalarni hal etishda kompetentli bo‘lmasligi mumkin”. Kompetentlik deganda, alohida bilimlar va ko‘nikmalar yoki faoliyatning alohida harakatlarining yig‘indisi to‘g‘risida emas, balki, insonga mehnat faoliyatini to‘la-to‘kis amalga oshirish uchun kerak bo‘ladigan xususiyat haqida so‘z yuritiladi.

Kasbiy kompetentlik tor ma’noda malaka talablari doirasida bevosita xizmat vazifalarini bajarish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan shaxs sifatleri yig‘indisining xarakteristikasi sifatida tushuniladi. Shu nuqtai-nazardan kasbiy kompetentlik shaxs kasbiy sifatlarining negizi hisoblanadigan hamda mehnat va texnologik jarayonlarni tahlil qilish, texnik hujjatlarni va topshiriqlarni tahlil qilish, mehnat jarayonini bexato amalga oshirish, texnologik talablarga rioya qilish, qo‘shimcha malakalarni egallash, madaniyat va jarayonlarni tashkil etishning yuqori darajaliligi, texnologik jarayonda vujudga keladigan nosozliklarni bartaraf etish kabi faoliyatning elementlari orqali taqdim etilgan kasbiy kompetentsiyalarga ega bo‘lishni taqozo etadi.

Bunday yondoshuvda kasbiy kompetentlik va shunga mos ravishda kompetensiya xizmatchi uchun boshqa muhim kompetensiyalar bilan bir qatorda turadi.

Yuqorida sanab oʻtilgan kompetentliklarning barchasi bir insonda mujassam boʻlmasligi mumkin. Inson oʻz yoʻnalishi boʻyicha yaxshi mutaxassis boʻlishi mumkin, lekin muloqotga kirisha olmasligi, oʻz-oʻzini takomillashtirish boʻyicha vazifalarni amalga oshira olmasligi mumkin. Shunga koʻra, uning maxsus kompetentligini yuqori darajada, ijtimoiy va shaxsiy kompetentligini pastroq darajada, deb eʼtirof etish mumkin.

Bundan kelib chiqib shuni taʼkidlash joizki, kasbiy kompetentliklar borki, ular koʻplab kasblar uchun asos boʻlib xizmat qiladi va ishlab chiqarishda ham, ijtimoiy amaliyotda ham qoʻllanilganda oʻz ahamiyatini yoʻqotmaydi. Yuqorida sanab oʻtilgan kasbiy kompetentliklarning har bir turi shunday kasblararo umumiy tarkibiy qismlarni oʻz ichiga oladi. Masalan, maxsus kompetentlik - ishlab



chiqarish jarayonlarini rejalashtirish, texnika bilan ishlash koʻnikmalari, texnik hujjatlarni oʻqiy bilish, qoʻl ishlarini bajarish malakalariga; shaxsiy kompetentlik – oʻz faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va boshqarish, mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish, nostandart yechimlarni topa olish (kreativlilik), tez moslashuvchan nazariy va

amaliy fikrlash, muammoni koʻra bilish, yangi bilim va koʻnikmalarni mustaqil ravishda egallay olish layoqatiga; individual kompetentlik – motivatsiyaga, muvaffaqiyat zahiralariga ega boʻlish, bajaradigan ishining sifatini oshirishga intilish, oʻz-oʻzini safarbar qila olish, oʻziga ishonch va optimizmga ega boʻlishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, kompetentlikni bilimlarga yoki koʻnikma va malakalarga qarama-qarshi qoʻyish ham mumkin emas. Kompetentlik tushunchasi bilim yoki koʻnikma yoki malaka tushunchalariga nisbatan kengroq, kompetentlik ularni taʼlim natijasi sifatida oʻz ichiga oladi (lekin bunda kompetentlik bilim, koʻnikma va malakalarning oddiy yigʻindisi emas, bir muncha boshqacharoq mazmundagi tushunchadir). Kompetentlik tushunchasi nafaqat kognitiv va

operatsiyali-texnologik, balki, motivatsion, axloqiy, ijtimoiy tarkibiy qismlarni ham o'z ichiga oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ta'lim jarayonining ham mazmunini, ham shakllarini baravariga o'zgartirish zarur. Bunda o'zgartirilgan shakllar ta'lim oluvchilarga ma'lum bir kompetensiyalar bo'yicha bilim bermasdan, balki, butun ta'lim jarayoni davomida ular asosida faoliyat olib borishlarini ta'minlashi kerak. Ya'ni, ta'lim oluvchi navbatdagi ko'nikmalar to'plamini shakllantirish yo'li bilan bo'lajak kasbiy faoliyatiga tayyorlanishi emas, balki, kompetensiyalarni shu yerda va hozir singdirib borishi kerak. Shuning uchun kompetentlik ta'limi natijasida quyidagilar ta'minlanishi kerak:

- o'z-o'zini harakatga keltirish manbai sifatida ta'lim olishga ichki motivatsiyaning mavjud bo'lishi;

- yaxlit faoliyatni egallash sharti sifatida o'quv faoliyati jarayonida o'z-o'zini tashkillashtirish qobiliyati;

- har bir odamga o'zining u yoki bu o'quv materialini o'zlashtira olish darajasini aniqlash imkonini beruvchi o'z-o'zini differentsiatsiyalash (o'z darajasini aniqlay bilish) qobiliyati;

- ta'lim oluvchi tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan natijalarga erishishlik;

- ta'lim jarayonining barcha sub'ektlari orasidagi o'zaro bog'langan samarali faoliyatning mavjudligi.

Shu bilan birga, kompetentlikka yo'naltirilgan ta'limning metod va texnologiyalari ma'lum bir sharoitlarda shakllantirilgan qobiliyatlarni boshqa bir sharoitlarga oson ko'chishi va moslashuvchanligini ta'minlashi kerak, ya'ni "noadaptiv faollik" xususiyatini hosil qilishi kerak.

Kompetentlik yondoshuv ta'lim sifatini baholash uchun ham juda muhim hisoblanadi, chunki, ta'lim oluvchi tomonidan erishiladigan asosiy ta'limiy natija –



kompetentlik hisoblanadi, uning asosiy ko'rsatkichlari esa, bir tomondan ta'lim standartlarining me'yoriy talablariga muvofiqligi, ikkinchi tomondan, shaxsning va turli ijtimoiy guruhlarining ehtiyojlariga mosligidir. Shunday qilib, kompetentlikning birinchi tarkibiy qismi me'yoriy hujjatlarda (O'zbekiston Respublikasi qonunlari, DTS va b.) belgilab qo'yilgan ta'lim natijalaridan iborat. Ikkinchi tarkibiy qismini ijtimoiy talablar va ehtiyojlar belgilaydi, bu qism jamiyatning rivojlanishiga mutanosib ravishda universal, o'zgaruvchan bo'lib, o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritilib turiladi.

Kompetentlik alohida jihatlariga ko'ra tadqiq qilinsa ham, umuman olganda, fundamental pedagogik muammo sifatida hali nafaqat yechimi topilmagan, balki, muammo sifatida ham yetarlicha shakllantirilmagan. Xususan, kompetentlik yondashuvini tizimli tahlil etishga, uni umuman ta'lim tizimida ham, kasbiy ta'limda ham qo'llashning nazariy-metodologik va didaktik asoslarini aniqlashga doir ilmiy tadqiqot ishlari deyarli yo'q deb aytish mumkin.

Hozirgi zamon dunyo ta'lim tajribasida kompetentli yondashuv keng tarqalgan. "Kompetensiya" markaziy tushuncha sifatida ta'lim tizimining barcha bilim va ko'nikmalarini o'zida birlashtiradi. "Kompetensiya" tushunchasida ta'lim mohiyati shakllanib, g'oyasi mujassamlashadi. Uning aniq natijalarini ko'zlagan maqsadi — kompetensiyaning eng muhim qirralari, doimo rivojlanish tabiatiga ega bo'lgan, universal bilimlar asosida shakllangan mustaqil faoliyat tajribalaridan iborat, madaniyat va faoliyatning keng tarmoqlariga taalluqli unsurlarni o'z ichiga oladi .

Amaliy kompetentlik doimo o'sib boruvchi dinamik hodisadir, malaka oshirish va o'z ustida ishlash jarayonining natijasi hisoblanadi. Bilim va mahorat, hatto ijobiy yo'nalish ham vaqt o'tishi bilan eskirib qoladi, jamiyatning zamonaviy talablariga, yangi texnologiyalarga mos kelmasligi mumkin. Jamiyat ham, odamlar, muammolar ham o'zgarib bormoqda. Demak, bu vazifalarni yechish uchun yondashuv va metodlarni ham o'zgartirish talab etiladi. Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, reflektiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar. Ta'lim muassasalarida yoshlarning shaxsiy rivojlanishi ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik, munosabatlarining chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining turg'unligi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak kasb egalari uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayoni – bu insonda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ahamiyatli sanalgan kasbiy bilim, sifat, kompetentlik va mezonlar asosida rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. Ta'lim oluvchilar ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ulardan samarali foydalanish kabi holatlarni o'zida mujassam ettiradi.

adabiyotlarida juda kam kuzatilar edi. Innovatsion ta'lim so'zining zamirida yangilikni tashkil qilish, yangilikni o'zlashtirish, yangilikdan foydalanish, yangilikni namoyon etish kabi kompleks faoliyat yotadi.

22

tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.

“Innovatsion ta'lim” tushunchasi birinchi bor 1979 yilda “Rim klubi”da qo'llanilgan.

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

Ta'lim innovatsiyalari-ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar

Ta'lim sohasida innovatsion jarayon – bu ta'lim konsepsiyasidagi, o'quv dasturlaridagi, usul va uslublardagi, tarbiya va o'qitish usullaridagi yangilik va o'zgarishlardir. Ta'lim sohasida innovatsion jarayonlar so'zining tub ma'nosida pedagogikaning ikkita muhim – o'rganish, umumlashtirish va ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish muammosi va pedagogika fanlari yutuqlarini amaliyotga tadbiq etish muammosi yotadi. Shunday ekan, innovatsiyaning predmeti va innovatsion jarayonlarning tarkibi, mexanizi bir – biriga o'zaro bog'liq bo'lgan jarayonlar jamlanmasi tarkibida bo'lishi kerak. Aynan, innovatsion faoliyat xizmat ko'rsatish bozorida oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobatbardoshlikning asosini yaratibgina qolmay, professor – o'qituvchining kasb mahoratining o'sishini, ijodiy izlanishini, amaliy jihatdan ochib beradi. Shuning uchun ham, innovatsion faoliyat o'qituvchilarning ilmiy-uslubiy faoliyati va talabalarning o'quv jarayoniga ijodiy faoliyati bilan uzluksiz bog'liq.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualar muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat

Ta'limdagi pedagogning innovatsion faoliyati tuzilishini tahlil qilishda turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, A.Nikolskayaning fikricha, faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya'ni **tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish** bosqichlarida amalga oshiriladi.

«Innovatsion faoliyat» tushunchasini tahlil qilar ekanmiz:

G.A.Mkrtychyaning bu haqdagi fikri diqqatga sazovar: – «Pedagogik tajriba-sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: **xususiy tajriba, tajriba-sinov ishi, o‘qituvchining innovatsion faoliyati**. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko‘p bo‘lsa, o‘qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi».

Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy-madaniy ob‘ekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy sub‘ektlarning harakat tizimi bo‘lib, u ma’lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo‘lishdir. O‘qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o‘quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat.

Akmeologik yondashuv (grekcha “akme” so‘zidan olingan bo‘lib, “oliy nuqta”, “yuqori cho‘qqi” degan ma’nolarni anglatadi). Akmeologiya birinchi navbatda “fan” hisoblanadi. **Akmeologiya** - bu kattalarning (psixologik, natijalarga va mahorat cho‘qqisiga erishish) rivojlanish qonunlarini o‘rganadigan fan. Akmeologiya dastlab nemis psixolog olimi **Sharlotta Byuler** (1893-1974) tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, 1928 yilda rus olimi **Nikolay Aleksandrovich**



Ribnikov (1880-1961) tomonidan **Akmeologiya**-“Etuk odamlarning rivojlanishi” haqidagi fan sifatida e’tirof etgan. Bu fan sifatida tabiiy, ijtimoiy, gumanitar va texnika fanlarining uzaro integratsiyasi natijasida paydo bo‘lgan fan hisoblanadi. Akmeologiya fani bir vaqtning

o‘zida pedagogika va psixologiya fanlari bilan uzviy aloqada rivojlanmoqda.

Akmeologik yondashuv bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirishda yangi paradigmadir. Yangi iqtisodiyotning barcha jabhalariga turli kasblar bo‘yicha mutaxassis kadrlarni tayyorlash uchun akmeologiyaning quyidagi yo‘nalishlarining o‘rni va roli muhim ahamiyat kasb etadi. Bular: pedagogik, harbiy, ijtimoiy, maktab, tibbiyot, boshqaruv, kreativ, sinergetik, korreksion va etnik akmeologiyalardir.

Aksiologik yondashuv Aksiologiya (yunoncha *axio* – qadriyat va *logos* – fan, ta’limot) – qadriyatshunoslik, ma’naviy hodisalardan biri bo‘lgan qadriyatlar sohasini o‘rganadigan, uning qonun va kategoriyalarini tadqiq qiladigan ilm yo‘nalishi, qadriyatlar haqidagi fan. U XIX asrning ikkinchi yarmida nemis qadriyatshunosi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan ilmiy iste’molga kiritilgan. Aksiologiya aksiologik ong, qadrlash tuyg‘usi, aksiologik bilish, qadrlash tamoyiliga tayanib to‘plangan qadriyatlar to‘g‘risidagi bilimlar sistemasidir. Zamonaviy Aksiologiyada ob’ektiv, sub’ektiv va plyuralistik oqim hamda yo‘nalishlar mavjud. Aksiologiya «qadr», «qadrlash», «qadriyatlar», «qadriyatlar tizimi» kabi aksiologik kategoriyalarni, ularning turli shakllarini o‘rganadi. Qadriyatlar tizimining ijtimoiy taraqqiyotga bog‘liqlik qonuni, qadriyatlar tizimining o‘zgarishi va takomillashuvi bilan bog‘liq

aksiologik qonunlar ham aksiologiya shug‘ullanadigan masalalar doirasiga kiradi.




Kreativ yondashuv – Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati

Zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” tushunchasi qo‘llanila boshlaganiga hali u qadar ko‘p vaqt bo‘lmadi. Biroq, o‘qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo‘lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta’minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o‘qitish metodikasi, ta’lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g‘oyalari tashkil etadi.

“Kreativ pedagogika” quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) pedagog-o‘qituvchilar tomonidan o‘quv fanlarini past o‘zlashtirayotgan va ularni o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e’tiborlarini fan asoslarini o‘zlashtirishga jalb etish;

2) talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.



O‘qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvda aks etadi. So‘nggi yillarda ushbu holat “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

Pedagogik kreativlik– pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati

“Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil- mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar, Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar.

Refleksiv yondashuv – (lotincha *reflexio*- ortga qaytish) faqat sub’ektning o‘z-o‘zini bilishi va tushunishi emas, balki boshqalar uning shaxsiy xislatlari, his qilish tuyg‘usi va bilish (kognitiv) tasavvurlarini bilish hamda tushunishini aniqlab olishini ham anglatadi

Refleksiv innovatsion amaliyot o‘qituvchi ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilib, bunda pedagogik fanda faqatgina yangilik yaratish qobiliyatigina emas, balki o‘z-o‘ziga, o‘z mehnatiga, bolalarga, har qanday muammoli vaziyatni hal etishga va umuman hayotga o‘ziga hos ijodiy munosabatda bo‘lish tushuniladi.

Refleksiv innovatsion amaliyot ilgari tajribani dolzarblashtirish uni qayta anglash bo‘lajak ta’lim muassasasining yangi muammo va munosabatlarini aniqlash uchun imkon beradi.

Demak, pedagog-o‘qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar,

konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Texnologik yondashuv - Texnologiya (yunon. "techne" – mahorat, san'at, "logos" – tushuncha, ta'limot) – muayyan (ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va b.) jarayonlarning yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi

Ta'lim texnologiyasi (ingl. "an educational technology") – ta'lim (o'qitish) jarayonining yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi

Ta'lim texnologiyasi – ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarish.

Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Yevropa va AQShda ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o'rtaga tashlandi. Mazkur g'oya 30-yillarda ta'lim jarayoniga "pedagogik texnika" ("ta'lim texnikasi") tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda "pedagogik (ta'lim) texnika(si)" tushunchasi "o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi" tarzida talqin etildi hamda o'quv jarayoniga o'quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko'rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir deya baholandi.

XX asrning 50-yillarida ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash "ta'lim texnologiyasi" yo'nalishini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etildi, asosiy e'tibor talabalar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli

tashkil etish, ta'lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning ob'ekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik



vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o'quv jarayonini "texnologiyalashtirish"ning tashkiliy jihatlarini o'rganishga alohida urg'u berildi.

60-yillarning boshlarida ta'limni dasturlash asosida ta'lim jarayonini tashkil etish "texnologiya" tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko'rila boshlandi. Dasturiy ta'lim talabalarga muayyan bilimlarni alohida qism holida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Ta'lim jarayonini yaxlit, maqbul dasturga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQShda faoliyat yurita boshlagan "Dasturiy ta'lim va o'rgatuvchi mashinalar bo'yicha birlashgan Qo'mita" tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta'lim o'zida ta'lim maqsadlari, ularni o'zgartirish va baholashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta'lim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi.

Kompetentli yondashuv – Kompetentlik yondoshuvining asoschilaridan biri bo'lgan J.Raven buning muhimligini shunday tushuntiradi: "biz ko'proq va kamroq kompetentli fermerlar, o'qituvchilar, haydovchilar, temirchilar, menedjerlar va harbiy ofitserlarni solishtirganimizda, har bir holatda o'z ishining ustalari namoyish qilgan aynan siyosiy xulq-atvor eng muhim bo'lib chiqdi. Aksincha, odamlarning bevosita xizmat burchlari doirasidan tashqaridagi ijtimoiy, tashkiliy va siyosiy cheklashlarga nisbatan biron bir chora-tadbirlarni ko'rishga layoqatsizligi va hohishi yo'qligi zamonaviy jamiyatda kompetentli bo'lmagan kasbiy xulq-atvorning asosiy manbai sifatida namoyon bo'ladi, vaholanki, aynan ular inson bu doira ichida nima qila olishini aniqlaydilar.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni muammoli o'qitish jarayonida amalga oshirish ham maqsadga muvofiq bo'ladi, buning mohiyati kasbiy faoliyatni yaxlit tizim sifatida ko'rish, unda tizimli faoliyat ko'rsata bilish, yangi muammo va masalalarni hal eta bilish tajribalarini shakllantirish uchun zamin yaratishga xizmat

qiladigan kasbiy faoliyat elementlarini ta'lim jarayoniga kiritishdan iborat.

Quyidagi jadvalda ta'limga an'anaviy va kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuvlarning qiyosiy tavsifi keltirilgan.

1-jadval

Ta'limga an'anaviy va kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuvlarning qiyosiy tavsifi

Ta'lim jarayoni elementlari	An'anaviy yondashuv	Kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuv
Maqsadlar	Bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan	Kompetensiyalarni shakllantirishga (real mehnat faoliyatiga yo'naltirilgan)
Ta'lim mazmuni	Davlat ta'lim standartini amalga oshiradi	Kasbiy-ta'limiy dasturlar- ni o'zlashtirishga qaratilgan individual yo'nalish. Tez moslanuvchan talimning natijaviyligiga erishishga yo'naltirilgan
Ta'limni tashkil etish shakllari	Ta'limni sinf-dars, auditoriyada tashkil etish. Ko'nikmani rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliyot	Individual , juftlikda, kichik guruhlarda va katta guruhlarda ishlash
Pedagogik jarayonni tashkil etish va amalga oshirish metodlari	Qat'iy dastur asosida o'qitishning sinf-dars tizimi doirasidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan metodlar	Kasbiy-ta'limiy dasturlarni modullar asosida o'zlashtirishning individual va kompetentlik yondashuviga yo'naltirilgan muammoli-faoliyatli metodlari
Pedagoglar faoliyatining jarayondagi o'ri	"Nasihatgo'y", "axborot beruvchi", baholovchi"	"Hamkor", "maslahatchi", "yordamchi", "vositachi"
Ta'lim oluvchilar faoliyatining jarayondagi o'ri	"Talaba", "qabul qiluvchi", "xotirasida saqlovchi "	"Hamkor", "tajriba o'tkazuvchi", "tadqiqotchi", "konstruktor-yaratuvchi"
Ta'lim muassasasini boshqarish tuzilmasi	Tuzilma ta'lim muassasasi faoliyatini yuritishga yo'naltirilgan	Tuzilma ta'lim muassasasini rivojlantirishga yo'naltirilgan
Ta'lim natijalarini nazorat qilish va baholash	Bilim, ko'nikma va malakalarning shakllan-ganligini tekshirishga yo'naltirilgan (nazoratlar, testlar va hokazo)	Mutaxassisning kasbiy kompetensiyasini va shaxsiy sifatlarini rivojlanish darajasini aniqlashga hamda baholash ham talim olish xarakteriga

		yo‘naltirilgan
--	--	----------------

Keltirilgan tavsiflarni tahlil etish natijasida ta’limga kompetentli yondashuvining shakllanish shart-sharoitlarini aniqlab olish mumkin. Ular:

- bilimlar izlanish va fikrlash faoliyatlari, ijod jarayoni mahsuli sifatida turli xil shakllarda tizimli, fanlararo hamda umumlashtirilgan holda beriladi;
- pedagog “boshqaruvchi”, “hamkor” sifatida namoyon bo‘ladi, ya’ni, hamkorlik qilish, demokratik ravishda ta’sir o‘tkazish, yordam berish, ruhlantirish, talabaning shaxsiy tashabbuslariga e’tiborli bo‘lish, uning shaxsini rivojlantirishga intilish pozitsiyasini egallaydi;
- talaba pedagoglar va boshqa talabalar bilan faol hamkorlik qilishga, bir-birini qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro ma’suliyatlilik muhitini yaratishga yo‘naltirilgan;
- ta’lim oluvchilar uchun ta’lim va tarbiyani tashkil etishning guruhli shakllari orqali shaxslararo munosabatlar va muloqatning xilma-xil shakllarini amaliy ravishda o‘zlashtirishlari, hamkorlikda ishlash va ijod qilish quvonchini his etishlari uchun shart-sharoitlar yaratiladi;
- harakat va xulq-atvorlarning oldindan belgilab qo‘yilgan namunasiga mosligini baholashdan voz kechish.

Inson tabiatidan kelib chiqqan holda, pedagogik jarayonning mazmuniy tuzilmasini aks ettiradigan, ta’limning maqsadini qo‘yishdan boshlab to natijaga erishishgacha bo‘lgan faoliyatni tashkil etishning barcha bosqichlari loyihalanadi.

Jamoaviy-individual ravishda tafakkur etish texnologiyasida rivojlantiruvchi



makon–tabiiy ijtimoiy muhit hisoblanadi, unda umumlashtirilgan (jamo), shaxslararo (qiziqishlarga ko‘ra ijodiy birlashmalar), kasbiy (predmetli mazmun)dan iborat bo‘lgan munosabatlar tizimida bilim olish va o‘quv-kasbiy faoliyatga oid muammolar hal etiladi, shuningdek, hayotiy muammoli vaziyatlarni

boshdan kechirib ko‘riladi.

Kompetentli yondashuvning mohiyati, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, u

insonda mustaqil ravishda bilimlarni egallash faoliyatini tashkillashtirish, refleksiya, ijodkorlik, jismoniy va ruhiy jihatdan o'zini boshqara olish ko'nikmalarini egallash, o'z-o'zini uyushtirish va rivojlantirish kabi qobiliyat va layoqatlarni shakllantirishni ta'minlaydi. Shuningdek bunga kasbiy kompetentlikni shakllantirishning didaktik modelini tuzish uchun nazariy-metodologik asos sifatida olingan o'z-o'zini rivojlantirish nazariyasi ham to'la-to'kis mos keladi.

Psixologik yondashuv – Psixologiya fanida bir-biriga yaqin, lekin ayniyat bo'lmagan tushunchalar qo'llanilib kelinadi, chunonchi: odam, shaxs, individuallik. Ularning mohiyatini aniqroq izohlab berish uchun har birining psixologik tabiatini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

1. *Odam*: Sut emizuvchilar sinfiga dahldorlik, biologik jonzod ekanligi odamning o'ziga xos xususiyatidir. Tik yurishlik, qo'llarning mehnat faoliyatiga moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miyaga egaligi, sut emizuvchilar tasnifiga kirishi uning o'ziga xos tomonlarini aks tufayli borliqni ongli aks ettirish qobiliyatidan tashqari o'z qiziqishlari va ehtiyojlariga mutanosib tarzda uni o'zgartirish imkoniyatiga ham egadir.

2. *Shaxs*. Mehnat tufayli hayvonot olamidan ajralib chiqqan va jamiyatda rivojlanuvchi, til yordami bilan, boshqa kishilar bilan muloqot (muomala) ga kirishuvchi odam shaxsga aylanadi. Ijtimoiy mohiyati shaxsning asosiy tavsifi hisoblanadi.

3. *Individuallik*. Har qaysi inson betakror o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shaxsning o'ziga xos qirralarining mujassamlashuvi individuallikni vujudga keltiradi.

Odatda shaxsni rivojlantirish, shakllantirish, tarkib toptirish, kamolotga yetkazish mavjud qarama-qarshiliklarni, ziddiyatli vaziyatlarni yengish, irodaviy zo'r berish, zo'riqish, tanglik, jiddiylik holatlarini boshqarish, o'zini qo'lga olish orqali ushbu faoliyatni amalga oshirishning oqilona, omilkor vositalarini (yo'llari, usullari, operatsiyalari, ko'nikmalari, uquvlari, malakalari, odatlari, harakatlari kabilarni) o'zlashtirish, egallash natijasida vujudga keladi. Bularning barchasi imitatsiya (taqlid), identifikatsiya, refleksiya, stereotipizatsiya, ta'lim, o'qitish,

o'qish, o'rganish, o'rgatish, saboq olish, o'zlashtirish, mustaqil bilim olish jarayonida yuzaga keltiriladi. Mazkur holatda aniq faoliyat orqali ehtiyojni qondirish qonuniy ravishda yanada yuksakroq, yuqori bosqichdagi yangi xususiyatga ega bo'lgan ehtiyojni tug'diradi.



Andragogik yondashuv - Bugungi kunda mutaxassis

o'zining 5-10 yil oldingi oliy ta'lim muassasasida olgan bilimlari bilan kasbiy-shaxsiy faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil eta olmasligi, mehnat bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlay olmasligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida mutaxassislarning kasb darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, ularni zamonaviy talablarga muvofiq qayta tayyorlash va malakasini oshirish orqali kasbiy va shaxsiy rivojlanish darajasini ta'minlash masalasining dolzarbligini belgilaydi. Ilmiy yo'nalishlarida «ta'limning uzluksizligi va shaxs ehtiyojlariga yo'nalganligi» tamoyilini ilgari suruvchi andragogika (adult education) ham katta yoshlilar ta'limining o'ziga xosligi, nazariy va amaliy masalalari bilan shug'ullanuvchi fan sohasi sifatida rivojlanmoqda. Katta yoshlilarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti jahon tajribasida bir necha bosqichlarni bosib o'tgan. Xususan, XIX asrning 30- yillaridan boshlab Evropa va Amerikaning ko'pgina davlatlarida bu davrda ishlab chiqarishning tez o'sishi, jamiyat va ijtimoiy hayotning rivojlanishi negizida kattalarni o'qitishning dastlabki tajribalari to'plana boshlangan.

XX asr boshlarida katta yoshlilarni o'qitish muammosi olimlar tomonidan insonni o'rganuvchi fanlar tizimiga kiritildi. Birinchi navbatda bu insonning turli yosh davrlaridagi psixik rivojlanishi jarayoni bilan bog'landi. Ammo bu vaqtda inson hayotining hamma bosqichida ham ta'lim olishi mumkinligi haqidagi qarashlarni asoslash zarurati vujudga keldi. 1950-1960 yillarda bir qancha xorijiy mualliflarning ishlarida kattalarni o'qitishning didaktik va metodik yondashuv muammolari ko'rib chiqilgan. Jumladan, aksariyat xorijiy tadqiqotchilar kattalarni o'qitishning pedagogik tamoyillar asosida talqin etib, kattalarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini kattalar pedagogikasi deb ataganlar. 1950-1960 yillarda olimlar

M.Ogrizovich va B.Samolovchev, taniqli nemis professori F.Pyoggeler, shveysar



Aleksandr Kapp

nazariyachi olimi G.Xanselmana, polyak olimlari M.Semenski, L.Turoslarning ilmiy ishlarida «andragogika» iborasi paydo bo'ldi.

Andragogiya (gr. ἀνὴρ anér-katta odam, erkak, ἄγειν ágein -yetaklayman) ta'lim nazariyasining bir qismi bo'lib, u kattalar o'quv faoliyati sub'ekti tomonidan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishning o'ziga xos qonuniyatlarini, shuningdek, o'qituvchi tomonidan ushbu faoliyatni professional boshqarish xususiyatlarini ochib beradi. "Andragogika" tushunchasi 1833 yilda nemis pedagogika tarixchisi Aleksandr Kapp (1799-1869) tomonidan fan sifatida amaliyotga kiritilgan.

Bu mualliflar andragogikaning pedagogikadan farqlarini aniqlashga harakat qildilar. Andragogikaning alohida fan sifatida shakllanishi va tiklanishi 1970 yilga to'g'ri kelib, aynan shu yili kattalar ta'limining amerikalik nazariyachi va amaliyotchi olimi M.Sh.Noulzning «Kattalar ta'limining zamonaviy amaliyoti. Andragogika yoki pedagogika» nomli fundamental ishi chop etiladi. Adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, dunyo olimlarining aksariyati andragogikani mustaqil fan va ilmiy yo'nalish sifatida pedagogik fan tarmog'i hamda ijtimoiy va gumanitar bilimlar sohasi sifatida talqin etadilar.

Andragogikaning an'anaviy pedagogikadan asosiy farqi ta'lim berish jarayonida ta'lim beruvchining (andragog – katta yoshli kishilar ta'limi bilan shug'ullanuvchi shaxs) emas, balki ta'lim oluvchining faol pozitsiyada bo'lishidir. Bunda ta'lim beruvchining asosiy faoliyati ta'lim oluvchiga o'zida mavjud bilimlarni yangilash, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashga yordam berish hisoblanadi. Chunki yangi kasbiy bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarni o'zlashtirish asosida katta yoshlilarning axborotlashgan jamiyatga moslashishi va unda o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon etishi faollashadi.

Nazorat savollari:

1. Kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini bayon qiling.
2. Kasbiy kompetensiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlarning ahamiyatini bayon qiling.
4. Xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ta'sirini aniqlang.

Adabiyotlar ro'yxati va internet ilovalari:

1. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – Toshkent: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 90 bet.
2. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81-b.
3. Kompetensii pedagoga XXI veka [Elektronnyy resurs]: sb. materialov resp. konferensii (Minsk, 25 noyab. 2021 g.) / M-vo obrazovaniya Resp. Belarus, GUO «Akad. poslediplom. obrazovaniya», OO «Belorus. ped. o-vo». – Minsk: APO, 2021.
4. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.
5. Ishmuhamedov R, Mirsolieva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019.- 68 b.
6. <https://psychologos.ru/articles/view/andragogika-i-pedagogika>
7. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%90%D0%BD%D0%B4%D1%80%D0%B0%D0%B3%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D0%BA%D0%B0>
8. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/aksiologiya-uz/>

2-MAVZU. TA'LIM SIFATINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Reja:

- 1. O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagogning mahorati.**
- 2. Pedagogik texnika – pedagog xulqining boshqarish omili sifatida.**
- 3. Pedagogik texnikaning asosiy komponentlari va uni shakllantirish yo'llari.**
- 4. Pedagogik deontologiya, pedagogik boshqaruv va texnika o'qituvchi faoliyatini samarali tashkil etishning asosiy shakli.**

***Tayanch tushunchalar:** Pedagogik texnika, o'qituvchi professionalizmi, pantomimika, mimika, jest, nutq, "relaksopediya", muloqot.*

O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagogning mahorati. Bugungi kunda davlatimiz ta'limi sohasi oldiga qo'yayotgan vazifalarning bajarilishi ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Shunday ekan, axloqning muhim jihatlaridan biri inson sha'ni, qadr-qimmatidir. Kishining qadr-qimmati, avvalo, umumiy ishga qo'shayotgan hissasining salmog'i va sifati bilan belgilanadi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda inson o'z mehnatining salmog'i va sifati bilan, aqliy va jismoniy mehnatining samarasi, ishbilarmonligi bilan qadrlanadi, halol mehnat kishining qadri, izzat-hurmatini oshiradi. O'qituvchi, muallimning bajarayotgan ishi bugungi kunda jamiyatda ahamiyatlidir. Insonning qadr-qimmati uning mansabi, kasbi-koridan ko'ra ham ko'proq o'z kasbini qanday bajarishi, uning odobi va xulq-atvoriga bog'liqdir.

Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda o'qituvchining o'рни beqiyosdir. O'qituvchilik sharaflı, lekin juda murakkab kasb. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g'oyalar bayon etiladi. O'qituvchining yosh individual xususiyat-larini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Maktab hayotidagi amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik,

yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlik, boshqaruv qobiliyatini egallashni talab etadi. Xo'sh, pedagogik mahorat nima?

Pedagogik mahorat deganda, pedagogik jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarda keng dunyoqarash va qobiliyatlarni shakllantirish hamda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otish tushuniladi.

Pedagogik mahorat tushunchasi mazmunini "*Pedagogik ensiklopediya*" va pedagogik, psixologik adabiyotlarga asoslanib quyidagicha ta'riflash mumkin:

Pedagogik mahorat - o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash sohalarni yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish metodikasini mukammal egallagan o'qituvchi - tarbiyachi.

Pedagogik mahorat - o'qituvchining ustoz murabbiylik fazilatlari, o'qituvchilik kasbining sirlarini chuqur egallaganligi, insoniylik va iste'dodi hamda intellektual salohiyati va shu kabilar asosida undagi kasbiy bilim va tushuncha, ko'nikma va malakalarning mukammal shakllangan kasbiy faoliyati.

Pedagogik mahorat - o'qituvchidagi quyidagi qobiliyatlar mujassami:

✚ dars materialini aniq va ravshan bayon qila olishi;

✚ o'z ta'lim oluvchilarini iloji boricha o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir xil fikrga keltira olishi;

✚ mavzu mohiyatini to'la ochib bera olishi va zaruriyat bo'lgapda ularga bu mavzuning o'z kasbiy faoliyatidagi o'rni va roli haqida tushuncha bera olishi;

✚ dars davomida befarq xolda katnashayotgan talabani tezda dars mazmunini o'rganishga jalb qila olishi;

✚ darsni yana davom ettirishini hohlovchi ta'lim oluvchilar soni auditoriyadagi jami ta'lim oluvchilarning qancha qismini tashkil etishini baxolab borish va bu orqali dars o'tish texnologiyasini takomillashtirib borish imkoniyatiga ega bo'lishi;

✚ dars maksadiga erishganligini baholay bilishi va xulosalash qobiliyatiga ega bo'lishi va h.k.

Pedagogik mahorat – o'qituvchining o'z fanlarini o'rganishda erishgan



tajribalarini o'z faoliyatida ijodiy qo'llagan holda o'quv tarbiya ishining xamma qirralarida eng yuqori darajada erishilgan yutuqlardir.

Pedagogik mahorat - bu o'qituvchi - pedagogning shunday shaxsiy va kasbiy fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z

fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida talabalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishniig maqbul yo'llarini izlab topib amaliy faoliyatida qo'llashida namoyon bo'ladi

Pedagogik mahorat deganda o'qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko'nikmalarini mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyasi, hayotga ahloqiy-estetik munosabatda bo'lishi, o'z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat'iy ifodasi tushuniladi.

Pedagogik mahorat—o'qituvchining kasbiy yo'nalishdagi ijodkorligini oliy namunasi, pedagogik mahorat o'qituvchida yillar davomida shakllanib boradi. Mahoratli o'qituvchi hamisha ilg'or tajriba sohibi bo'la oladi. Shuning uchun “Pedagogik texnologiya” tushunchasi tarkibiga “yangi”, “ilg'or”, “novatorlik”, “ijodkorlik”, “kasb tafakkuri” kabi tushunchalar singdiriladi. Bu tushunchalarning rivoji pedagogik mahoratda namoyon bo'ladi.

O'qituvchilik mahorati yuzasidan tahlil qilingan manbalarda «pedagogik mahorat» – «o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik qobiliyati», «o'qituvchining muomala madaniyati va nutq san'ati», «pedagogik nazokat, odob va ahloq», «turli kelib chiqadigan pedagogik vaziyatlarga munosabat», «o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ilmiy ijodiy ishlash» kabi iboralar bilan tavsiflanadi. Demak, pedagogik mahorat o'qituvchining kasbiy, shaxsiy, umummadaniy, maxsus sifatleri bilan birga o'z kasbiga layoqatliligi, mehri bilan tavsiflanadi.

«O'qituvchi, – deydi Al-Farobiy, – aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega

bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur». U o'z fikrini davom ettirib, «O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi, yoshlarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Shu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. Ana shundagina u insonlikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi», deb ta'kidlaydi.

Nasriddin Tusiy o'zining «O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risida» nomli asarida: «O'qituvchi munozaralarni olib borishi, rad etib bo'lmaydigan darajadagi isbot qilishni bilishi, o'z fikrlarining to'g'riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi lozim. O'qituvchi nutqi hech qachon va hech qaerda zaharhandali, qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'qituvchining o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin», deydi. Demak, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi pedagogik mahoratdan oqilona foydalanishi, boshqarish mexanizmlaridan foydalanishi zarur.

Pedagogik jarayonni boshqarish nimadan boshlanadi? Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish tashkil etish, o'quv vaziyatlari bo'yicha qaror qabul qilish, kafolatlangan natijani qo'lga kiritish, nazorat qilish, kasbiy faoliyatni muvofiqlashtirish bilan belgilanadi.

Pedagogik mahoratni oshirishda boshqaruv san'atidan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ta'lim menejmentida dolzarb bo'lgan masalalar mavjud:

1. Ta'limda maqsadni aniq qo'ya bilish va bosh g'oyalar yechimiga e'tibor berish.
2. Pedagogik jamoada so'z va ish birligini yo'lga qo'yish, sog'lom muhit yaratish.
3. Ta'limda Davlat ta'lim standartlari talablari ijrosini sifatli kafolatlash.
4. Jamoa va o'quvchilar orasida ongli intizomni shakllantirish.
5. Har bir kasbdosh pedagogga samimiy munosabatda bo'lish.

6. Ijodkorlik, tezkorlik va ishonchni qozonish, keng qamrovli fikr yuritish, maqsad va istiqbolni avvaldan ko‘rish, qilingan ishlarni tahlil etish, tanqidiy qarash, taklif kiritish, tatbiq etishga erishish.

7. Pedagogik jamoaning ichki tartib-qoidalariga amal qilish.

8. Ta’lim-tarbiya ishlarini olib borish uchun sog‘lom muhit va moddiy sharoit yaratish.

9. Ish yuritishda davlat, nodavlat tashkilotlar, ta’lim muassasalari, oila, mahalla bilan samimiy hamkorlik o‘rnatish va ta’lim-tarbiya sifatini oshirish.

10. Ta’lim-tarbiya jarayonida sifat va samaradorlikni ta’minlash kabilardan iborat.

Bunda pedagog faoliyati quyidagi shartlarga javob berishi lozim:

- tarbiya va tahsil oluvchilarga ta’sir o‘tkaza olish;
- talabchanlik;
- mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish;
- obro‘-e’tiborga ega bo‘lish;
- pedagogik jamoa ishonchini oqlash;
- o‘quvchilar faoliyatini to‘g‘ri idrok etish;
- ta’lim-tarbiya natijalarini kuzata bilish, baholay olish, zarur holatlarda tanqid qila olish.

Pedagogga xos sifatlar: tashkilotchilik; kasbiy ishchanlik; muomalada kirishimlilik; har qanday vaziyatda o‘zini tuta olish, vazminlik; kasbiy mahorat; uddaburonlik, bunyodkorlik; maslahat bera oladigan; aql-idrokli; o‘ziga ishonadigan; o‘rnak bo‘la oladigan; nazorat qiladigan.

O‘qituvchining kasbiy pedagogik mahoratining asosiy mazmun mohiyatini mezonlari va ko‘rsatkichlari-pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika sirlarini puxta egallash va yuksak kasbiy salohiyatga – professionalizmga ega bo‘lish, ta’lim-tarbiya jarayonida talabalar bilan o‘zaro mulokot olib borish taktikasini qo‘llash va ularga muvaffaqiyatli ta’sir ko‘rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardorligi, pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olish, nutqining ravonligi, tashkilotchilik qobiliyati, ma’naviy ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish

hamda amalga oshirish, pedagogik faoliyat jarayonida xulq-atvorini va hissiyotlarini jilovlay olish va boshka xususiyatlardan iborat. Demak, yuksak pedagogik mahorat egasi, ya'ni professional kasb egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'zida ham ilg'orlikni, ham ijodkorlikni, ham novatorlikni (yangilikka intilishni) tarbiyalashi lozim.

Buni quyida keltirilayotgan o'qituvchining kasbiy mahorati mazmuni va mohiyati asosida ko'rishimiz mumkin:

Mutaxassislarning tadqiqotlari natijasida o'qituvchilarni pedagogik bilimlar, pedagogik mahoratni egallashlarining besh darajasi aniqlangan: axborot, tezaurus, uslubiy, texnologik, tadqiqot.

Axborot darajasida. asosiy vazifa mavjud bilim hakida axborot olish imkoniyatini ta'minlashdan iborat.

Tezaurus darajasi fan tili bilan bog'liq. Kasbiy professionallikka ega bo'lgan pedagog bu tilni bilishi shart, chunki bilimlar ularni lozim darajada qabul qilish va tushunishni taqazo etadi. tezaurus darajasi bilim va inson o'rtasidagi axborotga oid mo'cuqlarnu bartaraf etish va mutaxassislarning fan tilini erkin o'zlashtirishga imkoniyat yaratishni nazarda tutadi.

Uslubiy daraja nafaqat ilmiy bilimlar, balki kasbiy ko'nikmalarning ham mavjudligini, pedagogik nazariyotchilar tomonidan ishlab chiqilgan uslublarni o'zlashtirilganligini anglatadi.

Texnologik daraja ilmiy bilimlarni va tavsiya etilgan ilg'or tajribani amaliyotga joriy etish maqsadida ularni sifatli va samarali aks ettirishni nazarda tutadi. Aks ettirish to'g'ridan-to'g'ri nusxa ko'chirish degani emas. Bunda muayyan metod qo'llanilayotgan shart-sharoit, xususan, talabalarning tayyorgarlik darajasi, ularning odatlari, *o'qituvchi-pedagoglarning texnologik madaniyat va pedagogik mahorat darajasi hisobga olinishi lozim.*

Ta'kidlash zarurki, o'qituvchining texnologik madaniyati pedagogik madaniyat va pedagogik mahoratining tarkibiy kismi hisoblanadi. Texnologik madaniyatli va yuksak kasbiy pedagogik professionallikka ega o'qituvchi pedagogika fani va amaliyotini birlashtiradi.

Tadqiqot darajasi shu bilan tavsiflanadiki, o'qituvchi ilmiy bilimdan foydalanuvchidan uni yaratuvchisiga aylanadi. Yangilik yaratuvchi o'qituvchi-pedagoglar amaliyotning ilmiy saloxiyatini, tadqiqot faoliyati uchun kerakli tadqiqot maydonining mavjudligini namoyish eta oladilar.

Shunday kilib, pedagogik mahorat o'qituvchi-pedagoglarning ko'nikmalari tarkibiga amal qiladi va amaliy faoliyatda ular orqali ruyobga chiqadi. Shu sababli pedagogik mahorat o'qituvchining pedagogik madaniyati va pedagogik ko'nikma, etikasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Pedagogik ijodkorlik. Oliy ta'lim muasasasi ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bevosita ta'lim jarayonini amalga oshiruvchi o'qituvchilarga alohida talablar qo'yadi. Amaliy faoliyatga ijodkorona tatbiq etishning asosiy tayanch nuqtalari hisoblangan, o'z-o'zini takomillashtirish texnologiyasining konseptual asoslarini, asosiy qoidalarining mohiyatini o'zlashtirgan pedagog talabalarga ta'lim va tarbiya berishda innovatsion g'oyalarning yetakchisi bo'la olishi mumkin. Bu esa quyidagilarni taqozo etadi:

a) u talabani tinglay biladi va uni eshita oladi, shaxsiy fikrlarini ifodalashiga, ochiqdan-ochiq qarshi chiqishiga bag'rikenglik munosabatida bo'la oladi, o'zaro tenglik va ishonchga asoslangan munosabatlarni o'rnatadi, vaziyatdan munosib ravishda chiqadi;

b) pedagog yangi g'oyalarni hamisha qo'llab-quvvatlaydi, g'oya va fikrlarini bemalol, erkin ifodalash mumkin bo'lgan muhitni yarata oladi;

v) qiyin yoki nizoli vaziyatlarda aybdorni emas, keskinlik va ixtiloflarning kelib chiqish sabablarini izlaydi;

g) talabalar jamoasida mo'tadil psixologik muhitni yarata oladi, ularning muvaffaqiyatlari va xizmatlarini tan ola biladi.

Ijodkor pedagog o'z kasbining yetuk ustasi – ustoz pedagog, ma'lum pedagogik mahoratga ega shaxs hisoblanadi. Pedagog barcha vaziyatlarda ham o'z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun doimiy ravishda o'z bilim va mahoratini oshirib, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni, ilg'or pedagogik tajribalarni, metod va usullarni muntazam o'rganib, kasbiy-pedagogik

ijodkorligini rivojlantirib boradi.

Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnika – pedagog xulqining boshqarish omili sifatida. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida “Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish” moduli negizida talabalarni pedagogik mahorat asoslar bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Zero, talabalar tomonidan pedagogik mahoratning tarkibiy elementlari




bilan tanishtirish, ularda pedagogik texnika, nutq madaniyati, pedagogik deontologiya, kommunikativ qobiliyat, pedagogik nizo, shuningdek, zamonaviy pedagogning imidji to‘g‘risidagi ma’lumotlarning o‘zlashtirilishi va mazkur bilimlar negizida zarur malakalarning

o‘zlashtirilishi oliy ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayon sifatini yaxshilash, samaradorligini ta’minlashni kafolatlaydi.

O‘qituvchining kasbiy pedagogik professionalizmi - pedagogik mahorati va o‘z kasbiy faoliyatini yuqori saviyada tashkil qila olishni ta’minlovchi, o‘qituvchi-pedagog shaxs xususiyatlarini yig‘indisidir. Shunday muhim xususiyatlarga o‘qituvchi faoliyatining insonparvarlikka yo‘naltirilganligi, uning kasbiy bilimlari, pedagogik qobiliyatlari va pedagogik texnikasi (*o‘z-o‘zini boshqara olish ko‘nikmalari va talabalar bilan uzaro hamkorlik qila olish malakasi*) kiradi. Bu pedagogik mahorat tizimidagi o‘zini tashqi ta’sirlarsiz rivojlantira olish xususiyatiga ega to‘rtta o‘zaro bogliq jixatlardir. Shundan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, o‘qituvchi professionalizmi-bu shaxs va faoliyat sub’ektining murakkab, ko‘p qirrali integral xususiyatlari majmuasi bo‘lib, uning tuzilmasi quyidagilardan iborat: a) o‘qituvchi professionalizmini tashkil etuvchi yaxlit komponentlar; b) o‘qituvchi faoliyati va shaxsiga qo‘yilgan me’yoriy talablar bilan belgilangan umumiy yoki tipik xususiyatlar (*me’yoriy professionalizm*). v) o‘qituvchi sub’ekt sifatida pedagogik faoliyat va muloqotda namoyon bo‘luvchi individual-psixologik va tipologik xususiyatlari pedagogik kasbiy kompetensiyalarining asosiy tarkibiy qismlari sifatida “kasbiy mahorat”, “pedagogik faoliyat va muloqotning individual

uslub”, “pedagogik ijodkorlik”, “shaxsiy kasbiy salohiyat”ni belgilash mumkin.

Bular “**Mahorat - Uslub – Salohiyat –Mohirlik (texnika) - Ijod –Artistizm**” formulasida o‘z aksini topgan yaxlit tizimni tashkil etadi va pedagogik kompetensiyalar ning ko‘rsatkichlari xisoblanadi.



O‘qituvchi professionalizmi – bu talabalar bilan hamkorlik va do‘stona munosabatlar jarayonida namoyon buladigan “ta’lim va tarbiya berish san’ati, pedagogik mahorat, pedagogik texnika va erkin ijod”dir.

Yuqorida keltirilgan fikrlar shu kunda o‘qituvchidan mohirlik, ya’ni texnikani – pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini bilish, uning usullarini egallash va ularni o‘z faoliyatida qo‘llay olishni talab etadi.



Pedagogik texnikaga A.S Makarenko quyidagicha ta’rif beradi: “**Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo‘lishni bilishi lozim, u o‘zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin**”.

Pedagogik texnikaning asosiy komponentlari: 1.O‘qituvchining o‘zini boshqara olishi. 2.Shaxs va jamoaga ta’sir eta olishi. 3. Pedagogik muloqotni o‘rnatish. 4. Diqqatni jalb etish usullari.

Yakka shaxs va jamoaga ta'sir qilishning ikki usuli mavjud: "ishontirish usuli" va "yoqish usuli". Ikkinchisi samaraliroqdir, negaki insonga yoqmay turib uni ishontirish qiyin.

Pedagogik texnika – har bir ta'lim oluvchi va jamoaga ta'sir o'tkazishda samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar, usullar majmuasi.

Pedagogik texnikaning asosiy tarkibiy qismlari:

- nutq malakasi va texnikasini o'zlashtirish;
- tushunarli, ta'sirchan fikr va his-tuyg'ularni so'zda aniq ifodalash, mimika va pantomimik xarakterlar, jestlardan o'z o'rnida foydalanish;
- ma'noli va ochik chexrali nigox bilan karash;
- hissiy-psixik va tasodifiy xolatlarda o'z his-tuyg'ularini jilovlay olish;
- turli vaziyatlarda o'qituvchi-pedagog va tarbiyachiga xos bo'lgan ijodiy kayfiyatni boshkarish;
- kulgi va tabassum-la samimiylilikni e'tirof etish;
- talabalar, hamkasblar bilan doimo yaxshi kayfiyat va rag'batlantiruvchi munosabatda bo'lish;
- savodli va sof adabiy tilda so'zlash; ijodiy pedagogik qobiliyatini qo'llay bilish.


Pedagogik mahoratni oshirishda o'qituvchi shaxsining insonparvarlik yo'nalishiga ega bo'lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo'nalishlari va ideallarining oliy maqsadga – barkamol avlod tarbiyalab yetishtirishga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Shu bilan birgalikda ta'lim jarayonini boshqarish mutaxassislik fani, uni o'qitish metodikasi, pedagogika va psixologiyani mukammal bilishni talab qiladi.

Bugungi kunda davlatimiz ta'limi sohasi oldiga qo'yayotgan vazifalarning bajarilishi ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Shunday ekan, axloqning muhim jihatlaridan biri inson sha'ni, qadr-qimmatidir. Kishining qadr-qimmati, avvalo, umumiy ishga qo'shayotgan hissasining salmog'i va sifati bilan belgilanadi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda inson o'z mehnatining salmog'i va sifati bilan, aqliy va jismoniy mehnatining samarasi, ishbilarmonligi bilan qadrlanadi, halol

mehnat kishining qadri, izzat-hurmatini oshiradi. O'qituvchi, muallimning bajarayotgan ishi bugungi kunda jamiyatda ahamiyatlidir. Insonning qadr-qimmati uning mansabi, kasbi-koridan ko'ra ham ko'proq o'z kasbini qanday bajarishi, uning odobi va xulq-atvoriga bog'liqdir.

Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda o'qituvchining o'rni beqiyosdir. O'qituvchilik sharaflidir, lekin juda murakkab kasb. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g'oyalar bayon etiladi

O'qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyati. Pedagogik texnikaning asosiy komponentlari. Pedagogik texnikani shakllantirish yo'llari. Pedagogik texnika asoslarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi bo'lib, unga erishish pedagogika, psixologik hamda amaliy tayyorgarlik bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi. Pedagogik texnikani o'zlashtirishda o'qituvchi ta'lim oluvchi xulq-atvori, xatti-harakatlarining tashqi belgilarga ko'ra uning ichki holatini belgilay olish malakasiga ega bo'lishi nihoyatda muhimdir.



“Pedagogik texnika” tushunchasi quyidagilarni ifodalaydi:

1) pedagogning o'z diqqati hamda ta'lim oluvchilar diqqatini maqsadli boshqarish;

2) pedagogik faoliyatda jarayonning, ta'lim oluvchilar harakatining sur'atini his qilish.

O'qituvchi faoliyatida uning pedagogik texnikaga egaligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

O'qituvchining pedagogik madaniyatga egaligi, pedagogik texnika asoslarini puxta o'zlashtira olganligi uning yuz ifodasi, erkin, vazmin harakatlari, gavgani to'g'ri tuta bilishi, yig'inchoqligi, imo-ishoraning tabiiyligi, ta'lim oluvchilarga nisbatan e'tiborida yaqqol aks etadi.

Pedagogik jarayonda o'qituvchi yuzini o'rinsiz, qo'pol tarzida burishtirmasligi, pala-partishlikka yo'l qo'ymasligi, imo-ishoralarning sun'iy bo'lishidan saqlanishi, ma'nosiz bo'lishiga yo'l qo'ymasligi zarur.

Zero, bularning barchasi o'qituvchining ta'lim oluvchi oldida hurmat qozona olmasligiga olib keladi. Yosh o'qituvchilar pedagogning hatto sinf xonasiga, auditoriyaga qanday kirishi, ta'lim oluvchi, talabalarga nazar tashlashi, salomlashishi, stulni surishi, shaxsiy buyumlari (sumka yoki qog'oz solingan yig'majildlarni qaerga, qanday qo'yishi, xona bo'ylab yurishi, yozuv taxtasidan foydalanishdagi harakatlari, ta'lim oluvchi, talabalar bilan muloqotda o'zini qanday tutishi va b.ham katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega ekanligini yodda tutishlari zarur

Vazmin, xushmuomala, o'ziga ishongan pedagog faoliyatining ilk bosqichlaridanoq ta'lim oluvchilar mehrini qozona oladi. Buning uchun o'qituvchi, eng avvalo, o'z hissiy holatlarini, tuyg'ularini boshqara olishi kerak. Pedagogning ta'lim oluvchilar bilan muloqoti rasmiy xarakterga ega. Qolaversa, u ta'lim oluvchilar, ularning ota-onalari, hamkasblari hamda ta'lim muassasasi va yuqori boshqaruv organlarining nazorati ostida faoliyat yuritadi. Bu esa jismoniy toliqishni, ruhiy zo'riqishni, o'z-o'ziga nisbatan ishonchsizlikni va tanglikni keltirib chiqaradi. Natijada o'qituvchining nutqi qat'iylik kasb etmaydi, ovozda nuqsonlar ko'zga tashlana boshlaydi, oyoq va qo'llar toliqadi. Bu kabi salbiy hodisalarning kelib chiqmasligi uchun o'qituvchi o'zini dars boshlanishidan avval ta'lim jarayoniga ruhan tayyorlashi, bu jarayonda yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan turli salbiy holatlarga o'zini psixologik nuqtai nazardan tayyorlashi, imkon qadar

ruhiy barqarorlikka erishishi talab qilinadi.

O'qituvchi pedagogik jarayonga o'zini ruhan tayyorlashda quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

- ✓ o'ziga, o'z imkoniyatlariga ishonish;
- ✓ xushmuomala bo'lish va kelajakka ishonch bilan qarash;
- ✓ o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish (muskullar zo'riqishini bartaraf etish, qomatni rostlash, harakatlarni to'g'rilash, nutqning ravon, aniq bo'lishiga e'tibor qaratish va to'g'ri nafas olishni o'zlashtirish);
- ✓ aqliy va jismoniy mehnatni tashkil etishda o'zaro uyg'unlikka erishish, muayyan davrlarda hordiq chiqarish (mehnat yoki musiqa yordamida dam olish, badiiy asarlarni o'qish, yaqinlar, do'stlar bilan hazil-mutoybani tashkil etish);
- ✓ pedagogik jarayonning muvaffaqiyatli,
- ✓ samarali kechishiga o'zini o'zi ishontirish;
- ✓ kasbiy faoliyatni katta ishtiyoq, ko'tarinki
- ✓ kayfiyat bilan tashkil etishga intilish;
- ✓ turli salbiy ruhiy omillar organizmiga, ruhiy holatiga, xatti-harakatlariga, ta'lim oluvchilar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan munosabatiga ta'sir etishiga yo'l qo'ymaslik;
- ✓ salbiy ruhiy omillar va jismoniy holatlarni bartaraf etish uchun trening va avtotreninglardan samarali foydalanish malakasini o'zlashtirish.

Ruhiy barqarorlikka erishish muayyan shartlar asosida kechadi. Bu o'rinda V.A.Suxomlinskiy ruhiy barqarorlikka erishishning asosiy shartlari quyidagilar ekanligini ta'kidlaydi:

- ✚ qosh-qovoqni uyub yurmaslik;
- ✚ boshqalarning kamchiliklari, nuqsonlarini
- ✚ oshirib ko'rsatmaslik;
- ✚ hazil-mutoyba moyil bo'lish;
- ✚ xushmuomala bo'lish va kelajakka ishonch bilan qarash.

O'qituvchi tomonidan o'zlashtiriladigan pedagogik texnika negizida pantomimika o'ziga xos o'rin tutadi.

Pantomimika – gavda, qo‘l va oyoqlarning harakati bo‘lib, u pedagog tomonidan bayon etilayotgan muayyan fikrni alohida ajratib ko‘rsatishga, ma’lum qiyofa orqali gavlantirishga imkon beradi.

Odatda o‘qituvchining to‘g‘ri tutilgan, chiroyli qaddi-qomati uning shaxs sifatida namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Qolaversa, bu holat uning o‘ziga, shaxsiy imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi yuqoriligi, shaxs sifatida o‘zini qadrlay olishi, o‘ziga o‘zi yuqori baho berishini ham ifodalaydi. Boshning quyi egilganligi, qo‘llarning osilib turishi o‘qituvchining ichki zaifligi, o‘ziga o‘zi ishonchsizligidan dalolat beradi.

Uzluksiz talim tizimining barcha bosqichlarida ta’lim oluvchilarga gavdani to‘g‘ri tutishni, erkin harakatlanishni, har qanday vaziyatda ham o‘zini tuta bilishni, yig‘inchoqlikni o‘rgatib borish maqsadga muvofiqdir. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarda ushbu sifatlarni hosil qilish esa ularni kasbiy faoliyatga ruhiy tayyorlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Talabalarga, eng avvalo, gavdani to‘g‘ri tutib turish o‘rgatiladi. Bunda oyoqlar yelka kengligida (ikki oyoq oralig‘i 12-15 smni tashkil



etishi lozim), o‘ng oyoq bir oz oldinda turishi maqsadga muvofiqdir. Zero, shundagina tana og‘irligi har ikki oyoqqa birdek tushishi bilan birga uzoq vaqt (deyarli 30-30, oliy ta’lim muassasalarida esa 60-70 daqiqa) toliqmay turishni ta’minlaydi. O‘qituvchining harakatlari imkon qadar oddiy va erkin bo‘lishi lozim. O‘zini o‘zi majburlab, ayrim kamchiliklarni yo‘qotish maqsadida sun’iy, zo‘rma-zo‘raki harakatlarni sodir etishning hojati yo‘q.

Harakatlar qanchalik samimiy va imkon qadar oddiy bo‘lsa, ta’lim oluvchilarda o‘qituvchiga bo‘lgan ishonch, hurmatni shunchalik oshiradi. Gavdani oldinga-orqaga tebratmaslik, hadeb tana og‘irligini bir oyoqdan ikkinchi oyoqqa o‘tkazmaslik, stul suyanchig‘iga yoki kafedra (oliy ta’lim muassasalarida ma’ruza o‘qish uchun ajratilgan jihoz)ga butunlay suyanib olmaslik, boshni yoki quloqni qashlamaslik, burunni artmaslik, ko‘zni ishqalamaslik, qo‘lda biror buyumni

aylantirmaslik ta'lim oluvchiga qanchalik zavq bersa, unda o'qituvchiga nisbatan xayrixohlikni uyg'otsa, ularning aksini sodir etish ta'lim oluvchining g'ashini keltiradi. Dars jarayonida o'qituvchi, shuningdek, gavdasi harakatining bosiq, ortiqcha harakatlardan holi bo'lishiga e'tibor qaratishi, ortiqcha silkinish va keskin harakatlarni sodir etishdan o'zini tuta olishi zarur.


Pedagogik jarayonda o'qituvchi yuz ifodasi (mimika) va jestlar orqali ham talabalarga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Mimika – yuz muskullarining harakatlari orqali o'z fikri, his-tuyg'ulari, kayfiyatini, shuningdek, mavjud voqelikka nisbatan munosabatini ifodalash

Insoniyat qadim-qadimdan o'zaro munosabat va muloqotlarni tashkil etishda turli jestlardan o'rinli va samarali foydalanib kelgan. Zero, jestlar insonning hissiyotlari, ichki kechinmalari va ijtimoiy borliqqa bo'lgan munosabatini so'zsiz ifodalash imkoniyatiga ega. M: o'ng qo'l chap ko'krak ustiga kaftlar yoyilgan holda qo'yilsa, bu holat “Sizga hurmatim cheksiz”, o'ng qo'lning kaftlari ochiq holda ko'rsatilsa, “Jim bo'ling!”, “Bas qiling!”, qo'l musht qilib tugilsa, “Qoyil qildim!” yoki “Qoyil qilaman!” kabi ma'nolarni anglatadi.

Juda qadimdan inson yuz ifodasi va qarashi atrofdagilarga so'zdan ko'ra kuchli ta'sir qilishi aniqlangan. Shu sababli qadimgi Rim va Yunonistonda notiqlarning nafaqat so'zdan, shu bilan birga mimika, pantomimika va jestlar (gavda, qo'l va oyoq harakatlari)dan samarali foydalana olishlariga e'tibor qaratiladi.

Bugungi kunda ham rivojlangan mamlakatlarda siyosatchilarning yuqorida qayd etilgan harakatlar bo'yicha malakalarni o'zlashtira olishlariga jiddiy e'tibor qaratiladi.



O'qituvchi tomonidan mimika, pantomimika va jestlar (gavda, qo'l va oyoq harakatlari)dan samarali foydalana olish malakalarini samarali o'zlashtira olishi



uning mehnatini qisman yengillashtirish bilan birga, talabalarga ta'sir ko'rsatishida muayyan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishiga imkoniyat yaratadi.

Jest (gavda, qo'l va oyoq harakatlari) –

muayyan hodisa yoki ob'ektga nisbatan munosabatning gavda, qo'l va oyoq harakatlari yordamida ifodalanishi. Mimika, pantomimika va jestlar uzatilayotgan axborotning hissiy ahamiyatini oshiradi, uning puxtaroq o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Ko'zlar ham yuz ifodasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ko'zlar yordamida turli ma'nolarni ifodalash malakalarini o'zlashtira olish ham mahoratli pedagog bo'lish uchun nihoyatda zarur.

Talabalar diqqatini o'ziga tortish usullari. Auditoriyani boshqarish psixologiyasi, talabalarga ta'sir etish va ishontirish usullari. O'qituvchi o'z

faoliyatida pedagogik texnika metodlari bilan birga pedagogik texnika vositalaridan ham foydalanadi.



Pedagogik texnika vositalari –

pedagog tomonidan ta'lim oluvchilarning u yoki bu harakatlari yoki ularda namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiy sifatlariga

nisbatan sub'ektiv munosabat, alohida his-tuyg'ularning ma'noli ifodalanishini ta'minlovchi vositalar

Mohiyatiga ko'ra pedagogik texnika vositalari nutq va og'zaki bo'lmagan muloqot jarayonida qo'llaniladigan vositalar sanaladi.

Pedagogik amaliyotda yosh o'qituvchilarning pedagogik texnikasida quyidagi juz'iy kamchiliklar uchraydi:

- 1) ta'lim oluvchilar bilan sidqidildan so'zlasha olmaslik;
- 2) g'azabni to'xtata olmaslik yoki uni o'z o'rnida ishlata olmaslik;



- 3) oʻzida ishonchsizlikni yenga olmasligi;
- 4) nutqni ravon bayon eta olmaslik;
- 5) ortiqcha qattiqqoʻllik;
- 6) xushmuomala boʻlishdan qoʻrqish;
- 7) juda tez gapirish (ayniqsa darslarda);
- 8) ortiqcha harakat yoki bir joyda qotib qolish,

qoʻllarini qaerga qoʻyishni bilmaslik;

9) oʻz gавdasini tutishda muayyan kamchiliklarga yoʻl qoʻyish (bukchayib, yerga qarab yurish, oʻrinsiz kulish, ortiqcha harakat, qoʻlida turli jismlarni aylantirib yurish);


10) monoton – bir ohangda soʻzlash, nutqning zerikarliligi, jonli emasligi;

11) ifodali oʻqish, soʻzlarni aniq, toʻgʻri talaffuz qila olmaslik (notoʻgʻri diksiya), sinf xonasi, auditoriya uchun zarur tovush balandligini belgilay olmaslik.

Oʻqituvchining taʼlim oluvchilarga pedagogik taʼsir koʻrsatishida uning nutqi ham hal qiluvchi omillardan biri sanaladi.

Oʻqituvchi nutqi – pedagogning taʼlim-tarbiya jarayonida til vositalaridan foydalanishi.

Ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda nutqning monolog, dialog, polilog shakllaridan foydalaniladi.



3-rasm. Oʻqituvchi nutqining asosiy shakllari

Oʻqituvchi auditoriyada ogʻzaki nutqning turli shakllaridan foydalanadi. Maʼruza mashgʻulotlarda koʻproq nutqning dialog va polilog shakli samaralidir, chunki bu bosqichda taʼlim suhbat usuli asoslanadi. Monologik nutqdan

o'qituvchi hikoya, tasvir, ta'rif, tavsif xarakteridagi mavzularni bayon etishda foydalanadi. O'rganilayotgan mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holda o'qituvchi har bir darsda og'zaki nutqning barcha shakllaridan o'rinli, maqsadli foydalanishi mumkin.

O'qituvchi mavzular bo'yicha materiallarni ta'lim oluvchilarga yetkazib berishda ularning xulqlariga samarali ta'sir etish maqsadida ko'z, qosh, qo'l, yuz, bosh, kaftlari yordamida muayyan harakatlarni amalga oshiradi. Uning bunday harakatlari tasdiq yoki inkorni ifodalashi mumkin.

O'qituvchi tomonidan sodir etilayotgan harakatlar o'rinli bo'lsa ular so'zsiz pedagogik ta'sir jarayonini kuchaytiradi. Biroq, bu kabi harakatlarni o'rinsiz, tez-tez sodir etaverishi ta'lim oluvchilarning diqqatlarini susaytiradi, ularni zeriktirib qo'yadi. Pedagogik jarayonda o'qituvchining ta'sirini kuchaytiradigan omillardan biri – uning ovozi, unga xos bo'lgan xususiyatlar sanaladi. O'qituvchi ovozining yoqimli va jarangdor bo'lishi ta'lim oluvchilar e'tiborini o'ziga to'la qarata olishini ta'minlaydi. O'z ovozining ta'sirchanligini aniqlash uchun o'qituvchi ovozining qanchalik darajada kuchli, shirador va yoqimli ekanligini bilishi, shuningdek, zarur vaziyatlarda ovozning bu kabi xususiyatlaridan unumli foydalana olishi zarur. O'z ovozida ma'lum kamchiliklar borligini sezgan o'qituvchi ularni bartaraf etishga harakat qilishi kerak. Buning uchun ovozdan foydalanish va uni yaxshilash texnikasi ustida izchil, doimiy mashq qilib borishi talab etiladi. Zero, bir yoki ikki marta qilingan mashq bilan ovoz xususiyatlarini yaxshilab bo'lmaydi.

O'qituvchi ovozi o'zida quyidagi xususiyatlarni aks ettira olishi zarur:

- 1) jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi);
- 2) keng diapazonlik (ovozning eng pastlikdan eng yuqorigacha bo'lgan darajasi);
- 3) havodorlik (erkin so'zlaganda yaxshi eshituvchanlikka ega bo'lishi);
- 4) ixchamlik, harakatchanlik;
- 5) chidamlilik (uzoq ishlash qobiliyatiga ega bo'lish);
- 6) moslashuvchanlik (dinamika, tembr, ohandorlikning turli sharoitga moslasha olishi);

7) qarshi shovqinlarga nisbatan barqarorlik (xalaqit beruvchi shovqinga tembr va tessituraning o'zgarib turishi);

8) suggesivlik (ovozning xayajon ifodalashi va bu orqali, qanday so'z aytilayotganidan qat'iy nazar, talabaning xulqiga ta'sir qilish xususiyati).

Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'z nutqini tashkil etishda quyidagilarga jiddiy e'tibor qaratishi zarur:

1) adabiy (sheva so'zlarining qo'llanilmasligi) me'yorlariga (kadi – qovoq, pamildori – pomidor, kelutti – kelyapti, kartishka – kartoshka va hokazo tarzida) amal qilish;

2) talaffuz (o, a, u, o', f, v, p, d, t, x, h, s, j, sh) me'yorlariga (onor – nor, uxshash – o'xshash, palakat – falokat, Hamit – Hamid, xam – ham, sentner – sentner, ijtimoiy – ishtimoiy kabi shakllar) rioya etish;

3) kelishik me'yorlariga (Sobirni ukasi – Sobirning ukasi, ta'lim oluvchini daftari – ta'lim oluvchining daftari, poezdga keldim – poezdda keldim va b. ko'rinishida) amal qilish.

Bugungi kunda nutq texnikasi bo'yicha bir qancha majmuaviy mashqlar asoslangan. Ular so'zlashish paytida to'g'ri nafas olish, tovush hosil qilish va nutqni ma'noli ifodalash malakalarini takomillashtirishga yordam beradi.

O'qituvchi nutqini tashkil etishda **d i k s i y a** ham alohida o'rin tutadi.

Diksiya so'zlarning aniq talaffuz qilinishi

Talaffuzning aniqligi o'qituvchi nutqining tushunarli bo'lishiga yordam beradi, shuningdek, ta'lim oluvchilar tomonidan to'g'ri tushunilishini ta'minlaydi. Talaffuz qanchalik aniq bo'lsa, aytilayotgan so'z, ifodalanayotgan bo'g'in va tovushlar shunchalik tiniq, yorqin ifodalanadi. Tovush nutq apparatining barcha a'zolari (lablar, jag', tishlar, yumshoq va qattiq tanglay, kichik til, kekirdak, tomoq orqa devori, tovush naychalari)ning birgalikda unumli ishlashiga bog'liq. Til, lablar, yumshoq tanglay, kichik til va pastki jag' nutqda faol ishtirok etadi. Shu sababli ularni doimiy mashq qildirish turish muhim ahamiyatga ega.

Artikulyatsiya (lot. “articulation” < “articulare” – “aniq talaffuz qilmoq”) nutq organ (a'zo)larining tovush hosil qilishdagi harakatlari holati.

Tovushning aniq talaffuz qilinishini takomillashtirish artikulyatsiya gimnastikasi asosida amalga oshiriladi.

Har bir unli va undosh tovushlarni to'g'ri ifodalashga o'rgatuvchi mashqlar (ifodali o'qish, tez aytishlar).

O'qituvchi nutqining tashkil etilishida **r i t m i k a** ham muhim o'rin egallaydi.

Ritmika – ayrim so'z va bo'g'inlarning aytilish muddati va to'xtalishi, nutq navbat bilan o'z o'rnida ishlatilishini bildiradi




Unga xos muhim jihat ritm sanaladi.

Ritm (nutqning vazni) nutqning muhim xususiyati sanaladi, zero, nutq ohangi, to'xtamlar ham talabalarga bevosita kuchli hissiy ta'sir ko'rsatadi. Nutqning ritmi (vazni)ga ko'ra ta'lim oluvchiga uzatilayotgan bilimlar, o'quv materialining murakkab o'rinlari o'qituvchi tomonidan asta-sekin bayon qilinadi, oson o'zlashtiriladigan qismlarini esa nutqni bir qadar tezlashtirib bayon etish mumkin. O'qituvchi o'z faoliyatida aniq, ravon, ma'noli, ifodali nutqni o'zlashtira olishi, bir so'z bilan aytganda nutq madaniyatini egallashi zarur.

Pedagogik deontologiya, pedagogik boshqaruv va texnika o'qituvchi faoliyatini samarali tashkil etishning asosiy shakli. Pedagogga xos bo'lgan mahorat asosini tashkil etuvchi pedagogik muloqot madaniyati uning talabalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan uyushtiriladigan muloqot jarayonida namoyon bo'ladi. Bunda, ayniqsa, pedagogning talabalar jamoasi bilan o'zaro muloqoti muhim ahamiyatga ega. Pedagog talabalar bilan muloqotga kirishish, uning samarali bo'lishiga intiladi.


Pedagogik muloqot madaniyati – pedagogning talabalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan pedagogik odob hamda muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiriladigan suhbat.

Pedagogik muloqot quyidagi yo'nalishlarda tashkil etiladi:



4-rasm. Pedagogik muloqot yoʻnalishlari

Pedagogik muloqot oʻziga xos ijtimoiy-psixologik jarayon ham sanaladi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalar bajariladi:



5-rasm. Педагогик мулоқот жараёнда бажариладиган вазифалар

Pedagogik muloqot ruhiy-psixologik taʼsir kuchiga ega. Shu sababli uni tashkil etishda muloqot jarayonining ijobiy boʻlishini taʼminlash pedagogning zimmasiga katta masʼuliyatni yuklaydi. Agarda toʻgʻri tashkil etilgan pedagogik muloqot talabada qoʻrquvning yuzaga kelishi, ishonchsizlikning tugʻilishi, diqqat, xotira va ish qobiliyatining susayishi, nutq meʼyorining buzilishi kabilarga sabab boʻlsa, aksincha, nazariy-pedagogik va amaliy jihatdan toʻgʻri tashkil etilgan muloqot yuqoridagi holatlarning aksini keltirib chiqaradi. Natijada talabalarda oʻqishga va mustaqil oʻrganishga, fikrlashga boʻlgan qiziqish ortadi.

Muloqot jarayonida talaba tomonidan bildirilayotgan fikrlar, uning qarashlari shaxsni yaqindan oʻrganish uchun imkoniyat yaratadi. Talaba shaxsini yaqindan

bilish, uning ichki kechinmalari, o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari, orzu-umid, maqsad va hayotiy intilishlaridan xabardor bo'lish pedagogik jarayonning metodik, ruhiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi. Zero, bu jarayonda pedagogik talaba shaxsiga xos yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlarni inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etadi.

Muloqot jarayonidagi axborot almashinuvi talabaning o'zaro ijtimoiy jarayonlar, shaxs kamolotining kechishiga doir ma'lumotlar almashishini ta'minlaydi. Pedagog va talabalar o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish esa har qanday vaziyatda ham ular o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi samarali ro'y berishini uchun sharoit yaratadi. Bu jarayonda pedagog talabalarning eng yaqin maslahatchisi, yo'lboshchisi va rahbariga aylanadi. Muloqot chog'ida talabalar tomonidan o'z shaxsini, "meni"ni, qadr-qimmatini yetarlicha baholash va o'z oldidariga hayotiy maqsadlarni qo'ygan holda olg'a intilishlarini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Muloqot jarayonida axborot almashish vazifasining hal qilinishi quyidagi vositalar asosida ro'y beradi:

1) nutq;

2) paralingvistik tizim (yun. "pará" – "yaqin", muloqot tarkibida so'zli, g'oyaviy ma'lumotlarni so'zsiz vositalar bilan uzatilishi);

3) ekstralingvistik tizim (ingl. "exterior" – "tashqarida", nemischa "linguistik" – gapirayotgan shaxs tomonidan nutqning bevosita ijtimoiy vazifalar bilan bog'liq holda

tashkil etishi – nutqiy tanaffuslar, kulgu, yo'talish, nafas olish, yig'lash, tutilish va b.);

4) muloqotning tashkiliy ko'lami va vaqti;


5) ko'z qarashlar yordamida tashkil etiladigan aloqa;

6) belgilarning optik-kinetik tizimi (mimika, pantomimika, jestlar – qo'l va oyoq harakatlari).

Pedagog rahbarligi yoki uning yo'l-yo'riqlari, ko'rsatmalariga asosan o'quv mashg'ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ham muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu vaqtda muloqotning faoliyatni tashkil etish vazifasini

namoyon bo‘ladi. Yaqin-yaqingacha faoliyatni tashkil etishda pedagogning yetakchiligi, uning bevosita rahbarligi ustuvor omil bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy sharoitda rollar almashinuvi yetakchi o‘ringa chiqdi. Endilikda aksariyat hollarda talabalarning o‘zlari ta’lim va tarbiyaviy jarayonlarni mustaqil uyushtirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Biroq, bu degani, ta’limiy va tarbiyaiy ishlarni tashkil etish davrida pedagogning o‘rni va roli mutlaqo aks etmaydi, degani emas. Pedagog bu jarayonda rahbar, yetakchi, maslahatchi, ekspert sifatida namoyon bo‘ladi va talabalarni pedagogik jarayonlarni ilmiy-nazariy, tashkiliy-metodik jihatdan to‘g‘ri uyushtirishga yo‘naltiradi.


Milliy va jahon ta’limi amaliyoti pedagog, o‘qituvchilar tomonidan tashkil etilayotgan muloqotni bir necha turga ajratish mumkinligi ko‘rsatadi. Ular quyidagilarir:



Pedagogik muloqotni tashkil etishda, ayniqsa, pedagog yordamiga muhtoj ta’lim oluvchilarga alohida e’tibor berishi, har bir ta’lim oluvchida turli o‘quv fanlari asoslarini o‘zlashtirishga nisbatan qiziqtirish usullarini, hamkorlik va ijodkorlikka asoslangan mehnatni tashkil etishni oldindan o‘ylab qo‘yishi lozim.

O‘qituvchilar o‘z faoliyatlarida muloqotning muayyan turlariga tayanib ish ko‘radi. Qolaversa, pedagog tomonidan jamoa bilan muloqotni uyushtirish texnikasini doimiy ravishda tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir. Ma’lum

vaziyatlarda pedagog rahbar sifatida talabalar faoliyatlarini boshqaradi. Bu jarayonda ham muloqot yetakchi omil hisoblanadi. Biroq, muloqotning samaradorligi rahbar sifatida namoyon bo'layotgan pedagog tomonidan qanday muloqot uslubining tanlanganligi bilan belgilanadi. Odatda, pedagogning rahbar sifatidagi muloqot usullari quyidagi uch turga ajratiladi:



Pedagogik muloqot uslublari quyidagi mazmunga ega:


1. Avtoritar uslub. Bunga ko'ra talabalar tomonidan barcha turdagi faoliyatning tashkil etilishi, mazmuni, shakli, metod va vositalarining barchasi faqat pedagog tomonidan belgilanadi. Talabalarning har qanday tashabbuslari rag'batlantirilmaydi, aksincha, buyruq, ko'rsatma, yo'llanma berish, shuningdek, jazolash choralarini ko'rish orqali talabalarga ta'sir etiladi. Hatto talabalarning faoliyatlari ijobiy baholangan vaqtda ham ularga bo'lgan ta'sir turli kesatqlar bilan bayon etiladi. Ya'ni: "Sendan ijobiy xatti-harakatni kutmagan edim?!", "Buni qara-ya, nahotki o'zgargan bo'lsang!?", "Qara-ya, birgina a'lo baho olish bilan o'zingni yaxshi inson bo'lib qolgan deb hisoblaysanmi!?" va h.k. mazmundagi rag'batlar, ular asli ijobiy holatni e'tirof etishga yo'naltirilgan bo'lsa-da, talabani yangi yutuqlariga ilhomlantirmaydi. Aksincha, unda ta'lim olishga, ta'lim muassasasiga va pedagoglarga nisbatan sovuqqonlikni yuzaga keltiradi.



2. Demokratik uslub.



Unga ko‘ra pedagog pedagogik faoliyatni tashkil etishda jamoaning fikriga tayanib ish ko‘radi. O‘quv mashg‘ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirishda har bir talabaning fikrini inobatga olishga, ularni umumlashtirgan holda eng samaralisini tanlab olishga intiladi. Muhokamalar chog‘ida barcha talabalarning ishtiroklari ta‘minlanadi. Talabalar tomonidan bildirilayotgan tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanadi, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bu tashabbuslar amaliyotga tatbiq etiladi. Bu uslubdan foydalanayotgan pedagog zimmasidagi vazifa faqatgina talabalarning faoliyatini nazorat qilish, tuzatishlar kiritishdan iborat emasligini anglab yetadi. Asosiy e‘tiborni talabalarning yutuqlarini e‘tirof etgan holda yoki ularning xatolarini o‘zlariga anglatgan holda samarali



tarbiya chorasini ko‘rishga qaratadi. Har bir talabaning yutug‘i alohida e‘tirof etiladiki, bu esa ularni yangi zafarlarga erishishga ruhlantiradi. Ushbu uslubga asoslanib ish ko‘radigan pedagog har bir talabaning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda bajariladigan ishlarni to‘g‘ri taqsimlashga harakat qiladi, faol talabalarni taqdirlab borishni faoliyatining asosiy yo‘nalishi sifatida belgilaydi. Pedagog talabalar bilan muloqotni o‘rnatishda iltimos, maslahatga tayanib ish ko‘radi.

3. Liberal uslub.

Odatda bu uslub pedagog va talaba munosabtlarining kelishuvchanlikka asoslanishini ta‘minlaydigan uslub sifatida e‘tirof etiladi. Bu uslubga ko‘ra ish yuritadigan pedagog talabalar tomonidan sodir etilayotgan salbiy holatlarga ham e‘tibor bermaslikka intiladi. Talabalarni tartibga chaqirish, vaziyatdan kelib chiqqan holda ularning faoliyatini to‘g‘ri baholab, jazolash zarur bo‘lgan vaziyatlarda ham indamaslikni odat qilib oladi. Bu esa talabalarning odobsiz, yalqov, mas‘uliyatsiz bo‘lishlariga olib keladi. Liberal uslubni ma‘qul ko‘radigan pedagog talabalar hayoti bilan mutlaqo qiziqmaydi, ularning

faoliyatlariga aralashmaydi, hal qiluvchi vaziyatlarda mas'uliyatni o'z zimmasidan soqit qiladi. Ayrim holatlarda bir-biriga zid bo'lgan fikrlarni ham birdek ma'qullaydi. Bu tahlitda ish ko'radigan pedagog obro'ga ega bo'lmaydi. Chunki unga ishonish mumkin emas.

Pedagogik faoliyatni tashkil etishda pedagogning nafaqat o'zi, balki uning ijobiy ta'siri asosida talabalar ham muloqot madaniyatini o'zlashtirib borishlari lozim.

Muloqot madaniyati – muloqot jarayonini axloqiy me'yorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etish asosida suhbatdoshni tushuna olish ehtiyoji va qobiliyatiga egalik

Ta'lim amaliyoti pedagogik muloqot jarayonida o'qituvchilar tomonidan quyidagi kamchiliklarga yo'l qo'yilishidan dalolat beradi:

- ehtiyotsizlik;
- shaxsiyatparastlik;
- suhbatdoshni ortiqcha majburlash;
- sustkashlik;
- o'zini juda yuqori yoki past qo'yish;
- haddan tashqari jonbozlik ko'rsatish.

“Fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida, ishlab chiqarish munosabatlarining jadallashuvi, xalq xo'jaligining turli jabhalarida yangi texnologiyalarning joriy etilishi va shu kabi qator omillar inson ruhiyatiga oldingilariga qaraganda ko'proq jismoniy, ruhiy zo'rqiqlar bermoqda”. Pedagog faoliyatida ruhan yoki jismonan toliqqan talabalarda ruhiy hamda jismoniy charchoqlarni bartaraf etishga ham e'tibor qaratish talab qilinadi. Mazkur talab salbiy ruhiy omillar ta'siri kuchaygan, katta hajmdagi axborotlar bilan to'qnashish ro'y berayotgan mavjud sharoitda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda ruhiy va jismoniy toliqishlarni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik faoliyat **“relaksopediya”** (lot. “relaxation” – quvvatsizlik, zaiflashish, ruhan yoki jismonan holda toyish; holdan toyishni bartaraf etish pedagogikasi) deb nomlanadi. So'nggi yillar jahon ta'limi amaliyotida ushbu pedagogika imkoniyatidan keng foydalanilmoqda.

Pedagogik relaksatsiya – talabalarning hissiy faoliyati, ruhiy-jismoniy quvvati va ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash

Murakkab vaziyatlar (imkoniyati cheklangan, fanlarni o‘zlashtira olmaydigan yoki tarbiyasi og‘ir talabalar bilan ishlash)da relaksopediyaning pedagogik, psixologik imkoniyatlaridan o‘rinli, maqsadli, samarali foydalanish kutilgan natijalarni beradi. Relaksatsiya sharoitida bugungi kunda keng ommalashgan trening va avtotreninglar ijobiy muhitning hosil bo‘lishini ta‘minlaydi. Ulardan foydalanish vaqtida talabalar tashqi va ichki ta‘sirlardan himoyalangan bo‘lib, ularga faqatgina pedagogning ishontiruvchi ovozigina eshitiladi. Bu esa pedagogning ta‘siri va uning samarasini yanada oshiradi.

Relaksatsiya jarayonida talabalar pedagogning qo‘llab-quvvatlashlarini his etishlari, uning mehr-muhabbatidan bahramand bo‘lishlari, hamdarligini his qilishlari lozim. Shundagina talabalardagi ruhiy zo‘riqish, jismoniy toliqishlarni bartaraf etish uchun psixologik muhit yuzaga keladi.

Mushaklar relaksatsiyasi (ya‘ni mushaklarni bo‘shashtirish) davrida o‘z-o‘zini ishontirish va axborotga ta‘sirchanlik yuqori bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘z-o‘zini ishontirishga yo‘naltirilgan trening va avtotreninglarni uxlash va uyqudan turishdan oldin qo‘llash samarali hisoblanadi. Mushaklar relaksatsiyasining samarali kechishi uchun o‘qituvchi mushaklarni bo‘shashtirishga yordam beradigan metod va vositalardan xabardor bo‘lishi darkor.

Talabalarning ruhiy zo‘riqish va jismoniy toliqishlarini bartaraf etish maqsadida relaksatsiya asoslarini nazariy jihatdan o‘zlashtirib qolmay, ulardan amaliy jihatdan foydalanishni ham bilishlari zarur.

Kommunikativ ta‘sir ko‘rsatish – talabalar bilan muloqotda bo‘lish, ularga to‘g‘ri yondashish, pedagogik nazokat bilan ularga tarbiyaviy, irodaviy va hissiy ta‘sir etish

Yuqorida aytib o‘tilganidek, mahoratli pedagog faoliyatida pedagogik nazokat (takt) ham o‘ziga xos o‘rin tutadi:

Pedagogik (nazokat) takt – pedagogning talabalar bilan turli faoliyat shakllari bo'yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar, hulq-atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to'g'ri yondashish malakalariga egaligi

Pedagogik takt pedagog faoliyatiga g'oyaviy va amaliy jihatdan bir-biriga mos keladigan pedagogik axloqning bevosita tatbiq etishning shakli sifatida namoyon bo'ladi. **Takt (dahldorlik)** – axloqiy hulq-atvor, xatti-harakat bo'lib, o'zida barcha ob'ektiv harakatlarning oqibati va ularning shaxs tomonidan sub'ektiv qabul qilishni avvaldan ko'ra olish, belgilangan maqsadga osonroq erishish yo'llarini izlashning namoyon bo'lishini ifodalaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Pedagogik odobning asosiy shakllari qaysilar?
2. Pedagogik deontologiya nima?
3. Pedagogik obro' qanday qozoniladi?
4. Pedagogik qobiliyat nima va uning qanay turlari mavjud?
5. Qanday qobiliyatlar noyob qobiliyatlar sanaladi?
6. Pedagogik empatiya nima?
7. Pedagogik muloqotning qanday turlari va uslublari mavjud?

Adabiyotlar ro'yxati va internet ilovalari:

1. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – Toshkent: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 90 bet.

2. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81-b.

3. Kompetensii pedagoga XXI veka [Elektronnyy resurs]: sb. materialov resp. konferensii (Minsk, 25 noyab. 2021 g.) / M-vo obrazovaniya Resp. Belarus, GUO «Akad. poslediplom. obrazovaniya», OO «Belorus. ped. o-vo». – Minsk: APO, 2021.

4. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.

5. Ishmuhammedov R, Mirsolieva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019.- 68 b.

6. <https://psychologos.ru/articles/view/andragogika-i-pedagogika>

7. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%90%D0%BD%D0%B4%D1%80%D0%B0%D0%B3%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D0%BA%D0%B0>.

<https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/aksiologiya-uz/>

3-MAVZU. TA'LIMI JARAYONIDA SHAXS RIVOJLANISHINING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Reja:

1. Kasbiy ta'lim jarayonida shaxs rivojlanishining pedagogik shart-sharoitlari.

2. Pedagogning kasbiy professionalligi va uni innovatsion faoliyatda namoyon bo'lishi.

3. Ta'lim jarayonini loyihalash va modellashtirish pedagogning kasbiy professional ijodkorligini rivojlantirish omili.

***Tayanch tushunchalar:** kasbiy ta'lim jarayoni, shaxs rivojlanishi, pedagogik shart-sharoitlar, kasbiy shakllanish, professional, professionalizm, bashorat qilish, rejalashtirish, loyihalashtirish*

Kasbiy ta'lim jarayonida shaxs rivojlanishining pedagogik shart-sharoitlari. Zamonaviy pedagogika fanining asosiy muammosi – mavjud ta'lim paradigmasining ob'ektiv asoslari va ularning rivojini ta'minlovchi qonuniyat mohiyatini ochib berishdan iborat.

O'qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishi o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish jarayoni, ijodkorlik esa kasbiy faoliyatini loyihalashga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoj sifatida qaraladi. O'qituvchining kasbiy tayyorgarlik jarayonini individual loyihalash g'oyalari kasbiy-pedagogik ta'limning ob'ektiv yetakchi mezon bo'lib qolmoqda.

Texnologik ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning tashkiliy-metodik mezonlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

Kasbiy ta'lim mazmunining shaxsga yo'naltirilganligi. Mazkur mezonning

amalga oshirilishi bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonini quyidagi yo'nalishda o'zgartirishni ko'zda tutadi: o'qituvchining bir butun shaxs sifatida rivojlanishi, o'qituvchi ongini kasbiy faoliyati yo'nalishida qayta yo'naltirilishi hamda o'qituvchining kasbiy faoliyatiga tatbiq etishi lozim bo'lgan ideal va qadriyatlarni o'zlashtirishi.

Kasbiy ta'lim mazmunining kasbiy faoliyatga yo'naltirilganligi. Ushbu mezon birinchidan, o'qituvchining shakllanish jarayonini loyihalashning integral tavsifda ekanligini ta'kidlaydi; ikkinchidan, uni loyihalashning aniq shakllarini belgilaydi; uchinchidan, o'qituvchining ijodiy kuch-quvvatini ishga solish yo'llarini hamda vositalarini ko'rsatib beradi, bu bilan uni pedagogika fani va amaliyot bosib o'tgan yo'lni qayta takrorlamaslikka olib keladi.

Kasbiy faoliyatning pedagogik akslanish (refleksiya) mezoni. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanish jarayonida mazkur mezonning amalga oshirilishi o'qituvchida o'zini shaxs sifatida doimiy takomillashtirib borishga bo'lgan ehtiyojni tarbiyalaydi. Buning uchun u kasbiy fikrlash, refleksiv sifatlarni rivojlantiradi, aniq kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan shakl va metodlarni shakllantiradi. Bu o'rinda asosiysi – kasbiy faoliyat, ya'ni maqsad, faoliyatni amalga oshirish sharoitlari to'g'risida tushunchalar, harakat dasturi, faoliyat natijalarini baholash mezonlari, faoliyat natijalarini baholashni ratsional yo'lga qo'yish holatlarining aniqlanishidir. Mazkur mezon o'qituvchi harakatlarining tavsifini hamda usullarini belgilab beradi. Buning uchun o'qituvchining pedagogik madaniyat timsoli sifatidagi kasbiy faoliyat modeli uning kasbiy xulqi uchun namuna bo'lib qoladi. Bularning hammasi o'qituvchining kasbiy takomillashuvga intiluvchanligini oshiruvchi shaxsning ma'naviy-axloqiy qarashlarini faollashtiradi.

Ma'lumki, tadqiqot predmetining kategorial apparati sifat darajasi ko'p jihatdan pedagogik vazifalarni hal qilish mezonlari va pedagogik hodisalar mohiyatini belgilab beradi.

Muammo mohiyatini yoritishda «kasbiy shakllanish» kategoriyasini zamonaviy pedagogik kategoriyalar bilan bir qatorda tadqiq qilindi. Dastlab kasbiy

shakllanish jarayonining pedagogik jihatlarini shaxs rivojlanish jarayonidan farqlab olishga e'tibor qaratildi. Ma'lum ma'noda murakkabroq bo'lgan «rivojlanish» tushunchasidan farqli ravishda, «shakllanish» tushunchasi ko'proq darajada tashqi va ichki omillarning faol shakllari ta'sirida shaxs rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishning natijasini o'zida aks ettiradi.

Falsafiy kategoriya sifatida «shakllanish» dunyoqarash bilan bog'lanadi: uning asosida har qanday buyum, voqea-hodisaga qarama-qarshiliklar birligining namoyon bo'lishi sifatida qarash yotadi; u yaralish va rivojlanishni oddiy miqdoriy o'zgarish sifatida qabul qiluvchi metafizik tasavvurlar bilan mos kelmaydi. Shaxs tushunchasining muayyan-tarixiy namoyon bo'lishining falsafiy talqini va ijtimoiy-iqtisodiy bog'lanishlaridan kelib chiqqan holda pedagogika va psixologiya uning shakllanishini jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqlikda qaraydi.

Aksariyat holatlarda shaxs rivojlanishi quyidagi tushunchalar bilan ifodalanadi: a) turli vaziyat va sharoitlarda namoyon bo'luvchi, shaxsning ichki qarashlarini belgilab beruvchi yetakchi motivlar tizimi; b) jamiyatda mavjud bo'lishning o'ziga xosligini belgilab beruvchi shaxs o'zagi, asosi; v) tashqi ta'sirlarning ichki shartlar bilan qo'shib umumiy yo'naltirilganlikni kasb etuvchi, tashqi va ichki sharoitlar birligining ifodasi; g) motivlar, qiziqishlar, ehtiyojlar, intilishlar, g'oyalar, e'tiqodlar.

Kasbiy shakllanish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo'lishi ham talab etiladi.

«Shaxs shakllanishi» tushunchasini talqin qilishdagi bunday xilma-xillik uning mohiyatini namoyon qiluvchi shaxs rivojlanish konsepsiyasining o'ziga xosligini ko'rsatadi. Ushbu o'ziga xoslik shaxsning kasbiy shakllanishini belgilab beruvchi psixologik-pedagogik komponentlarni o'quv faoliyati davomidagi rivojlanish darajasiga bog'liq holda o'rganish, yo'naltirilganlik mazmunini belgilab beruvchi motivlar darajasi va tavsifini belgilab berish, kasbiy shakllanish tipologiyasini aniqlash kabi masalalar bilan bog'liq bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, amalga oshirilgan tadqiqotlarda pedagogika oliy o'quv

yurtlari talabalarining kasbiy shakllanishini o'rganish muammosiga yetarli e'tibor qaratilmagan, texnologik ta'limi o'qituvchilarining kasbiy shakllanish muammosi umuman o'rganilmagan jarayon sifatida qolib ketmoqda.

Yana bir qayd etish lozim bo'lgan holat shundan iboratki, bir guruh olimlar kategorial apparatni belgilash bilan bog'liq vaziyatni g'ayrioddiy holat sifatida baholamoqdalar.

Zamonaviy pedagogikada kategorial apparatni takomillashtirish zarurati to'g'risida jumladan, A.V.Petrovskiy va B.M. Bim-Bad o'z fikrlarini bildirganlar.

Keyingi yillarda filosof hamda psixolog olimlarning «Kasbiy shakllanish» kategoriyasi dastlabki aksiologik, metodologik, metodik hamda faktologik mohiyatini ilmiy jihatdan asoslab berishga qaratilgan tadqiqotlari amalga oshirilgan bo'lsada, pedagogika fanida u noaniq, intuitiv-hissiy talqin qilish darajasida qolib ketmoqda.

Bugungi kunda kasbiy shakllanish jarayonini to'laligicha bayon qilish, tushuntirib berish va takroran amalga oshirish yo'llarini unga ta'sir etuvchi barcha g'oya hamda omillar majmuasida aks ettiruvchi, ushbu jarayonning yuzaga kelishi, amalga oshishi va natijalarini ko'rsatib beruvchi yaxlit nazariya mavjud emas.

«Shakllanish» - falsafiy kategoriya bo'lib, u bir mavjud holatdan ikkinchisiga o'tishni ifodalaydi. Barcha mavjud holatlar shakllangan vaziyat sifatida, uning yuzaga kelganligi esa shakllanganligi sifatida qaraladi .

Shakllanish natijasida «hodisa tom ma'nodagi yaxlit, yakunlangan, tabaqalashtirilgan, to'laligicha shakllangan tizimga aylanadi» va keyinchalik shu asosda yaratilgan shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda rivojlanib boradi.

Shakllanish holatlar, ob'ektlarning xususiyatlari hamda hodisalarning o'zgarib turishini ifoda etadi. Shunga ko'ra texnologik ta'limi o'qituvchisining kasbiy shakllanishi o'z asosida tanlagan kasbiga ijobiy munosabatda bo'lish, uni egallashga bo'lgan ehtiyoj va imkoniyatga egalik, bo'lajak kasb asoslarini egallash uchun zarur bo'lgan muayyan shart-sharoitlardan foydalanish imkonining mavjudligi kabi omillarni qamrab oladigan, uzoq davom etuvchi, o'zgaruvchan jarayon sifatida qaraladi.

Demak, o'qituvchining kasbiy shakllanish jarayoni - bu «muayyan vaqt mobaynida uning turli ichki holatlari, ichki strukturasi hamda ushbu strukturadagi uning mavjud yo'nalishi sifatida amalga oshuvchi o'zgarishlar ketma-ketligi hisoblanadi».

Talabalar kasbiy shakllanishini tahlil qilishning zaruriy metodologik asosi sifatida shaxs nuqtai nazaridan yondashuv olinib (N.P.Timenko, I.I.Zareskaya va boshqalar), mazkur yondashuv shaxsni uning motivatsion-ehtiyojli hamda talaba operatsion faoliyati bilan bog'liq tarkibiy strukturasi tashkil qiluvchi barcha xislat va sifatleri bilan birgalikda yaxlit majmua sifatida qarashni ko'zda tutadi.

Motivatsion-ehtiyojli muhit o'z ichiga faoliyatga undovchi turli mayllar (ehhtiyojlar, ijtimoiy ko'rsatmalar, mehnat va kasbiy qadriyatli yo'nalishlar, qiziqishlar, motivlar va maqsadlar)ni qamrab oladi.

Operatsion muhit maxsus bilim, ko'nikma va malaka majmuasini ifodalaydi.

Mualliflarning fikriga ko'ra, insonning yuqorida qayd etilgan muhitlarga munosabati, pedagogik faoliyatni amalga oshirishdagi o'z sub'ektiv imkoniyatlarini baholay olishi bilan tavsiflanadi.

Talabalar faoliyatining yetakchi sohasi o'quv jarayoni hisoblanadi. Bundan kelib chiqqan holda kasbiy shakllanish jarayonining xarakterli xususiyati ta'limga, bilim olishga qiziqishning yuqoriligi hisoblanadi. Aynan mana shu qiziqish kasbiy shakllanishning o'ziga xos xarakterini ifodalaydi.

«Kasbiy shakllanish» tushunchasiga berilgan ta'rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin:

Kasbiy shakllanish - shaxs kamolotining muhim jihatlaridan biri bo'lib, shaxsning faqatgina mehnat va kasbiy faoliyatni tanlash bilan bog'liq ehtiyoj va qiziqishlarini ifodalaydi (umumiy rivojlanish barcha ehtiyojlar majmuasini, uning borliqqa, atrofdagilarga, o'ziga nisbatan munosabatlari tizimini ifoda etadi).

Kasbiy shakllanish – mehnat faoliyati yoki kasb sohasining aniq turini tanlash bilan bog'liq, aniq va ongli ravishda qabul qilinadigan qarorning ifodalanishi bo'lib, talabalar bilan amalga oshiriladigan maqsadga yo'naltirilgan ishlar bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, kasbiy shakllanishni talabada pedagogik faoliyatga bo'lgan ehtiyojni rivojlantiruvchi, unga nisbatan mas'uliyatli hamda ijodiy yondashuvni, ijtimoiy qadriyatlar motivatsiyasini tarbiyalovchi hamda shaxsga qaratilgan yo'nalish kasb etuvchi jarayonlar alohida tarkibiy qismlarining o'zaro integratsiyasi sifatida qarash mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, qayd etib o'tilganlardan tashqari umumlashtiruvchi xarakterdagi tadqiqotlar, muammoni talaba yoshlar misolida hal qilishga yo'naltirilgan monografik izlanishlar mavjud emas. Ayrim tadqiqotlarda o'rganilayotgan muammoning alohida jihatlari qarab chiqilgan.

Aksariyat mualliflarning «shakllanish» tushunchasiga nisbatan yondashuvlariga tayanadigan bo'lsak, gumanitar fanlar yo'nalishida ushbu tushunchaning pedagogik fenomeni jarayon va natija sifatida ochib berilganligini ko'ramiz.

Berilgan ta'riflardagi jarayon va natija «kasbiy shakllanish» tushunchasini mohiyatini ochib beruvchi ikkita o'zaro prinsipial farq qiluvchi - dinamik va statik - tayanch modelni keltirib chiqaradi.

«Shakllanish» so'zi quyidagi sinonimlar qatorida qaralsa uning mohiyati yanada aniqroq namoyon bo'ladi: yuzaga kelish, rivojlanish, shakllanish hamda nimanidir yaratish.

«Shakllanish»ni «yuzaga kelish», «shakllantirish» kabi sinonimlar qatorida o'rganilsa, uning jarayon sifatidagi xususiyati va ushbu tushunchaning dinamik modeli to'la namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, kasbiy shakllanish - bu shaxsning kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxs sifatleri, bilimlari, malakalari va harakat namunalarining shakllanish jarayonidir.

Yuzaga kelish, shakllanish jarayoni o'zida ikkita davrni mujassamlashtiradi: boshlang'ich (yaralish) va miqdoriy o'sish davri. Yaralish hamda o'sish davrlarining o'rtasida hamma vaqt qandaydir sifat chegarasi mavjud bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, bu holat muhim ahamiyatga ega. Shaxsning rivojlanishi - ta'lim-tarbiyaning ma'lum tashkiliy shakllari doirasida amalga oshuvchi uzluksiz

davom etuvchi jarayondir. Shakllanish - bu bo'lajak o'qituvchi shaxs muhitidagi sifat o'zgarishlarni aks ettiruvchi tarkib topish jarayonidir.

Rivojlanish natijasi sifatida o'qituvchining o'z imkoniyatlarini ijodiy tatbiq qila olishi qabul qilinadi.

O'qituvchining kasbiy shakllanish davrlari o'zligini anglash, o'zligini namoyon qila olish, o'z imkoniyatlarini amalga oshira olishidan deb belgilab berilgan. Ushbu davrlarni ajratib ko'rsatish mezonlari sifatida o'qituvchi tomonidan o'z maqsad va qadriyatlarini anglab yetish darajasi qabul qilingan.

Shu o'rinda biz o'qituvchi kasbiy shakllanish jarayonining natijaviy tomoni bo'lgan yangi tushuncha - kasbiy-pedagogik o'ziga xoslikning yuzaga kelishi hamda rivojlanishi to'g'risida so'z yuritishimiz mumkin.

«Rivojlanish» tushunchasiga ma'no jihatidan yaqin so'z «shakllanish» tushunchasi hisoblanadi, biroq ularda e'tibor amalga oshiriladigan jarayon xususiyatlariga emas, balki rivojlanish yoki shakllanishning natijasiga qaratiladi.

Mualliflarning yuqorida qayd etib o'tilgan qarashlari hamda yig'ilgan materiallar, shuningdek, tadqiqot maqsadi hamda vazifalaridan kelib chiqqan holda «texnologik ta'limi o'qituvchisining kasbiy shakllanishi» tushunchasining mohiyati aniqlashtirildi.

Shaxsning kasbiy shakllanishini belgilovchi jarayonlar tabiatini aniqlash kasbiy pedagogikaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ushbu jarayonlar mohiyatini qay darajada bilish insoniyat faoliyatining muhim qirralaridan biri, biologik va ijtimoiy yashovchanlik hamda uning ravnaqini belgilovchi omil hisoblangan – yosh avlod tarbiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilish darajasini belgilab beradi.

Talabalarning kasbiy shakllanishi bu ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik, texnik-texnologik hamda maxsus bilimlarning ochiq, o'zini-o'zi rivojlantiruvchi tizimi bo'lib, u davr talabi hamda tadqiqotlar natijalari asosida mazmunan o'zgarib, uzluksiz ravishda mazmunan boyib boradi.

Ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, kasbiy shakllanish quyidagi usullarda aks ettirilishi mumkin:

– jarayon sxemasi asosida (davrlar, bosqichlar, darajalarning vaqt bo'yicha ketma-ketligi ko'rinishida);

– faoliyat tuzilmasi tarzida (vosita va usullar majmuasi ko'rinishida, bu o'rinda o'zaro ta'sirlashuv vaqt bo'yicha emas, qo'yilgan maqsadga ko'ra talqin qilinadi).

Shaxsning kasbiy ahamiyatli sifatlarining shakllanishi individ tomonidan o'z moyilliklarini anglab yetguniga qadar amalga oshadi. Ta'lim olish, rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatadi va rivojlanishning erishilgan darajasi ta'lim olish jarayonlarining kechishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Alohida bilim va ko'nikmalarning egallanishi insonda tasavvurni, dunyoqarashni, e'tiqodni shakllantiradi. Inson bulardan o'zining keyingi hayotida foydalanib o'z hayotiy o'rnini, bo'lajak kasbi to'g'risidagi tasavvurlari hamda qadriyatlarga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Ushbu hodisalar kasbiy shakllanishning pedagogik yo'naltirilganligini belgilab beradi.

Pedagogning kasbiy professionalligi va uni innovatsion faoliyatda namoyon bo'lishi. O'qituvchining kasbiy professionalizmi va kasb mahorati uning kobiliyati mezonlari hamda kasbiy fazilatlar (*chuqur bilimga egaligi va pedagogik faoliyatida unga asoslanganligi*) bog'liq, ya'ni ta'lim jarayonini rivojlantirish, o'zgaruvchan sharoitlarda ta'lim muassasasiga moslashuvi, innovatsion faoliyat, nihoyat ta'lim jarayonining samarali kechishiga jiddiy ta'sir etuvchi omillardan biridir. Bo'lajak pedagoglarda qobiliyatning qay darajada namoyon bulishi va imkoniyatlarining kanday ochilishiga talabalar va o'qituvchi-pedagog o'rtasidagi o'zaro hamkorlik shakllari, umuman olganda o'qituvchining kasbiy yetukligiga bog'liq.

Har qanday faoliyatda professionalizm (*professional – biror kasb bilan doimiy shug'ullanadigan odam, professionalizm – o'z kasbini mohirlik bilan bajarish*) – **standart kasbiy muammolarni yechishni bilishdir.**

O'qituvchi shaxsining pedagogik qobiliyati va kasbiy jihatdan shakllanishi muammolari bo'yicha o'tkazilgan pedagogik-psixologik tadqiqotlarda **“professionalizm”** tushunchasi **“shaxsning kasb maxorati”** sifatida o'rganiladi. Uning tarkibiga pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida shakllangan muhim kasbiy sifatlar hamda shaxsiy kasbiy salohiyatni tashkil etgan pedagogik qobiliyat va mahorat, intellektual, motivatsion, kommunikativlik, kreativlik-ijodiy, perseptiv xamda shaxs dinamizmi ya'ni emotsional-irodaviy (irodaviy ta'sir o'tkazish va mantiqiy ishonтира olish) qobiliyatlar kompleksi kiradi.

O'qituvchining professionallik darajasi bir necha omillar bilan bevosita bog'liq.

Birinchidan, pedagogik faoliyati jarayonida individual xususiyatlarning mavjudligi, ularni tuzatish va takomillashtirish, **ikkinchidan**, pedagogning ijtimoiy-madaniy muhitga singishi, ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-madaniy me'yorlari va kasbiy mahoratini namoyon etishi.

O'qituvchining pedagogik professionalizmi va o'z kasbiga “kompetentligi” (loyiqligi), binobarin, o'qituvchilik faoliyatining samaradorligi, ma'lum ko'rsatkichlarga, masalan, pedagogning nimaga va qanday qilib o'rgatishini qanchalik tushunishi, ham bilishi, uning bilim darajasi va pedagogik salohiyati, zamonaviy o'qitish texnologiyasini qay darajada o'zlashtirib olgani, kasbiy



pedagogik maxorati, ta'lim berish va tarbiyalash hamda shaxsni rivojlantirish bilan bog'liq masalalarni qanchalik hal eta olish pedagogik kobiliyati bilan belgilanadi.

O'qituvchining kasbiy pedagogik professionalizmi - pedagogik maxorati va o'z kasbiy faoliyatini yuqori saviyada tashkil qila olishni ta'minlovchi, o'qituvchi-pedagog shaxs xususiyatlarini yig'indisidir. Shunday muhim xususiyatlarga o'qituvchi faoliyatining insonparvarlikka yo'naltirilganligi, uning kasbiy bilimlari, pedagogik qobiliyatlari va pedagogik texnikasi (*o'z-o'zini boshqara olish ko'nikmalari va talabalar bilan uzaro hamkorlik qila olish malakasi*) kiradi. Bu

pedagogik mahorat tizimidagi o'zini tashqi ta'sirlarsiz rivojlantira olish xususiyatiga ega to'rtta o'zaro bogliq jixatlardir. Shundan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, **o'qituvchi professionalizmi**-bu shaxs va faoliyat sub'ektining murakkab, ko'p qirrali integral xususiyatlari majmuasi bo'lib, uning tuzilmasi quyidagilardan iborat: a) o'qituvchi professionalizmini tashkil etuvchi yaxlit komponentlar; b) o'qituvchi faoliyati va shaxsiga qo'yilgan me'yoriy talablar bilan belgilangan umumiy yoki tipik xususiyatlar (*me'yoriy professionalizm*). v) o'qituvchi sub'ekt sifatida pedagogik faoliyat va muloqotda namoyon bo'luvchi individual-psixologik va tipologik xususiyatlari pedagogik *professionalizmning asosiy tarkibiy qismlari sifatida* "kasbiy maxorat", "pedagogik faoliyat va muloqotning individual uslubi", "pedagogik ijodkorlik", "shaxsiy kasbiy salohiyat"ni *belgilash mumkin*.

Bular "**Mahorat - Uslub – Salohiyat –Mohirlik (texnika) - Ijod –Artistizm**" formulasida o'z aksini topgan yaxlit tizimni tashkil etadi va pedagogik *professionalizmning* ko'rsatkichlari xisoblanadi.

O'qituvchi professionalizmi – bu talabalar bilan hamkorlik va do'stona munosabatlar jarayonida namoyon buladigan "ta'lim va tarbiya berish san'ati, pedagogik maxorat, pedagogik texnika va erkin ijod"dir.

Yuqorida keltirilgan fikrlar shu kunda o'qituvchidan mohirlik, ya'ni texnikani – pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini bilish, uning usullarini egallash va ularni o'z faoliyatida qo'llay olishni talab etadi.

Ta'lim jarayonini loyihalash va modellashtirish pedagogning kasbiy professional ijodkorligini rivojlantirish omili. Pedagogik sohasida mehnat qilayotgan hozirgi zamon o'qituvchisini asosli ta'riflashlardan biri uning loyihaviy faoliyatga nisbatan qobiliyatidir. Loyihaviy faoliyat yangilanish darajasiga oiddir, chunki u borliqni o'zgartiradi, tegishli texnologiya negizida quriladiki, uni o'zgartirish, o'zlashtirish va takomillashtirish mumkin. Loyihalash asoslarini o'zlashtirish dolzarb, chunki, birinchidan, mazkur texnologiya ta'lim tizimini tashkil qilishning barcha bosqichlarida keng qo'llanishga ega. Ikkinchidan, ijtimoiy madaniyat loyihalash mantig'i va texnologiyasini bilish, tahliliy, tashkiliy boshqarish vazifalarini samarali

amalga oshirishga imkon beradi. Uchinchidan, loyihaviy texnologiyalar mutaxassisning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Talabalarga ta'lim va tarbiya berishning muvaffaqiyatliliigi va natijaga egaligi pedagog tomonidan loyihaviy faoliyatni qanchalik o'zlashtirib olganligiga bog'liq, chunki bu faoliyat vaziyatga qarab texnologik yechimlarni takomillashtirishga qodir, yangi ta'lim yondashuvlari va usullarini ishlab chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Loyihaviy faoliyat, V.S.Bezrukovaning fikricha, "ta'lim oluvchilar va pedagoglarning bo'lajak faoliyatlarining asosiy qismlarini birinchi galda ishlab chiqishdan iborat". Har qanday loyihalash ob'ekting, bu pedagogik tizimmi, pedagogik jarayonmi, pedagogik vaziyatmi, uning asosiy qismi – uning ishtirokchilarining faoliyati hisoblanadi. Shuning uchun, birinchi navbatda, o'qituvchi va ta'lim oluvchining faoliyati loyihalashtiriladi. Loyihalash istalgan pedagogning (tashkilotchilik, bilish va muomala qila olish bilan bir qatorda) vazifasidir, maktabda o'quv-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishga imkon yaratadi. Muallif yana pedagogning loyihaviy faoliyati bilan pedagogik texnologiya o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni alohida ta'kidlaydi: "loyihalash jarayonida va u orqali pedagogik jarayon ishtirokchilarining rivojlanishini ta'minlaydigan pedagogik texnologiya ishlab chiqiladi". Biz texnologiya loyihalash mahsulidir, degan fikrga qo'shilamiz.

Loyihaviy faoliyatning tarkibiy asoslari quyidagilardir:

- 1) muammo tahlili;
- 2) maqsadning qo'yilishi;
- 3) unga erishish uchun vosita tanlash;
- 4) axborotni izlash va qayta ishlash, tahlil qilish va umumlashtirish;
- 6) olingan natijalarni baholash va xulosalar.

Predmetli faoliyat uch qismdan tashkil topadi:

- 1) predmetli;
- 2) faoliyatli;
- 3) muloqatli.

Loyihaviy faoliyat rivojlantiruvchi ta'lim uslublaridan biri bo'lib, mustaqil tadqiqotchilik ko'nikmasini hosil qilishga yo'naltiriladi (muammoning qo'yish,

axborotlarni to'plash va uni qayta ishlash, tajriba-sinovlar o'tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish) va ijodiy qobiliyat va mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga olib keladi, ta'lim jarayonida olingan bilimlarni birlashtiradi, hayotiy muhim muammolarni mohiyatini tushunishga yordam beradi .

Loyihaviy faoliyatdan kutilayotgan maqsad ta'lim oluvchilar tomonidan turli o'quv fanlarini o'rganish davrida mujassamlashgan bilim, mahorat va ko'nikmalarni tushunish va qo'llay olishdan iborat. Pedagogning loyihalash faoliyatidan kuzatilgan maqsad:

- rejalashtirishga o'rgatish (pedagog maqsadni aniqlay olishi, ish davomida qo'yilgan maqsadga erishishning asosiy bosqichlarini ifoda eta olishi);

- axborot materiallarni yig'ish va uni qayta ishlash ko'nikmasini shakllantirish (pedagog kerakli axborotni tanlay olishi va undan to'g'ri foydalana olishi lozim);

- tahlil qila olish ko'nikmasi (ijodiy va tanqidiy tafakkur);

- yozma hisobot tuza olish ko'nikmasi (ish rejasini tuza olishi, axborotlarni aniq taqdimot etish, izohlarni rasmiylashtirish, zaruriy adabiyotlar (bibliografiya) haqida tushunchaga ega bo'lish);

- ishga ijobiy munosabatda bo'lishni shakllantirish (pedagog tashabbus ko'rsatishi, ishni belgilangan ish rejasi va tartibi bo'yicha o'z vaqtida bajarishga harakat qilishi kerak).

Rossiyalik olim G.E.Muravevaning fikricha, pedagog tomonidan loyihalash faoliyatni yuqori darajada o'zlashtirganligini oldindan ayta olish, rejalashtirish, tuza olish va modellashtirish ko'nikmalarini shakllanganlik darajasi belgilaydi. Bu tushunchalarning va ularning mazmunini alohida qarab chiqamiz. Tadqiqotimiz ob'ekti loyihalash faoliyati bo'lib, u oldindan ayta olish faoliyati bilan jips aloqada bo'ladi, shunga ko'ra bashorat qilishni (oldindan ayta olishni) batafsilroq qarab chiqiladi. Dastlabki tushuncha – bashorat qilish.

Bashorat qilish – kelajakda biron-bir voqea-natijasini oldindan ko'rmoq, oldindan aytib bermoq. Didaktik bashorat qilish – didaktik voqealar rivoj topishini ilmiy tarzda oldindan ko'ra olish jarayoni tushuniladi

Bashorat qilish loyihadan farqli ravishda o'zgarmas mazmunga ega. Bashorat

qiluvchi modellar asosida ta'lim jarayonini jadallashtirish uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi. Didaktik bashorat qilish, shuningdek, pedagogning o'qitish faoliyatini rejalashtirishga asos sifatida namoyon bo'ladi. Bashoratlashning oddiy uslubiyoti tadqiqotning quyidagi asosiy bosqichlarini o'z ichiga oladi: "bashoratlashdan oldingi mo'ljal (ob'ekt, predmet, muammo, maqsadlar, vazifalar, ilgari ketish vaqti, ishchi farazlar, usullar, tadqiqot tarkibi va tashkil etishni aniqlash); bashoratlash muhiti (ob'ekt rivojlanishiga ta'sir etuvchi, bashoratlashning ixtisoslashmagan, qo'shni tarmoqlari bo'yicha ma'lumotlarni to'plash); dastlabki model, ya'ni ob'ekt xarakteri va tarkibini yorituvchi ko'rsatkichlar, o'lchamlar tizimi ma'lumotlarini to'plash; izlash bashorati (dastlabki modelning kelajakdagi loyihasi, bunda bashorat muhiti omillarini e'tiborga olgan holda kuzatiladigan holatlar bo'yicha hal qilinishi talab etiladigan kelajakdagi muammolar aniqlanadi); me'yoriy (berilgan ko'rsatkichlar bo'yicha ko'rsatilgan maqsad va me'yorlarga muvofiq bo'lgan kelajakdagi dastlabki model loyihasi); ishonchlilik darajasini baholash va bashoratlovchi modellarni aniqlash, odatda, xolis mutaxassislardan so'rash yo'li bilan; bashoratlovchi modellarni taqqoslash asosida yechimlarni ixchamlashtirish uchun tavsiyalar tayyorlash". Bashoratlash – ob'ekt haqida oldin bo'lgan ma'lumotlarni olish jarayoni, ilmiy asosda oldindan asoslashtirilgan holatlar va usullar (B.S.Gershunskiy. Bashoratlash biror-bir holat, jarayon mavjud yoki uning vujudga kelishi uchun shart-sharoit bor deb oladi. Loyihalash jarayoni esa kelajakdagi, ya'ni, hali mavjud bo'lmagan ob'ekt loyihasini tayyorlashdan iborat. Loyihalash bashorat qilish qismini o'z ichiga oladi yoki mavjud bashoratga tayanadi.

Ikkinchi tushuncha – rejalashtirish.

Rejalashtirish – biror narsaning rejasi yoki loyihasini solishtirish bo'lib, reja – "umumiy maqsadga birlashgan amalga oshirilishi uchun dastlab bir qancha oldindan uylab qo'yilgan harakatlar, tadbirlarni bajarish talab etiladigan niyat, loyiha, topshiriqdir"

Ko'pincha rejalashtirish va loyihalash sinonimlar tarzida foydalaniladi. Reja va loyihani tuzish maqsadi nuqtai nazaridan, haqiqatda farq yo'q. Reja ham, loyiha ham kelgusi aniq voqelikni yoritadi va uni amalga oshirish uchun tuziladi. Lekin,

fikrimizcha, loyihalash rejalashtirishga qaraganda kengroq tushunchaga ega. Rejalashtirish aniq harakat, ularning tartibini belgilash bilan bog‘liq, ya’ni, kelajakning o‘zgaruvchan tashkil etuvchisi bo‘lgan faoliyatdan iborat. Loyihalashda kelajakdagi narsa yoki jarayonlar tamoyillarga tayangan holda asoslanadi va tavsiflanadi, uni amalga oshirish usuli namoyon etiladi. Reja esa o‘ylab qo‘yilganlarni amalga oshirish yuzasidan harakatlar tizimini aks etadi.

Pedagogning kasbiy faoliyatida rejalashtirish keng o‘rin egallaydi. Rejalashtirish jarayonida pedagog oldida turgan faoliyatga diqqat bilan ish tutadi, mazmunini pedagogik jihatdan qayta ishlab chiqadi. Uni tashkil etishning samarali, mahsuldorroq shakllari va uslublarini izlaydi. U uning tarkibini aniqlaydi, uning ayrim qismlari orasidagi bog‘lanishni, ayrim qismlari orasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni aniqlaydi, ularni birlashtirish va o‘zaro ta’sirining nisbatan mahsulli shakllari va usullarini izlaydi va h.k., ya’ni ishning mahsuldor, unumli tizimini shakllantiradi.

Rossiyalik olim I.P.Rachenko rejalashtirishni ko‘zdan kechirishning bir necha tomonini ajratadi. Ijtimoiy nuqtai nazardan pedagogik faoliyatni rejalashtirish – shaxs, jamoaning rivoj topishiga bir butun yondoshuvni loyihalashdan iborat. Rejalashtirishning iqtisodiy tomoni – faoliyat natijasi samaradorligini ta’minlashdir. Psixologik nuqtai nazardan reja miyada harakatlar qonuniy ketma-ketligini aniqlovchi shajaraviy tuzilgan jarayondir. Muallif fikricha reja tuzish – ishni loyihalashtirishdir.

Reja ishning aniq bir tizimidir, bunday tizimlarni loyihalash esa rejalashtirishning asosini tashkil etishi lozim. Bu holda tizimlarni loyihalash – o‘quv-tarbiya masalalarining jadal, unumli psixologik-pedagogik yechimini izlashdan iborat. I.P.Rachenko pedagogik faoliyatni rejalashtirishga quyidagilarni kiritadi:

- a) pedagog oldida turgan asosiy maqsad nuqtai nazaridan pedagogik holatni baholash;
- b) oldindan asosli tarzda ayta olish, ishning borishi va natijalarini oldindan ko‘rish, shunga bog‘liq tarzda uning maqsad va vazifalarini aniqlash;
- v) zaruriy chora-tadbirlar, harakatlar ketma-ketligi dasturini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish uchun eng unumli uslublar, usullar va jihozlarni tanlash;
- g) ishni vaqt bo‘yicha hisob-kitobini qilish, uning boshlanishi va oxirini belgilash;

ye) hisobga olish va nazorat shakllari va uslublarini belgilash.

I.P.Rachenko keyingi ishlarida rejalashtirish jarayonini quyidagicha izohlaydi:

a) maqsad va vazifalarni shakllantirish;

b) ketma-ket harakatlar dasturini ishlab chiqish;

v) faoliyat jarayoni va natijalari jarayonini vaqti hisobini nazorat qilish.

Ammo, pedagogik adabiyotda bu jarayonlarga nisbatan qarama-qarshi fikrlar ham mavjud. Masalan, V.I.Zagvyazinskiy istalgan kishi, shu jumladan, pedagogik faoliyatda quyidagi davrlarni ajratadi:

- erishilgan dastlabki holat , boshlang'ich vaziyatlar tahlili;

- tashhislash yo'nalishlarini aniqlash;

- bashorat qilish va oldindan aytish;

- maqsad va asosiy vazifalarni aniqlashni o'z ichiga olgan maqsadga yo'nalganlik;

- o'ziga xususiy masalalar na ularni yechishning asosiy bosqichlarni o'z ichiga olgan rejalashtirish.

Bunga qaraganda, loyihalash rejalashtirishdan keyin keladi va rejani aniqlashtirishdan iborat. Bizning nuqtai nazarimizda I.P.Rachenko fikrlariga nisbatan bu qarash aniqroqdir, chunki, shaxs o'z faoliyatini rejalashtirish uchun kelajakdagi ta'lim jarayoni dasturi yoki loyihasi bo'lishi kerak.

Rossiyalik olim P.E.Reshetnikov tomonidan tayyorlangan pedagogik faoliyatni rejalashtirish usullari qiziqarlidir:

1) dasturiy-maqsadli;

2) majmuaviy-tadbiri;

3) tizimli-texnologik.

Dasturiy-maqsadli rejalashtirishda faoliyatning yakuniy va oraliq maqsadlari loyihalanadi va tavsiflanadi, reja, yakuniy hujjat shakli sifatida ish dasturi xizmat qiladi.

Majmuaviy-tadbiri rejalashtirishda quyidagilar loyihalashtiriladi:

a) eng muhim masalalar, ularni yechish uchun yo'naltiriladi;

b) ishning majmua shakliga ega bo'lgan ayrim yo'nalishlari bo'yicha tadbirlar;

v) bajarish muddatlari;

g) bajarilishi uchun mas'ullar;

- d) nazorat qilish shakllari va bajaruvchilar;
- ye) kurs mavzularini o'rganish ketma-ketligi;
- j) darsning asosiy bosqichlari, uning jihozlanishi, o'quvchilarga beriladigan vazifalar.

Reja shakli: tadbir, dars va boshqalarning aniq rejasi.

Tizimli-texnologik rejalashtirishda quyidagilar loyihalanadi:

- a) ta'lim muassasasining ta'lim faoliyati yoki rivojlanishi to'g'risidagi va tajriba-sinovlarning yetakchi g'oyalari;
- b) o'quv rejasi;
- v) talabalar tomonidan kasbiy tajribani o'zlashtirishni ta'minlovchi o'quv va kasbiy masalalarining ishlab chiqarilishi;
- g) o'quv jarayonining tartibi;
- d) o'quv fanlari bo'yicha dasturlar;
- ye) har qaysi alohida o'quv kursini o'rganish texnologiyasi;
- j) har qaysi alohida kursni o'tkazish texnologiyasi;
- z) ish unumi mezonlari va ko'rsatkichlari tizimi va mutaxassis kasbiy-shaxsiy rivojlanishini tashhishlash texnologiyasi;
- i) oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkazish texnologiyasi;
- k) moddiy, moliyaviy, kadrlar bilan ta'minlash yuzasidan olib boriladigan ishlar;
- l) pedagogik jamoani rivojlanish jarayonidagi ta'limiy masala-larni hal qilishga tayyorlash bo'yicha ishlarning shakli; muassasaning ta'limiy dasturlari.

Uchinchi tushuncha modellashtirish.

Modellashtirish – “bilish ob'ektlarini ularning modellarida tadqiq qilish uslubi; aniq mavjud predmetlar, voqealar va tuziladigan ob'ektlarning tavsifnomalarini aniqlash yoki yaxshilash, ularni yasash usullarini qulaylashtirish, boshqarish kabilar uchun yasash va o'rganish”.

Model – tabiiy yoki ijtimoiy borliq muayyan ko'rinishning, inson madaniyati, g'oyaviy-nazariy ta'lim mahsulining, aslining o'xshatmasi (chizmasi, tarkibi, belgilari tizimi). Bu o'xshatma asl bo'lib, uning xossalari va tuzilishi, uni o'zgartirish yoki boshqarish haqidagi bilimlarni (ma'lumotni) saqlash va kengaytirish uchun xizmat

qiladi. Model - bu aslni bilish va boshqarishdagi “vakili”, “o‘rinbosari”dir. Muayyan shartlarda nusxani tayyorlash va tadqiq qilish natijalari asl nusxaga o‘tkaziladi”. Model tushuntirish, oldindan aytish, topilmali vositasi sifatida, doimo bilishga oid rolni bajaradi.

Modelning loyihadan birinchi farqi – uni tuzish maqsadidir. Model narsa, hodisani o‘rganish, ma’lumot (axborot) olish, uning qirralarini o‘rganish uchun, shuningdek, uni o‘zgartirish va boshqarish uchun foydalaniladi. Loyiha esa narsani tuzish, borliqqa mujassamlashtirishda ishlatiladi va yuqorida ko‘rsatilganidek, bilishga oid vazifani bajaradi.

Modelning boshqa o‘ziga xos xususiyati, yuqorida keltirilgan ta’rifga ko‘ra, u aniq mavjud aslni «ifodalaydi», «almashtiradi», loyiha esa hali mavjud bo‘lmagan narsalarni tavsiflaydi. Model – borliq qismining o‘xshatmasi; uni tuzishda muhim bo‘lmagan holatlardan chetlaniladi, faqat bosh asosiy qismlar va tavsifnomalar qayd etiladi. Model – xayoliy tuzilma. Loyihada, aksincha, kelajakdagi narsa va jarayonlar to‘g‘risida, shartlar e’tiborga olingan holda, aniq tasavvur akslanadi.

Biz bergan modellashtirish tushunchasi ta’rifida hali mavjud bo‘lmagan ob’ektlar ham bo‘lishi mumkin. Bunda loyihalash va modellashtirish tushunchalari o‘zaro kesishadilar. Lekin, ularni ajratish mumkin. Yasalayotgan narsa modeli bevosita narsaning o‘ziga mujassamlanmaydi, lekin jarayonning bu eng boshida sodir bo‘lishi mumkin. Modellash, shuningdek berilgan shartlarda maxsus uyushtirilgan ta’sir natijasida ob’ektda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan holat haqida yangi ma’lumot olishga imkon beradi, ya’ni, bashoratlash vazifasini bajaradi. Modellash bashorat qilish uslubi sifatida ta’lim jarayonida o‘rganiladigan narsaning axborotli modelini yasash bilan bog‘langan bo‘ladi. Bu mo‘ljallangan chiziqlar deb ataladiganlar ko‘rinishida yasalgan mantiqiy chizmalar (u qaysi tushunchalar va ta’riflardan qaysilari tomon harakat qilishni ko‘rsatadi), mazmunning asosiy holatlarini yorituvchi turli ramzlar yoki mavzuni o‘rganishning aniq rejasi bo‘lishi mumkin.

Pedagog va talabalarning faoliyati, usullar bilan to‘ldirilgan axborotli faoliyat modeliga, jarayonli modelga aylanadi. Pedagog talabalardagi va yangi ma’lumotni, mavjud va zarur bo‘ladigan odat va ko‘nikmalarni, boodobliklikning aniq va zaruriy

darajasini o‘zaro solishtiradi va faraziy tarzda talaba uchrashi mumkin bo‘ladigan qiyinchiliklarni aniqlaydi. Farazga asoslanib, u muammoning yechilishini, bo‘lishi mumkin bo‘lgan xatoliklarni, maqsadga muvofiq bo‘lgan yoki bo‘lmagan harakatlarni oldindan ko‘radi, faoliyatning muvaffaqiyatli bo‘lishini ta‘minlovchi vositalarni tanlaydi, ya‘ni, xayolan tajribalar o‘tkazadi. Buning uchun xayoliy tajribaga yana bitta shart kiritilishi lozim - talabalarni faoliyatga undovchi shartlarning holati va kuchini, ularning qiziqishlarini, o‘z-o‘zlarini tarbiyalashga istaklari borligini nazarda tutish, zarur bo‘lsa, intilishlarini rivojlantirish chorasini ko‘rish lozim.

Pedagogning yuqorida tavsiflangan harakatlari, aynan fikran sinab ko‘rishi, loyihalash faoliyatiga kiritilishi mumkin, ya‘ni modellashtirish loyihalashning bir qismi bo‘ladi. Didaktikada modellashtirishni bilish uchun pedagogning loyihalash faoliyatini aniqlash lozimdir.

Loyihalashning to‘rtinchi bosqichi – tuzish-qurish.

Tuzish-qurish (konstruksiyalash) – “biror-bir qurilish, inshoot, qurilma qismlarining tarkibi va o‘zaro joylashuvi, shunday tuzilishli qurilish, inshoot, mashinaning o‘zi”

Tuzish-qurishda biror-bir ob‘ektning tarkibi bosh tushuncha bo‘lib, tuzuvchilik faoliyati loyihalash faoliyatidan farqli ravishda, xayoliy va amaliy (buyumli tuzuvchilik) faoliyat bo‘lishi mumkin, xayoliy tuzuvchilik mazmuni bo‘yicha loyihalashga yaqin va uning o‘xshashi sifatida ko‘plab ishlatiladi. Lekin, bizning fikrimizcha, tuzish loyihalashga nisbatan tor ma‘nodagi tushuncha, chunki, u yaratilayotgan ob‘ektning sirtqi tomonini akslantiradi, loyihalash esa ichki, o‘zgaruvchan va boshqa tashkil etuvchilarni o‘z ichiga oladi.

Pedagogik qomusiy lug‘atda tuzish-qurish ta‘rifi quyidagicha keltirilgan: «Tuzish-qurish (konstruksiyalash) – loyihalar va hisoblashlarni bajarish yo‘li bilan model, mashina, inshoot, texnologiyani yasash jarayonidir». Keltirilgan ta‘rifga ko‘ra tuzish-qurish ob‘ektlari sifatida nafaqat qurilishlar, inshootlar, mashinalar, qurilmalar, balki, modellar va texnologiyalar xam namoyon bo‘lishi mumkin. Bunda belgili, ramzli mavhum emas, balki moddiy, narsali modellar ko‘zda tutiladi. Texnologiyalar haqida esa, «texnologiyalarni loyihalash» so‘z birikmasi o‘rinliroq, chunki texnologiya jarayon

sifatida vaqtinchalik, o'zgaruvchan tashkil etuvchiga ega, qurilmalar esa tuzish mahsuli tarzida faqat o'zgarmas tavsifnomaga ega. Bundan tashqari, ko'rsatilgan ta'rifda tuzish loyihalashni o'z ichiga oladi. Ayrim mualliflar (masalan, Ya.Ditrix) tuzishni loyihalash natijasiga tayanadigan faoliyat tariqasida qaraydilar, va «loyihaviy - konstruktorlik jarayoni» atamasini ishlatadi. V.S.Bezrukova pedagogik tuzishni bir vaqtda loyihalashning bosqichi sifatida va tuzilgan loyihani keyingi detallashtirilishini batafsil aniqlash sifatida qaraydi. Bizning nuqtai nazarimizdan loyihalash tuzishni o'z ichiga oladi, uni o'quv faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vositalarning yaratilishi sifatida qarash mumkin.

Ma'nosi bo'yicha loyihalashga yaqin bo'lgan modellash, bashorat qilish, rejalash, o'quv va o'qitish faoliyatini tuzish tushunchalarining tahlili, ularning umumiyligi va farqini aniqlash ta'lim jarayonini loyihalash ma'nosi haqida bir qator xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Pedagogik jarayonni loyihalash – pedagogning tabiiy va ijtimoiy qonuniyatlarni nazarda tutilgan holda ma'lum bir vaqt birligi ichida talabalarni maqsadga muvofiq holda rivojlantirishning kelajakdagi jarayoni va natijasi o'rin oladigan kasbiy faoliyatining bir ko'rinishidir

Loyihalash bashorat qilish tushunchasi bilan uzviy bog'langan. Ularning umumiyligi shundaki, loyiha va bashorat kelajakdagi didaktik hodisalar haqida tushuncha beradi. Lekin, loyihadan farqli ravishda bashoratlarda ehtimoliy mazmunga ega va u yoki bu didaktik jarayonning rivojlanish natijalarini oldindan ko'ra oladi. Loyiha esa bu jarayonlarni qaytadan tuzadi. Loyihalash o'z tarkibiga bashorat qilish qismini kiritishi mumkin. Agar talabaning o'quv-bilish faoliyat rejasi haqida gap borsa, va shu jarayon davom ettirilsa, rejalashtirish loyihani amalga oshirishi tarkibiga kiradi.

Tuzish-qurish ham ta'lim jarayonini loyihalash tarkibiga kiradi. Fikrimizcha, u texnologik jarayonni amalga oshirish uchun moddiy vositalarni tuzishdan iborat. Loyihalash u yoki bu darajada kelajakdagi ta'lim jarayonini modellashtirish, bashorat qilish, rejalashtirish, tuzish-qurish qismlarini o'z ichiga oladi. Ta'lim jarayonini loyihalash – murakkab faoliyat bo'lib, pedagogdan amaliy, didaktik, uslubiy metodologik, buyumli va boshqa bilimlarning tizimini talab qiladi, chunki, u

xayoliy darajada haqiqiy ta'lim jarayonini yoritib beradi.

Nazorat savollari:

1. Kasbiy ta'lim jarayonida shaxs rivojlanishining pedagogik shart-sharoitlari qanday omillarga bog'liq?
2. Pedagogning kasbiy professionalligini rivojlantirish yo'llarini bayon qiling.
3. Pedagogning kasbiy professionalligiga ta'sir etuvchi omillar.
4. O'quv jarayonini tashkil etishda loyihaviy faoliyatning tarkibiy asoslarini sanab bering.
5. O'quv jarayonini tashkil etishda loyihalash, rejalashtirish, modellashtirish va nazorat qilish hamda baholashning o'rni

Adabiyotlar ro'yxati va internet ilovalari:

1. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – Toshkent: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 90 bet.
2. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81-b.
3. Kompetensii pedagoga XXI veka [Elektronnyy resurs]: sb. materialov resp. konferensii (Minsk, 25 noyab. 2021 g.) / M-vo obrazovaniya Resp. Belarus, GUO «Akad. poslediplom. obrazovaniya», OO «Belorus. ped. o-vo». – Minsk: APO, 2021.
4. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.
5. Ishmuhamedov R, Mirsolieva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019.- 68 b.
6. <https://psychologos.ru/articles/view/andragogika-i-pedagogika>
7. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%90%D0%BD%D0%B4%D1%80%D0%B0%D0%B3%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D0%BA%D0%B0>.
8. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/aksiologiya-uz/>

4-MAVZU. BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGI VA KREATIVLIGI

Reja:

1. Texnologiya fanidan o‘quv mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi
2. Talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish.
3. Talabalarining o‘quv-blish faoliyatini nazorat qilish va baholash.

***Таянч тушунчалар:** ўқув машғулотлари, дарс, синф-дарс тизими, мустақил таълим, дидактик ишланма, назорат, баҳолаш.*

Texnologiya fanidan o‘quv mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi.

Kasbiy (texnologik) ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini o‘zaro bog‘liq hamkorlikdagi faoliyatlarining tashqi ko‘rinishi kasbiy (texnologik) ta’limning tashkiliy shakli deb e’tirof etiladi. Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida ta’limning tashkiliy shakllari turlicha bo‘lgan.

Kishilik jamiyatining ilk bosqichlaridanoq, ya’ni yoshi ulug‘, hayotiy tajribasi katta kishilar yoshlarga ijtimoiy taraqqiyot talablariga javob beradigan qilib ta’lim-tarbiya berish shakllarini topishga uringanlar. Buning natijasida dastlab individual ta’lim tarkib topgan bo‘lib, u vaqtlar o‘tishi bilan ustoz- shogird tizimi darajasigacha rivojlantirilgan. Individual ta’lim bir qator afzalliklarga ega, shuning uchun ham ayniqsa, kasb-hunar tayyorgarligida bu usul bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Uning ustunligi o‘quv faoliyati mazmuni, metodi va sur’atini to‘la individuallashtirishga imkon berishidan iborat. Individual ta’lim o‘qituvchining yuqori pedagogik malakaga ega bo‘lishini talab etadi.

Mazkur kamchiliklar XVI asrdan boshlab individual o‘qitishning ahamiyatini bir muncha pasayishiga va uning muqobili sifatida ta’limning individual-guruhli shaklini kelib chiqishiga imkon berdi.

Ta’limning individual-guruhli shaklidan Yevropada, XVI asrda keng foydalana boshlandi.

Individual-guruhli shaklining mazmuni mashg‘ulotlarni o‘qituvchi bir tahsil oluvchi bilan emas, balki tayyorlik darajasi turlicha bo‘lgan turli yoshdagi tahsil oluvchilar guruhi bilan olib borishidan iborat edi. O‘qituvchi navbat bilan har bir tahsil oluvchidan o‘tilgan materialni so‘raydi, yangi savollarni tushuntiradi,

mustaqil ishlash uchun individual topshiriqlar beradi, qolgan tahsil oluvchilar o'z ishlari bilan shug'ullanadilar. O'qishni bunday tashkil etishda, tahsil oluvchilar mashg'ulotlarga yilning turli davrlarida hamda kunning turli vaqtlarida kelishlari mumkin bo'lgan.

XV - XVI asrlarda Yevropada ishlab chiqarishning rivojlanishi kuzatildi. Ushbu o'zgarishlar ta'limning ommaviy shaklini yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

Ulardan biri XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan "Buyuk didaktika" asarida sinf-dars tizimini nazariy jihatdan asoslab berdi va ommaviylashtirilishga muhim o'z hissasini qo'shdi. Komenskiy pedagogikaga o'quv yili, o'quv kuni, dars, mashg'ulotlar orasidagi tanaffus, o'quv ta'tillari kabi tushunchalarni kiritdi.

Sinf-dars tizimi garchi 370 yillar avval asoslangan bo'lsada, bugungi kunda ham keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda.

Sinf-dars tizimining mazmuni o'quv ishlarini tashkil etishning o'ziga xos shakli sifatida quyidagilardan iborat:

- bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan tahsil oluvchilar sinf yoki guruhni tashkil etadi. Bu sinf yoki guruh ta'lim muassasasida o'qishning umumiy davriga asosan doimiy tartibini saqlab qoladi;

- sinf yoki guruh faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida, doimiy dars jadvali bo'yicha tashkil etiladi, buning natijasida tahsil oluvchilar yilning bir vaqti va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo'ladi.;

- mashg'ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;

- dars odatda bir o'quv predmeti yoki mavzuga bag'ishlangan bo'ladi, shu bois tahsil oluvchilar sinf yoki guruhda bitta material ustida ishlaydilar;

- darsda tahsil oluvchilarning ishiga o'qituvchi rahbarlik qiladi, u o'z fani bo'yicha o'qish natijalari, har bir tahsil oluvchini alohida bilimini baholaydi.

Sinf-dars tizimi K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantirildi va uning barcha ustunliklarini ilmiy asoslab berdi. K.D.Ushinskiy har bir darsning bir-biri bilan uzviy bog'langan quyidagi uchta qismini ajratib ko'ratadi:

- 1) ilgari o'rganilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni anglashni amalga oshirish va tahsil oluvchilarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko'rsatmani

yaratishga qaratiladi. Darsning bu qismi K.D.Ushinskiyning fikricha darsga go'yoki "eshik" hisoblanadi.

2) asosiy masalani hal etishga yo'naltiriladi va darsning muhim, markaziy qismi hisoblanadi.

3) amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratiladi.

Darsni tashkil etish ilmiy asoslarini ishlab chiqishga nemis pedagogi A.Disterveg ham katta hissa qo'shdi. U o'qituvchi va tahsil oluvchining faoliyatiga taalluqli o'qitish tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi, tahsil oluvchilarning yoshi imkoniyatlarini hisobga olishni zarurligini asoslab berdi.

Ta'limning sinf-dars tizimi alohida o'quv fanlarini o'qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarida uning afzallik va kamchiliklarini ko'rsatib berdi.

Afzalliklari: yaxlit ta'lim-tarbiya jarayonining aniq belgilangan tartib asosida kechishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim; jarayonning o'qituvchi tomonidan boshqarilishi: o'quv muammosining tahsil oluvchilar yoki ishtirokchilar jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini hamkorlikda izlash jarayonida tahsil oluvchilar orasida o'zaro musobaqa munosabatlarining shakllanishi; o'qituvchining tahsil oluvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsional ta'sir ko'rsatishi; ta'limning emotsionalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida tahsil oluvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi, bilimsizlikdan bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.

Kamchiliklari: tizimning o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi tahsil oluvchilar uchun mo'ljallanganligi, bo'sh yoki juda yaxshi o'zlashtiruvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi; o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, tahsil oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishdagi qiyinchilikning yuzaga kelishi; katta va kichik yoshli tahsil oluvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida, aqliy rivojlanishida farqi bo'lgan tahsil oluvchilarni o'qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratildi. Shunga mos ravishda AQSh va Yevropada tanlab o'qitish shakli yuzaga keldi.

Yevropa va AQShda, XX asr boshida tahsil oluvchilarning individual, faol, mustaqil o'quv ishlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilgan.

XX asrning 20-yillarida amerikalik U.Kilpatrik ishlab chiqqan ta'limning loyihali tizimi targ'ib qilina boshlandi. O'qitishning bu tizimi o'quvchilarning o'zlari loyiha ishlari mavzusini tanlab olishlaridan iborat edi. U mavjud haqiqiy hayot bilan bog'langan bo'lishi va o'quv guruhi ixtisoslashishiga qarab (yo'nalishlari) ijtimoiy-siyosiy, xo'jalik-ishlab chiqarish yoki madaniy-turmush tomonlarini aks ettirishi kerak bo'lgan.

60-yillarda amerikalik professor pedagog Lyuyd Tramk ishlab chiqqan Tramk rejasi juda mashhur bo'ldi. O'qitishni tashkil etishning bu shakli katta auditoriyalarda (100-150 nafar tahsil oluvchi) mashg'ulotlarni, 10-15 kishilik guruhlarda va o'quvchilarning individual ishlarini birgalikda olib borishni taklif etgan. Turli xildagi texnik vositalardan foydalanib umumiy ma'ruzalarni olib borishga o'quv vaqtining 40 foiz miqdori ajratiladi. Kichik guruhlarda mashg'ulotlarga (seminarlar) – 20 foizi, kabinet va laboratoriyalarda individual mustaqil ishlarni bajarishga 40 foizi ajratiladi.

70-yillarda o'qishni tashkil etishning noan'anaviy shakllarini izlash davom ettirildi. Tajriba – sinov maktablarini izlash birinchi navbatda sinf-dars tizimini modernizatsiyalashtirish fikri bilan bog'liq bo'lgan. Izlanishlar asosiy masalasi – o'qishni individuallashtirish edi. Hozirgi paytda XVI asrda Ya.A. Komenskiy tomonidan asoslangan sinf (guruh) - dars shakli va zamon hamda istiqbol talablarini o'zida aks ettiruvchi noan'anaviy (bahs-munozara, seminar, seminar-trening, laboratoriya-amaliy mashg'uloti, sayohat, davra suhbat, viktorina, fakultativ, o'yin kabi) shakllardan keng ko'lamda foydalanilmoqda.

Sinf-dars tizimida mashg'ulot o'quvchilar yoshi va tayyorgarlik darajasiga binoan tabaqalashtirilib, ma'lum o'quv dasturi va jadval asosida o'qituvchi

rahbarligida tashkil etilib o'tkaziladi. Hozirgi paytda darslarni tashkil etib o'tkazishga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Darsning maqsad va vazifalarining aniqligi, o'zaro bog'liqligi hamda psixologik, pedagogik, fiziologik nuqtai nazardan maqbulligi.
2. Darsning mazmunan va tuzilmaviy jihatdan yaxlitligi.
3. Ishtirokchilarining ongli o'zaro hamkorlik faoliyatining ta'minlanganligi.
4. O'quvchilarning o'qib-o'rganishlari, tarbiyalanishlari va rivojlanishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.
5. Barcha didaktik va xususiy prinsiplarga asoslanganligi.
6. O'quvchilar shaxsini hurmat qilish, ularning faolligi, erkinligi, mustaqilligi, ijodkorligi kabilarga shart-sharoit yaratilishi kabilari.

Shu o'rinda hozirgi paytda ham ta'lim-tarbiyani yakka tartibda tashkil etish shakli saqlanib qolgan bo'lib, ayniqsa undan o'quvchilarning ehtiyoji, xohishi, qiziqishlari, ba'zan o'zlashtirmaslikni bartaraf etish, uzoq vaqtlar davomida tibbiyot xodimlari nazoratida bo'lgan yoshlarga ko'maklashish maqsadida undan foydalanilmoqda.

Shunday qilib, shu paytgacha bu tizimdan foydalanib kelinmoqda, lekin unga muqobil tizim yaratilganicha yo'q.


Hozirgi paytda kasbiy (texnologik) ta'limning tashkiliy shakllari quyidagi xususiyatlariga binoan turlanishi ko'p sonli pedagog olimlar tomonidan e'tirof etilgan:

Nofaol (passiv). Bu jarayonda o'quv materialini o'qituvchi tomonidan tayyor holda uzatiladi, tahsil oluvchilar faqat eshitadilar, kuzatadilar va imkon qadar xotirada saqlashga harakat qiladilar.

Faol (aktiv). Kasbiy (texnologik) ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'zaro birlariga nisbatan faol muloqot va munosabatda bo'lib, o'rganilayotgan ob'ekt ma'nosi hamda mohiyatini anglab yetadilar. Chunki bu jarayonda o'qituvchi va tahsil oluvchilar orasida qaytar aloqa ta'minlanadi.

Interfaol (interaktiv) shaklda tahsil oluvchilar o'zaro muloqot va munosabatlari yo'lga qo'yilib, o'qituvchi ham, tahsil oluvchilar ham faol ishtirok

etib, o'rganilayotgan ob'ektning mohiyati anglanib, amalda qo'llanishi ham aniq misollar yordamida ko'rsatiladi. Bunday ta'lim shakllarini ba'zi bir pedagoglar monologik, dialogik va poliologik ta'lim sifatida ham talqin etadilar. Ta'limning zikr etilgan shakllarini chizmada quyidagicha tasvirlash mumkin.



Sinf-dars tizimining asosiy o'ziga xos jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

- deyarli bir xil tarkib, yosh va tayyorgarlik darajasidagi o'quvchilar ishtirok etadi; ta'lim-tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq alohida-alohida qismlar ko'rinishiga ega bo'ladi;
- har bir dars o'quv rejasiga kirgan ma'lum bir o'quv predmetiga oid bo'ladi;
- darslar muntazam ravishda almashib turadi;
- kasbiy (texnologik) ta'lim darslariga o'qituvchi, muhandis-pedagog, yo'riqchi, tajribali mutaxassis kabilar rahbarlik qiladi;
- o'quvchilar turli ko'rinishdagi o'quv-bilish faoliyatida ishtirok etadilar.

Quyidagilar sinf-dars tizimining ijobiy tomonlari hisoblanadi:

- kat'iy tashkiliy tuzilmaga egaligi;
- iqtisodiy ko'rsatkichlarining nisbatan yuqoriligi. Sababi bir o'qituvchi bir vaqtning o'zida ko'p sonli o'quvchilar bilan ishlaydi;
- o'zaro hamkorlik faoliyatini amalga oshirishga qulay sharoit yaratilganligi kabilar.

Shu bilan birga sinf-dars tizimining quyidagi kamchiliklari ham e'tirof etilgan:

O'rtacha o'quvchiga mo'ljallanganligi; har bir o'quvchi bilan individual ishlash imkoniyatining yo'qligi; qat'iy tuzilmaga egaligi va shu kabilar.

Ijtimoiy talablar, kasbiy (texnologik) ta'limning maqsad va vazifalari, o'quvchilarning talab va ehtiyojlari, ta'lim-tarbiya qonuniyatlari, prinsiplari kabilarga ko'ra kasbiy (texnologik) ta'lim darslariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- fan-texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining so'nggi yutuqlari, ilg'or, pedagogik tajribalardan imkon qadar foydalanish, ta'lim-tarbiya qonuniyatlariga asoslanib dars tuzilmasini maqbullashtirish;

- darsda barcha didaktik va kasb-hunar ta'limining xususiy prinsiplarining maqbul nisbati hamda uyg'unligini ta'minlash;

- o'quvchilarning ongliligi, qiziqishi, ehtiyojlari, moyilligini hisobga olgan holda faol, mahsulli o'quv-bilish faoliyatiga shart-sharoit yaratish;

- o'quv materialining mukammal o'zlashtirilishi uchun fanlararo aloqadorlikka amal qilish;

- o'quvchilar tomonidan ilgari o'zlashtirilgan bilimlar va ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda ish ko'rish;

- o'quvchilarning barcha ijobiy jihatlarini rag'batlantirish, o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish yo'li bilan o'quvchilar shaxsini rivojlantirishga erishish;

- darsning barcha bosqichlarida mantiqiy va emotsional his-tuyg'ularga asoslanish;

- didaktik materiallar va vositalardan samarali foydalanish;

- nazariy materialni amaliyot bilan uzviy bog'lab o'rganish;

- zaruriy bilim, xatti-harakat usullari, oqilona fikrlash va amaliy faoliyat ko'rsatish usullarini tarkib toptirish;


- o'quvchilarda muntazam va uzluksiz ravishda o'qib-o'rganish, o'zining bilim va kasbiy mahoratini oshira borish ehtiyojini shakllantirish;

- darslarni mukammal rejalashtirish natijalarini oldindan bashorat qilish, tashhishlash va shu kabilar.

Kasbiy (texnologik) ta'limga oid zamonaviy darslarda bir-biri bilan uzviy bog'liq: ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va motivatsion maqsadlarni uyg'unlashtirish bu sohada aniq maqsadlarni belgilab olishni talab etadi.

Darslarning tasniflanishi quyidagicha ifodalash mumkin (... rasm).

8- rasm. DARSLARNING TASNIFLANISHI



Quyida texnologik o'quv predmetlarini zamonaviy dars tuzilmasi asosida o'qitish metodikasini ko'rsatishga harakat qilamiz.

**“Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi” mavzusidan nazariy
mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi**

Mavzu: Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi:

Mashg'ulotning maqsadi: talabalarga Xalq hunarmandchiligiga oid kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish.

Ma'ruza rejasi. 1. Xalq hunarmandchiligining mazmuni va mohiyati.

2. O'zbek milliy xalq hunarmandchiligi tarixi va rivojlanish bosqichlari.

3. Yog'och va ganch o'ymakorligi.

4. Matoga ishlov berishga oid hunarmandchilik ishlari

Mashg'ulot shakli. Aralash.

Mashg'ulot ko'rinishi. Nazariy.

Mashg'ulot metodlari. Aqliy hujum, savol-javob, idrok xaritasi.

O'qitish shart-sharoiti. Texnik vositalar bilan ta'minlangan va guruhlarda ishlashga muljallangan auditoriya.

Yangi mavzuni mustahkamlash. Mavzuga oid savol-javoblar, nazariy topshiriqlar va boshqalar.

Monitoring va baholash. Og'zaki so'rov, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish.

Mashg'ulotni borishi.

O'qituvchi tomonidan mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni etkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

Talabalarni o'quv mashg'ulotida faol ishtirok etishi uchun “Aqliy hujum” metodidan foydalaniladi.

Aqliy hujum savollari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. “Hunarmandchilik” deganda nimani tushunasiz?


2. Hunarmandchilikning qanday turlarini bilasiz?

3. O'zbekistonning qaysi hududlarida hunarmandchilik maktablari keng yo'lga qo'yilgan?

4. Qoraqalpog'istonda hunarmandchilikning qanday turlari mavjud?

O'qituvchi tomonidan berilgan savollarga talabalar tomonidan erkin javoblar berilishi ko'zda tutiladi. Talabalarning barcha fikrlari va javoblari e'tirozsiz qabul qilinadi.

O'qituvchi tomonidan mavzuga oid yangi ma'lumotga asoslangan axborot uzatiladi. Bunda "Klasster" yoki "Idrok haritasi" metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki bu metodlarning afzalligi talabalar uzatilayotgan axborotni grafik shaklda idrok etishi natijasida ularda yangi bilimlar o'zlashtiriladi (1-rasm. Xalq hunarmandchilining "Idrok xarita" metodida ifodalanishi).



O'qituvchi tomonidan talabalar mavzuni mustaqil o'zlashtishlari uchun ma'ruza matni taqdim etiladi.

Namuna sifatida Olingan bilimlarni mustahkamlash uchun nazorat-monitoring uchun ochiq va jumboqli testlardan foydalanish mumkin.

Masalan:

1. Muayyan tayyorgarlikni talab etadigan va tirikchilik manbai bo'lgan ijodiy mehnat faoliyati bu – _____.

a) hunar; b) ijod; d) ishlab chiqarish; e) tadbirkorlik. 2. Biror hunarni puxta egallagan shaxs bu – _____.


a) hunarli; b) hunarmand; d) usta; e) tadbirkor.

3. Biror hunar turi bilan shug'ullanuvchi usta bu – _____

a) hunarmand; b) hunarli; d) usta; e) tadbirkor.

Jumboqli testlar:

Erkaklar va ayollar uchun xos bo'lgan hunarmandchilik sohalarini tegishli bandlar bilan tutashtiring.



Mavzu: Ayollar kiyimlariga xarakteristika va asos chizmalarini konstruksiyalash.

Mashg'ulotning maqsadi: talabalar (qizlar guruhi)ga Ayollar kiyimlariga xarakteristika va asos chizmalarini konstruksiyalashga oid kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish.

Ma'ruza rejasi. 1. Ayollar kiyimlarining tavsifi.

2. Ayollar bluzkasini loyihalash.

3. Murakkab texnik modellashtirish.

Mashg'ulot shakli. Aralash.

Mashg'ulot ko'rinishi. Nazariy.

Mashg'ulot metodlari. Aqliy hujum, savol-javob, idrok xaritasi.

O'qitish shart-sharoiti. Texnik vositalar bilan ta'minlangan va guruhlarda ishlashga muljallangan auditoriya.

Yangi mavzuni mustahkamlash. Mavzuga oid savol-javoblar, nazariy topshiriqlar va boshqalar.


Monitoring va baholash. Og'zaki so'rov, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish.

Mashg'ulotni borishi.

O'qituvchi tomonidan mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni etkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

Talabalarni o'quv mashg'ulotida faol ishtirok etishi uchun "Idrok xaritasi" metodidan foydalaniladi.

Ayollar kiyimlarining tavsifi “Idrok xaritasi” metodida ifodalanish



Eslatma: Talabalar mavzuni mustaqil o'zlashtishlari uchun ma'ruza matni va texnologik xaritasi taqdim etiladi.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish. Mustaqil ta'lim shaxsning rivojlanishida asosiy omil bo'lib, uning kelgusi faoliyatida mustaqil ishlay olish xususiyatlarini tavsiflovchi bo'lib xizmat qiladi. Mustaqil ta'lim mazmuni mehnat xarakteriga bevosita emas, balki bilvosita ta'sir etib, mustaqil ta'lim uchun imkoniyat topa olishiga bog'liq bo'ladi. Mustaqil ta'lim talabaning kelgusi faoliyati davomida o'z yo'lini belgilashning vositasi bo'lib, talaba o'z imkoniyatlarini baholay olishiga sabab bo'ladi. Talaba mustaqil ishini tashkillashtirishni o'qitish paradigmalariga kiritishga sabab, talabani mustaqil faoliyat yuritishini tashkillashtirish bo'yicha yondashuvni o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, o'qituvchidan yangi rol va yangi vazifalarni talab etadi.

Hozirgi kunda talaba mustaqil ishi o'quv-mashq faoliyatining bir turi bo'lgan malaka bilimlari dasturini o'zlashtirish yotadi, ushbu dastur aniq bir tizimda amalga oshirilib, aniq natijaga erishish rejasini tuzish hamda uni baholashda o'qituvchi bilan sherikchilikda ish olib boriladi. Ushbu zamonaviy yondoshuv oliy maktab o'qituvchisidan talaba mustaqil ishini tashkillashtirishga munosabatini o'zgartirishni talab etadi.

«Mustaqil ta'lim» tushunchasi pedagogik lug'atlarda o'quv yurtidan tashqari, mustaqil o'rganish tufayli egallanadigan ta'lim turidir, deb ta'riflangan. Ayni vaqtda «mustaqil ta'lim olish», «o'zini tarbiyalash», «mustaqil o'qish» tushunchalaridan sinonimlar sifatida foydalanilmoqda.

Ilmiy tadqiqot natijalari asosida mustaqil ta'limga quyidagicha ta'rif berildi: ***mustaqil ta'lim*** – o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ishning ikkita umum qabul qilingan shakllari mavjud: auditoriya va auditoriyadan tashqari.

Auditoriya mustaqil ishi o'qituvchi nazorati ostida o'tkaziladi hamda vazifani bajarish mobaynida o'qituvchi maslahat olish imkoni bo'ladi. Auditoriyadan tashqari mustaqil ishi mustaqil ravishda talabaga qulay vaqtda ko'p holatlarda auditoriyadan tashqarida o'tkaziladi, agar, maxsus xona talab etiladigan bo'lsa, laboratoriya yoki ustaxonada o'tkaziladi.

Hozirgi kunda talaba mustaqil ishini tashkillashtirishda auditoriyadan tashqari mustaqil ishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Auditoriyadan tashqari mustaqil ishi (keyinchalik mustaqil ishi) – talabanning rejadagi o'quv, o'quv-tadqiqot, ilmiy-tadqiqot ishi bo'lib, o'qituvchi topshirig'i bilan auditoriyadan tashqarida, o'qituvchining metodik rahbarligi ostida, ammo o'qituvchining bevosita ishtirokisiz bajariladi.

Talabalarning mustaqil ishining asosiy belgilariga kiradi:

- bilim yoki amaliy vazifani, muammoviy savol yoki vaziyatni hamda ularni bajarish uchun alohida vaqt, xulosa bo'lishi;
- talaba u yoki bu faoliyatni to'g'ri va yuqori sifatli bajarishda aqlini namoyish etish;
- talaba oldiga qo'yilgan vazifani hal etish jarayonida mustaqil fikr yurita olishi va faolligini namoyish etish;
- muammomini qanchalik tushunib yetganligini aks ettiruvchi natijalarni bo'lishi;
- mustaqil ishi ko'nikmalarini egallaganligi.

Shunday qilib, mustaqil ish bir tomondan o'qituvchining bevosita ishtirokisiz bajariladigan o'qitishning shakli va o'quv mehnati turi deb qaralsa, boshqa tomondan – talabalarni mustaqil bilish jarayoniga jalb etish, uni tashkillashtirish usullarini shakllantirish vositasi sifatida qoraladi.

Mustaqil faoliyat tushunchasi ostida faoliyatning barcha struktura komponentlarini bajarishda mustaqillik darajasini belgilovchi bilish faoliyatining turi tushuniladi. Ya'ni, muammoni belgilash, nazorat, o'z-o'zini nazoratlash, qidiruv xarakteriga ega bo'lgan oddiy ish turlaridan murakkab ish turlariga dialektik o'tishni korreksiyalash hamda pedagogik boshqaruvning rahbar rolini

talabani o'ziga doimiy transformatsiya orqali mustaqil ish usullarini egallaganidan so'ng o'tkazish [G.M.Kodjaspirova, 1998].

Mustaqil faoliyatning asosiy belgisi talabani o'qituvchi yordamisiz ishlashi emas, balki talaba tomonidan bajarilgan barcha **harakatlar** talaba ***o'z oldiga qo'ygan maqsadga asoslangan*** holda bajarishi hisoblanadi.

Mustaqil ishning didaktik vazifalarini asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

- talabalarni o'quv dasturini egallashini qo'llab-quvvatlash;
- talabani o'z o'qishiga mas'uliyatini oshirish;
- informatsion kompetentlikni takomillashtirishga sharoit yaratish;
- mustaqil o'qish, o'quv-tadqiqot/tadqiqot, loyixaviy va ijodiy faoliyat sohasida kompetensiyalarni rivojlantirish;
- talabalarda tizimli fikrlashni shakllantirish.

Talaba mustaqil ishi tartib va tizimli tashkilotni, o'qituvchi va talaba sherikchilik asosida ishlashini talab etadi.

O'qituvchining asosiy vazifasi talaba o'quv faoliyatini hamda o'qitish muhitini konstruirlashdir. O'qituvchi va talaba faoliyati o'zaro bog'langan, tub ma'nosiga ko'ra esa o'qituvchi talaba faoliyatiga hamroh bo'lishi kerak.

Talaba mustaqil ishini tashkillashtirish texnologiyasi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Tayyorlov bosqichida o'qituvchi tomonidan quyidagilar bajariladi:

1 qadam. O'quv dasturiga yangi bo'limlarni kiritish orqali korrektsiyalash: mustaqil ish mavzulari, mustaqil ish nazorat qilish, mustaqil ish uchun topshiriqlar namunasi.

2 qadam. Asosiy maqsadga yo'naltirilgan o'quv ishlarini tanlab olish – talabada universal va malakaviy kompetensiyani rivojlantirish.

3 qadam. Mustaqil ish topshiriqlarini ishlab chiqish.

4 qadam. Talaba mustaqil ish bajarish davomida to'plashi zarur bo'lgan soatlar va ballar yig'indisini hisoblash.

5 qadam. Talaba tanlash imkoniyati bo'lishi uchun qo'shimcha shakl, usullar va o'qitish vositalarini keltirilgan texnologik xaritani ishlab chiqish.

6 qadam. Fan bo'yicha o'quv-uslubiy kompleksni ishlab chiqish hamda o'qitish muhitini loyihalashtirish.

Maqsadni aniqlash va rejalashtirish bosqichi talaba va o'qituvchi rejalarini o'zaro kelishuvini talab etadi. O'qituvchi talaba faoliyatini samarador bo'lishi uchun mavzu bo'yicha mustaqil ish texnologik xaritasini taklif etadi. Talaba o'quv ish turini tanlaydi, talablar bilan tanishadi.

Maslahat berish bosqichi talaba mustaqil ish bajarishidagi asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi. O'qituvchi maslahatchi, ekspert, tyutor va moderator vazifasini bajaradi. Aynan ushbu bosqichda talaba pedagogik tayanchni oladi. Maslahat albatta talabani talabiga asosan o'tkazilishi kerak: informatsion, texnologik, psixologik va h.k. ko'rinishda. Ko'p holatlarda o'qituvchi ekspertli yoki loyihalashtirish bo'yicha maslahat beradi. Ammo, har doim ham maslahat berish ijobiy natija bermaydi, ba'zida maxsus qaror va alohida vazifani talab etuvchi masalalar chiqib qoladi. Ba'zi talabalarga fasilitatsiya talab etiladi, bunday holatlarda o'qituvchi tyutorlik vazifasini bajarishi kerak bo'ladi. Ba'zi talabalar shaxsiy faoliyatini tashkillashtirish kompetensiyalariga hamda guruhda o'zaro faoliyat ko'rsatishga ega bo'lmaydilar, bunda o'qituvchi moderatorlik vazifasini bajaradi.

Nazorat-baholash bosqichi o'z ichiga faqatgina talabani baholash vazifasini olib qolmay, balki talaba o'z faoliyatini o'zi baholashi yoki talabalar o'zaro baholanishlarini ham oladi. Talaba faoliyatini baholashning bir necha shakllari mavjud: texnologik xaritaga asoslanib topshiriqlarni kompleks baholash, refleksiv kundalik tutish, loyiha va tadqiqot ishlari himoyasi, portfolio himoyasi va h.k.lar.

Nazorat-baholash bosqichi refleksivga mos keladi. O'qituvchi shuni yodda tutmog'i lozimki, talaba mustaqil ish bajarishida quyidagi qadamlarni bajarishi kerak.

1 qadam. Mustaqil ish maqsadini aniqlash.

2 qadam. Bilish vazifasini(muammoli yoki amaliy) konkretlash.

3 qadam. O'z oldiga qo'yilgan yoki tanlangan vazifaga asoslanib mustaqil ishga tayyorlanganligini o'zi tomonidan baholanishi.

4 qadam. Vazifani hal etishga olib keluvchi harakatlarning adekvat usulini tanlash (uni hal etuvchi yo'l va vositalarni tanlash).

5 qadam. Vazifani hal etish rejasini tuzish (mustaqil yoki o'qituvchi yordamida).

6 qadam. M/i bajarish dasturini amalga oshirish.

7 qadam. Olingan natijalarga baho berish orqali m/i bajarilishini talabani o'zi nazorat qilishi.

8 qadam. Shaxsiy o'quv faoliyatini refleksiya.

Har bir qadamda faoliyat refleksiya zarur.

Yakuniy bosqich analitik bo'lib, bunda talaba ham o'qituvchi ham faoliyatni tizimli refleksiya amalga oshiradi. Talaba quyidagi savollarga javob berish orqali refleksiya amalga oshiradi:

1. O'quv faoliyati davomida nima amalga oshirildi, nima yo'q. Amalga oshmasligi uchun nima to'siqlik qildi?

2. Universal va malakaviy kompetensiyalardan qaysi birini rivojlanishiga erishildi? Meni nokompetentligim nima bilan namoyon bo'ladi? Buni to'g'rilashning imkoni bormi?

3. Ushbu kursda o'quv va shaxsiy yutuqlardan qaysi biri hamroh bo'ldi?

4. O'z bilimimni oshirishda yana nimalar qilishim zarur? Shaxsiy va malakaviy faoliyatimni qanday oshirishim mumkin.

O'qituvchi olingan natijalarni tahlil etadi, xulosa beradi, topshiriqni hal etishdagi kamchiliklarni aytadi.

Nazorat savollari.

1. Sinf-dars tizimining muallifi kim?

2. Ta'lim-tarbiya ishining asosiy shakli nima deyiladi va nima uchun?

3. O'qituvchi ta'lim oluvchilarni o'zi bilan hamkorlikka jalb eta olishi uchun nima qilishi kerak?

4. O'qituvchi pedagogik qobiliyatini namoyon etmaydigan xususiyatlarni?

5. O'qituvchining asosiy pedagogik funksiyalari.

Adabiyotlar ro'yxati va internet ilovalari:

1. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
2. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
3. Ishmuhammedov R.J., M.Mirsolieva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.
4. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob/ Metodik qo'llanma. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog'omova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – 193 bet.
5. Sh. L. Mamasoliyeva. Xalq hunarmandchiligi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri. 2021.– 220 b.
6. Qodirova Ch. O'quvchilarga naqqoshlik kompozitsiyasi tuzish yo'llarini o'rgatish. BMI. Qarshi – 2015.

5-MAVZU. TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHISINING O'QUV TARBIYA JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHI

Reja:

1. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati va nazariy asoslari.
2. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining turlari.
3. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interaktiv metodlar

Tayanch tushunchalar: *Innovatsiya, ta'lim texnologiyalari, innovatsion ta'lim, interaktiv metodlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari.*

Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati va nazariy asoslari. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, uning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olishga bo'lgan talabini qondirish, ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishni ko'zda tutadi.

Lug'aviy jihatdan **“innovatsiya”** tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“innovatsion”) “yangilik kiritish” degan ma'noni anglatadi. “Innovatsiya” tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi.

Innovatsion ta'lim (ingl. “innovatsion” – yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g'oya, meyor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan

yaratilgan ilg'or g'oyalar, meyor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'limdir.

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar hisoblanadi.

Innovatsion ta'lim – muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni markazida talaba shaxsi bo'lib, o'qitishning zamonaviy shakli, faol o'qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta'lim-tarbiya ishidan ko'zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirishdir. Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi an'anaviy ta'lim texnologiyasidan farq qilib, talabalarning bilish imkoniyatlarini rivojlanishiga sharoit yaratadi, mustaqil ishlashlariga alohida e'tibor beriladi, bilish faoliyatlari izlanuvchan va ijodiy harakterga ega bo'ladi.

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyani qo'llash bilan bog'liq muammolarni yechish, an'anaviy o'qitish metodikasidagi ilg'or tajribalardan foydalangan holda respublikamiz ta'lim tizimiga mos bo'lgan yangi texnologiyalarni yaratish yo'nalishida izlanishlar olib borilmoqda.

Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o'quv mashg'ulotlarini multimedia texnologiyasini qo'llab loyihalarini tuzish maqsadga muvofiq bo'lib, bunda har bir o'qituvchi noan'anaviy o'qitish metodikasi va texnologik yondashuvlarga asoslanib ta'limni jarayonini loyihalash yordamida ilmiy metodik saviyasini oshirishi zarurligi kuzatildi.

Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida fanlarning o'quv mashg'ulotlarini modulli texnologiya asosida loyihalarini tuzib chiqishda albatta, ijodkor o'qituvchilarning o'rnini beqiyos. Modul tushunchasining nazariy tomonlari va uning dasturlashgan o'qitishning turlicha tabaqalashgan shakllarini birlashtirishini

hamdo'stlik mamlakatlarida D.U.Baysalov, L.P.Golomyokina, V.M.Gorev, G.V.Lavrentev, M.B.Lebedova, P.M.Erdniev ochib berishgan.

Respublikamizda ilk bora o'quv mashg'ulotlarning modulli loyihalarini tuzishning ilmiy-nazariy asosini, X.Karshiboev, M.Tojiev, D.M.Fayzullaeva, D.Yunusova kabi tadqiqotchilarning ishlarida ko'rish mumkin.

D.Yunusova doktorlik dissertatsiyasida modulga quyidagicha ta'rif beradi. Modul - xalqaro tushuncha bo'lib, o'zak, tugun ma'nolarida ishlatiladi va fanning bir yoki bir nechta fundamental tushunchalarini o'rganishga qaratilgan, ma'lum tamoyillar asosida ishlab chiqilgan o'quv materiallarining yakunlangan birligini bildiradi.

S.I.Ashurova fikriga ko'ra, modul – bu fanning bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lgan fundamental tushunchalarni o'rganishga yo'naltirilgan va didaktik tamoyillar asosida tuzilgan o'quv materiallari birligi bo'lib, unda fan bo'yicha o'quv dasturlari qisqartirilgan tarzda tabaqalashtiriladi. Natijada bosqichma-bosqich o'qitish imkoniyati yaratiladi. O'quv materialini yirik bloklarda yoki kichik modullarni birlashtirish, ya'ni yiriklashtirish g'oyasi asosida yaratilgan nazariya P.M.Erdniev tomonidan tadqiq etilgan.

Ch.Mirzaev fikricha, modul – ma'lum xodisa, qonun, bo'lim, yirik mavzu yoki o'zaro bog'liq tushunchalar guruxini o'z ichiga oladi yoki o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi bo'lib, o'quv fanining bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, modulni ba'zan bo'lim yoki blok deb ham tushunishadi.

T.G'afforova tomonidan modul ta'lim tuzilmasida quyidagi konstruktiv talab va qoidalarni ko'rsatib o'tiladi: modulli o'qish natijasida sifat tasniflariga (shaxsiy va bilish) kiritilgan yaxlit maqsad; ta'lim standartida berilgan predmet "O'quv elementlarida" maqsadning oydinlashishi; modulni o'rganish, texnologik usullar bo'yicha dastur va tavsiyalar; yakuniy nazorat topshirikdarida o'zlashtirish darajalari etalon va mezonlari bo'yicha maqsadlar oydinlashishi; o'z-o'zini va o'zaro nazoratni tashkil etish bo'yicha etalonlar.

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning jadal rivojlanishi

jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotining yangi istiqbollarini ochib berdi. Insoniyatning davlat va jamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar asosida tartibga solish borasidagi ilg'or yondashuvlarning qaror toptirilishiga, ya'ni modernizatsiyalashga olib keldi.

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining rivojlanib borishi, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida kadrlar tayyorlash sifatini yanada takomillashtirish; fan-texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlariga tayangan holda talabalarni kasb-hunarga o'rgatishda ularning izlanuvchanlik, ijodkorlik, fikrlash qobiliyatlarini yuksaltirish, nutq madaniyatini o'stirish; kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida axborot-kommunikatsion texnologiyalar xizmatidan maqsadli ravishda samarali foydalanish; ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb muammolardan biridir.

Zamonaviy ta'lim sharoitida bo'lajak mutaxassislarda kasbiy malakalarini shakllantirishda ularning mustaqil o'rganishi va muammoni hal etishda ijodiy yondashish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu xususiyatlar ta'lim oluvchilarning mustakil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va bilim olishlarini faoliyatini faollashtirish orqali shakllantiriladi.

Ta'lim oluvchilarning ongliligi va faolligini oshirish uchun o'qitish jarayoni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadigan bo'lsin.

Ta'lim oluvchi mustaqil va ijodiy faoliyati ob'ekt-jarayon va hodisalarni kuzatish, taqqoslash, bir-biridan farqli jihatlarini aniqlash, umumlashtirish kabi xususiyatlar orqali ko'zlangan maqsadiga erishishi mumkin. Demak fanlarni o'qitishda ham ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'rganish faoliyati o'z-o'zidan faollashmaydi, u eng avvalo aqliy va ongli munosabat natijasida yuzaga keladi.

Biz tomondan o'tkazilgan izlanishlar va olingan dastlabki natijalar tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ta'lim oluvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirish orqali

ularning bilim imkoniyatlari, ijodiy va mustaqil ishlash qobiliyatlarini hamda amaliy ko'nikmalarini o'rganish darajalarini rivojlantirishga erishish mumkinligi aniqlandi.

Ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtirishdan oldin ularning dastlabki bilim darajasi, o'zlashtirgan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishi ko'nikmalarni hamda mustaqil ishlash qobiliyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu xususiyatlarni har tomonlama tahlil qilmay turib, talabalarning faol faoliyat ko'rsatish darajasi haqida fikr yuritib bo'lmaydi.

Demak, ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish va o'quv amaliy faoliyatlarini faollashtirishga yo'naltirilgan faol ta'lim metodlarini o'rganish, ularning pedagogik texnologiyalar tizimida o'rni va rolini aniqlash va o'quv jarayonida qo'llash metodikalarini ishlab chiqish ham bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib turibdi.

Agar mashg'ulotlarda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanilsa, talabalar mashg'ulot davomida faol bo'ladilar, o'qituvchi esa, ularga hamkor bo'lib hisoblanadi. O'zaro fikr almashish paytida, talabalar ma'lum darajada o'qituvchi faoliyatining ayrim qismlarini ham bajaradilar, o'quv guruhi esa, hamjamiyatga aylanadi.

Ta'lim tizimida metod tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak uning ma'nosi-ko'zlangan o'quv maqsadiga erishish uchun avvaldan belgilangan eng aniq va qisqa yo'ldir. Tadqiqotlarda metod bir muammoni yechish, biror tajribadan natija olish, bir mavzuni o'rganish yoki o'rgatish kabi maqsadlarga erishish uchun bilib tanlangan yoki shunga qarab boriladigan yo'ldir deb ta'riflanadi.

Ta'lim metodi belgilangan o'quv maqsadiga kafolatli erishish uchun o'qituvchi va talabaning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishning tartibga solinishidir.

Faol ta'lim metodlarisiz qo'yilgan o'quv maqsadiga, erishishda bilim olish va o'rganish faoliyatini faollashtirishga, ta'lim natijalariga erishish qiyin. O'qituvchi tomonidan bunday faol metodlarni tadbiq etilishi talabalarni mehnat qilishga, diqqatini tortishga o'z ustida mustakil ishlashga, fikrlashga, izlanishga undaydi,

darslarga qiziqishi ortib, qatnashishi faollashadi.

Faol ta'lim metodlarining yuqorida ta'kidlangan ijobiy tomonlari bilan bir qatorda ayrim kamchiliklarni ham aytib o'tish joizdir. Bularga an'anaviy ta'lim metodlariga nisbatan vaqtning ko'p talab qilishi, auditoriyada shovqinning yuzaga kelishi, o'qituvchidan alohida tayyorgarlik talab qilishi kabilar kiradi.

Faol ta'lim metodlaridan o'rinli va maqsadli foydalanilganda pirovard natijata'lim samaradorligi an'anaviy ta'limdagiga nisbatan har doim yuqori bo'ladi. Eng asosiysi talabada mustaqil fikrlash, turli masalalarni va muammolarni mustaqil yechimini topish, o'z-o'zini nazorat qilish kabi malakalarni shakllanishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida ta'lim muassasasi bitiruvchilarining mustaqil hayotga qadam qo'yishlarida, mehnat bozorida o'z o'rinlarini topishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Faol metodlar yordamida talabalar o'z fikrlarini erkin ifodalash axborotlarini tanqidiy qabul qilish, jamoa faoliyatida faol ishtirok etish, o'z mavqeini mustahkamlash, fikrlarini himoya qilish, haq – huquqlarini anglab yetish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Ta'lim oluvchilarning mashg'ulotlarda mustaqil munozara va fikr yuritishga, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitishning faol metodlari va ularni tanlash imkoniyatlari bo'yicha bir qator nazariy va amaliy ahamiyatiga ega ishlar olib borilmoqda.

Faol metodlardan oqilona foydalanish ta'lim jarayoniga jo'shqinlik, izlanuvchanlik kayfiyatini baxsh etadi, talabalarda o'z imkoniyatlariga ishonch va o'z mehnati natijasidan mamnunlik hissini vujudga keltiradi, bilishga oid qiziqishlarni yanada orttiradi. Bular esa, ta'lim jarayonlarida talabalar shaxsi barkamollashuvining muhim omillari bo'lib hisoblanishi tabiiydir.

Ushbu fikrlar shundan dalolat beradiki ta'lim oluvchilarning bilim olish, mustaqil ishlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning ongli faolligi, mustaqilligi va ijodkorligini, o'quv bilish faoliyati natijasining sifatini xarakterlaydi.

O'qitishning noan'anaviy faol metodlari qo'llanilganda o'qituvchi (ishlab

chiqarish ta'limi ustasi) nafaqat mavzu mazmunini talabalarga tushuntirib beradi, balki ularning mustaqil ishlashlari uchun maxsus topshiriqlar tayyorlaydi, mustaqil ishlarni qanday bajarishlarini nazorat qiladi, mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarini baholaydi.

Fanlardan amaliy ko'nikmalarni faol metodlar asosida o'rgatish, asosan mehnatni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi, chunki bunday ta'lim qismlari kasbiy–mantiqiy emas, balki harakatlarga yo'nalgan tarzda kechadi. Ko'pincha o'z kasbini, sohasini a'lo darajada egallagan mutaxassislardan misol uchun biror ish tartibini tushuntirib berish so'ralsa, ular ko'pincha sergaklik bilan tushuntirishni boshlaydilar, ikkinchi darajali masalalarga to'xtalib, qisqa va lo'nda tushuntirib bera olmaydilar.

Demak bo'lajak mutaxassislarda kasbiy bilim, ko'nikma mahoratlarni shakllantirish bilan bir qatorda ularda axborotlardan mustaqil foydalanish va muammoni hal etishda ijodiy yondashish qobiliyatlari hamda tashkilotchilik ko'nikmalari shakllanishi ta'minlanishi kerak. Ushbu xususiyatlarini shakllantirishda ta'lim oluvchilarning mustakil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va bilim olish va o'rganish faoliyatini faollashtirish muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham ta'lim oluvchilarining ongli va izlanuvchan o'quv-bilish faoliyatlarini ta'minlovchi faol ta'lim metodlaridan keng foydalanish hozirgi davrning muammolaridan biridir.

Fikrimizning dalili sifatida muammoga shuni aytish mumkinki faol metodlarni qo'llashga oid ishlari ko'p bo'lsada, fanlarni faol metodlar asosida o'qitish metodikasini ishlab chiqish va amalda joriy etish bilan bog'liq ishlarning miqdori juda kam ekanligini ko'rsatish mumkin. Shuni ham unutmaslik zarurki, har qanday o'qituvchi o'z fani bo'yicha o'quv maqsadiga samarali erishishni o'qitish metodikasi orqali ta'minlashi mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion o'qitish texnologiyalarni qo'llash quyidagi didaktik maqsadlarni ko'zda tutadi:

- ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirish, uning Davlat ta'lim standarti bilan belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash samaradorligini oshirish;

- talabalarning kasbiy-pedagogik, metodik tayyorgarligini oshirish, ularni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash;

- talabalarning innovatsion texnologiyalarga asoslangan mashg'ulotlarda faol ishtirok etishini ta'minlash va ta'lim-tarbiya jarayoni sub'ektiga aylantirish orqali innovatsion texnologiyalardan foydalanish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallashiga zamin yaratish va xokazolar.

Yuqorida qayd etilgan didaktik maqsadlarni amalga oshirish oliy ta'limda talabalarni kasbiy tayyorlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish, mutaxassislik fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi.

Bu esa talabalarning kasbiy mahoratlarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanishni, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, ularni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashni ustuvor maqsad qilib belgilashni talab etadi.

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyani qo'llash bilan bog'liq muammolarni yechish, an'anaviy o'qitish metodikasidagi ilg'or tajribalardan foydalangan holda respublikamiz ta'lim tizimiga mos bo'lgan yangi texnologiyalarni yaratish yo'nalishida izlanishlar olib borilmoqda.

I.P. Podlasiyning fikriga ko'ra, ta'lim innovatsiyalari quyidagi o'zgarishlarga olib keladi:

1) Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u innovatsiya (yangilanish) deb yuritiladi.

2) Bordi-yu, faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi.

Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko'nikma,

malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi. O'z mohiyatiga ko'ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida kechadi. Pedagoglarda innovatsion yondashuvning qaror topishi ham murakkab jarayon bo'lib, u bir necha bosqichda kechadi.

Demak, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivojlanishi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi davlat va jamiyat malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ro'y beradi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim-tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirish kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi, o'qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida faol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sababalaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi – talablarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rganilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganishlariga, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Shuning uchun ta'lim muassasalarida zamonaviy o'qitish metodlari, faol usullar va interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir.

Faol metodlarni tanlash. Hozirgi pedagogik amaliyotida ta'lim metodlarning 200 dan ortiq turlari mavjudligi e'tirof etiladi.

Ushbu ta'lim metodlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishda turli yondashuvlar va metodikalar mavjud. Ammo bugungi zamonaviy ta'lim sharoitida talabalarni

ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan faol metodlarni qo'llashni talab etadi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, faol metod tanlash nafaqat ta'lim maqsadiga, balki o'quv material mazmuniga ham bog'liq bo'ladi.

Ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish va o'quv amaliy faoliyatlarini faollashtirishda ko'mak beruvchi ta'lim metodlarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Faol ta'lim metodlarni maqsadli yo'naltirilgan tanlash belgilangan o'quv maqsadga erishishni kafolatlaydi.

Har qanday ta'limning maqsadi – ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikmalari va malakalarini shakllantirishdan iboratdir. O'quv faoliyatida ta'lim maqsadning barcha jihatlari amalga oshar ekan, turli ta'lim metodlarni birgalikda qo'llash zarur. Shuning uchun, ta'lim metodini tanlashda eng asosiy omil bo'lib aniq o'quv mashg'ulotining didaktik vazifasi xizmat qiladi.

Faol metodini tanlashda uning samaradorlik darajasini e'tiborga olish ham ahamiyatga ega. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quv material og'zaki bayon etilganda talabalar ma'lumotning 5-10 % ni eslab qoladilar. O'quv adabiyotlaridan mustaqil o'qish ma'lumotning 10-15 % ni, ko'rgazmali materiallar esa ma'lumotlarning 20-25 % ni o'zlashtirishga imkon beradi.

Amaliy metodlar eng samarali metod hisoblanib, talabalar ongida ma'lumotning 75 % i saqlanib qoladi. Lekin, o'quv-materiallarini talabalar tomonidan mustaqil o'rganish, amaliy mashg'ulotlarini mustaqil bajarish metodlari undan ham samaraliroq hisoblanadi, bunda 90 % bilim o'zlashtiriladi va ko'nikma shakllanadi. Demak, talabalarni mustaqil o'rganish, izlanish, muammolarni mustaqil yechish, amaliy ta'sirlariga yo'naltirilgan faol metodlarni qo'llash yaxshi samara beradi.

O'qitish jarayonida guruhidagi talabalar soni muhim ahamiyatga ega. Agar guruhda talabalar ko'pchilik bo'lmasa, eng faol metoddan foydalanib, o'qitishni jadallashtirish mumkin. Agar talabalar ko'p bo'lsa, faol metodlardan foydalanish unga yaxshi natija bermaslik mumkin. Talabalarning har biri bilan ishlash uchun vaqt yetishmaydi.

Faol ta'lim metodlarini tanlashda ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish imkoniyatlarini, ya'ni ularning yoshi, tayyorgarlik darajasi, hamda, jamoadagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xosligini ham inobatga olish muhim. O'quv mashg'ulotiga tayyorgarlik vaqtida, ta'lim metodini tanlayotib, biz, albatta, talabalarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatini hisobga olishimiz lozim.

Fanga tegishli mavzularining o'qitish ketma-ketligi va davomiyligi faol metod tanlashga ta'sir ko'rsatadi. Faol metodlarning ba'zilar talabalarni faollashtirishga qancha ko'p vaqt talab qilsa, topshiriqlar yoki amaliy faoliyatlari bajarilishiga ham shuncha vaqt talab qiladi. O'quv mashg'ulotda vaqt shunchalik chegaralangan bo'lishi mumkinki, qo'llashda ko'p vaqt talab qiladigan faol metoddan foydalanishi imkonini bermaydi.

Ba'zi faol metodlarni qo'llashda alohida sharoitlar talab qilinmaydi, ammo maxsus o'quv-moddiy sharoitlar talab qiladigan faol metodlardan foydalanmoqchi bo'lsak, u holda didaktik ta'minotni amalga oshirishimiz kerak.

Ta'lim oluvchilarning soni. O'quv guruhidagi ta'lim oluvchilarning soni muhim ahamiyatga ega. Agar ular ko'pchilik bo'lmasa, eng faol metoddan foydalanib, o'qitishni jadal sura'tda olib borish mumkin. Agar talabalar ko'p bo'lsa, agar siz faol metodlardan o'zini oqlamagan darajada ko'p foydalansangiz, ularning har biriga yetarli e'tibor berish uchun vaqtingiz yetishi amri mahol. Katta guruhlar uchun o'quv materialini og'zaki bayon qilish metodlari (ma'ruza, hikoya, tushuntirish) ko'proq mos keladi.

Ta'lim oluvchilarning o'quv imkoniyatlari. O'qitish metodlarini tanlashda ta'lim oluvchilarning o'quv imkoniyatlarini hisobga olish juda muhim: yoshi, tayyorgarlik darajasi, hamda jamoadagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xosligini. Talabalarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyati va uni e'tiborga olish muhimdir.

O'quv mashg'ulotiga tayyorgarlik vaqtida, ta'lim metodini tanlayotib, biz albatta, talabalarning ish qobiliyatini hisobga olamiz. Talabalarning bir xaftalik ish qobiliyatini o'sish sur'atini aks ettiruvchi jadvalni keltiramiz.

Ta'limning davomiyligi. Dasturning yoki o'quv kursi mavzularining davomiyligi tabiiyki, metod tanlashga ta'sir ko'rsatadi. Ularning ba'zilar

talabalarni tayyorlashga qancha ko'p vaqt talab qilsa, bu faoliyatni bajarilishiga ham shuncha vaqt talab qiladi. Ta'lim muddati shunchalik chegaralangan bo'lishi mumkinki, ko'p vaqt talab qiladigan metodni siz o'ylaganchalik tez-tez ishlatish imkonini bermaydi, bu holda bu metodlarni faqat maqsadga muvofiqroq joylarda qo'llashingiz mumkin.

Vaqt – u yoki bu metodni amalga oshirishga ketgan mehnatingiz nuqtai nazaridan muhim omil hisoblanadi. Ba'zi metodlar sizdan boshqalariga nisbatan sizdan ko'proq tayyorgarlikni talab qiladi. Shuning uchun bunday metodlarni qo'llashni rejalashtirayotib, siz faoliyatni tashkil qilishning ushbu metodini amalga oshirishni tayyorlashga vaqt va kuch yetarlimi, deb o'zingizga savol berishingiz kerak.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining turlari. O'qitish jarayonida, pedagogik texnologiyalar talablari asosida ifoda etilgan, o'quv maqsadlariga erishiladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashgan davrda o'qitish samaradorligi, asosan, o'quvchining o'qitish jarayonidagi o'rni, pedagogning unga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi. Bu yerda o'qitish texnologiyasining ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin: avtoritar va shaxsga yo'naltirilgan.

Avtoritar texnologiyada, pedagog yagona sub'ekt sifatda namoyon bo'ladi, o'quvchilar esa faqatgina «ob'ekt» vazifasini bajaradi xolos. Bunda o'quvchining tashabbusi va mustaqilligi yo'qoladi, o'qitish majburiy tarzda amalga oshiriladi. Odatdagi an'anaviy o'qitish, avtoritar texnologiyaga taalluqlidir. Bunda, avvalo Ya.A.Komenskiy tomonidan ifoda etilgan, didaktika tamoyillariga asoslangan o'qitishning «sinf-dars» tizimida tashkil etish nazarda tutiladi. Hanuzgacha dunyoda eng ko'p tarqalgan o'qitishning «sinf-dars» tizimi hisoblanadi, u quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- Yoshi va tayyorgarlik darajasi taxminan bir xil bo'lgan o'quvchilar sinfni (guruhni) tashkil etadi;
- Sinf (guruh, oqim) yagona o'quv reja, yagona o'quv dasturlar va yagona mashg'ulotlar jadvali bilan shug'ullanadi;

– Mashg‘ulotlarning asosiy birligi dars bo‘lib, u bitta fanning bitta mavzusiga bag‘ishlanadi va o‘qituvchi tomonidan boshqariladi;

– O‘quv kitoblari asosan uy ishlari uchun qo‘llaniladi.

An‘anaviy o‘qitish asosan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, shaxsning rivojlanishini ko‘zda tutmaydi.

An‘anaviy o‘qitish asosini, Ya.A.Komenskiy tomonidan tuzilgan pedagogika tamoyillari tashkil etadi:

- ilmiylik;
- tabiatga monandlik (o‘qitish rivojlanish bilan belgilanadi va shakllanmaydi);
- uzviylik va tizimlilik;
- o‘zlashtiruvchanlik (ma‘lumdan noma‘lumga, soddadan murakkabga);
- mustahkamlash (takrorlash, takrorlash ...)
- onglilik va faollik;
- nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi;
- yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish.

An‘anaviy o‘qitish quyidagi xususiyatlarga ega: zo‘ravonlik pedagogikasi, o‘qitishning tushuntiruv-ko‘rgazmali usuli, ommaviy o‘qitish. An‘anaviy o‘qitishda avtoritarlik quyidagi shaklda namoyon bo‘ladi: o‘quvchi bu hali to‘la shakllanmagan shaxs, u faqat bajarishi zarur, pedagog esa - bu sardor hakam, yagona tashabbuskor shaxs.

Mumtoz an‘anaviy «sinf-dars» tizimi - bu bayon etishning ma‘ruzaviy usuli va kitob bilan mustaqil ishlashni o‘z ichiga oladi (didaxografiya).

Zamonaviy an‘anaviy o‘qitish esa, o‘qitishning texnik vositalarini qo‘llab, didaxografiyadan foydalanishdan iborat bo‘ladi. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarda, o‘quvchi shaxsi pedagogik jarayon markaziga qo‘yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida O‘zbekiston Respublikasidagi ta‘lim tizimining milliy modeliga alohida e‘tibor qaratilgan. Bu model 5 tarkibiy qismdan

iborat: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish. Bu yerda ta'lim milliy modelining asosiy tarkibiy qismi - «shaxs» birinchi o'rinda turadi. Boshqacha aytganda, butun ta'lim tizimi, shu jumladan, o'qitish shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Shuning uchun zamonaviy texnologiyalarda pedagogik jarayon, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalari asosida amalga oshirilishi lozim.

Hayot dialektikasi shundan iboratki, doimo yangi avlod, oldingi avloddan ko'ra rivojlanganroq bo'ladi. Ilmiy texnik taraqqiyotning keskin yuksalish davrigacha (XX asrning birinchi yarmigacha), fan, texnika va texnologiyalar rivoji evolyusion, past sur'atlarda amalga oshar edi.

Shuning uchun ketma-ket keluvchi avlodlarning rivojlanish darajasi deyarli farq qilmas edi. Bunday sharoitlarda Ya.A.Komenskiyning o'qitishning avtoritar texnologiyasi, an'anaviy «sinf-dars» tizimi dunyoga keldi.

Ilmiy texnik taraqqiyotning keskin yuksalish davrida (XX asrning ikkinchi yarmi), fan, texnika, texnologiyalar yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan davrda, bir avlod hayoti davomida fanning rivoji insoniyatning butun tarixidagidan ko'ra ko'proq bo'lgan bu davrda, o'qitishning an'anaviy tizimi (shu jumladan zamonaviy an'anaviy o'qitish) o'z umrini oxiriga yetdi. Hozirgi zamon avlodining rivojlanish sur'ati oldingilardan ko'ra ancha yuqori bo'lganligi sababli, o'qitishning an'anaviy tizimi, rivojlanishga to'sqinlik qila boshladi. Bunday sharoitlarda taraqqiyot, faqat har bir shaxsning mavjud imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish asosida amalga oshirilishi mumkin. Axborotning hajmi, xilma-xilligi, egallashga moyilligi va vositalarining yetarliligi samarali individual va mustaqil o'qitishni tashkil etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratadi. O'qitishni jadallashtirish maqsadida, pedagogning o'quvchiga bo'lgan munosabati «sardor»likdan, uning «sherigi»ga aylanishi zarur.

O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy tamoyillar xos bo'ladi:

• *insonparvarlik*, ya'ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko'rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo'rlashdan to'la voz kechish;

• *hamkorlik*, ya'ni pedagog va o'quvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;

• *erkin tarbiyalash*, ya'ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta'sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi - pedagogik jarayonda o'quvchiga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi.

Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo'ladi:

- pedagogik jarayonda shaxs ob'ekt emas, sub'ekt hisoblanadi;
- har bir o'quvchi qobiliyat egasi, ko'pchiligi esa iste'dod egasi hisoblanadi;
- yuqori etik qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustivor xislatlari hisoblanadi.

Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quvchi va pedagog huquqlarini tenglashtirish,
- o'quvchining erkin tanlab olish huquqi;
- xatoga yo'l qo'yish huquqi;
- o'z nuqtai nazariga ega bo'lish huquqi
- pedagog va o'quvchilar munosabati zayli: taqiqlamaslik; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish.

Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va g'ayri insoniy hisoblanadigan zo'ravonlik pedagogikasidan voz kechishdir. Muammo bu tamoyilni mutlaqlashtirishda emas, balki uning oqilona mezonlarini aniqlashdadir. Umuman olganda tarbiya jarayonida zo'ravonlik mumkin emas, ammo jazolash insonni kamsitadi, ezadi, rivojlanishini susaytiradi, unda qulchilik xususiyatlarini shakllantiradi.

Erkin o'qitish quyidagilar bilan belgilanadi:

- ishonchga asoslangan erkin talabchanlik;
- o‘quv materialiga qiziqish uyg‘otish, bilishga va faol ijodiy fikrlashga rag‘batlantirish;

- o‘quvchilarning mustaqilligi va tashabbusiga tayanish;
- jamoa orqali bilvosita usullar bilan talablarni amalga oshirishni ta‘minlash.

Yangi individual yondashuvning mohiyati shundaki, u ta‘lim tizimida o‘quv fanidan o‘quvchiga emas, o‘quvchidan o‘quv fani tomonga harakatlanishni taqozo etadi, o‘quvchilarning mavjud imkoniyatlarni inobatga olib, ularni rivojlantirish, takomillashtirish va boyitishga qaratilgan bo‘ladi.

Individual yondashuvning zamonaviy yangi talqini quyidagilardan iborat:

- o‘rtacha o‘quvchiga yo‘naltirishdan voz kechish;
- shaxsning yaxshi xislatlarini izlash;
- shaxs rivojlanishining individual dasturlarini tuzish.

Shaxsiy yondashishda birinchi navbatda quyidagilar zarur bo‘ladi:

- har bir o‘quvchi qiyofasida noyob shaxsni ko‘rish, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish. Pedagogda barcha o‘quvchilar iste‘dodli degan ishonch bo‘lishi kerak.

- shaxsga, yutuqni ma‘qullovchi, qo‘llab-quvvatlovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratish, ya‘ni o‘qish qoniqish va xursandchilikni olib kelishi kerak.

- bevosita majburlashga yo‘l qo‘ymaslik, qoloqlikka va boshqa kamchiliklarga urg‘u bermaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik.

- pedagogik jarayonda, o‘quvchilarga o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va ko‘maklashish.

Oliy, o‘rta maxsus va kasbiy ta‘lim tizimi uchun, o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ishbilarmonlik o‘yinlari;
- muammoli o‘qitish;
- tabaqalashtirilgan o‘qitish;
- dasturlashtirilgan o‘qitish;

- kompyuterlashtirilgan o‘qitish;
- modulli o‘qitish.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti jadallashtirilgan davrida rivojlangan davlatlarda shakllantirilganligini inobatga olgan holda ular chuqur ildizlarga ega ekanligini ta’kidlash to‘g‘ri bo‘lar edi.

Qadimiy faylasuf Sokrat o‘z chiqishlarida savol va javob usulini ishlatar edi. Bu usul haqiqatni bilib olish uchun yordam berar edi.

Qadimiy Rim pedagogi M.F.Kvantilian har bir shogirdga e’tibor va diqqat bilan yondashishni tavsiya bergan edi.

O‘rta asr Sharqining buyuk olim-mutafakkirlari tomonidan yirik pedagogik meros qoldirilgan. Asrlar, mingyillar davomida shaxsga muhabbat va hurmat, unga yordamlashish xislatlari asosida sivilizatsiya shakllanib keldi.

Millatimiz shakllanishi bilan birgalikda xalqimizning mentaliteti insonga muhabbat va hurmat ko‘rsatish, unga yordamlashish xislatlari asosida yuzaga chiqdi. Eng avvalo, yoshlarimizga nisbatan muhabbat yaqqol namoyon bo‘ladi. Xalqimiz bolalarga «siz» deb munosabat qilur, kattalar ularga birinchi bo‘lib «salom» berur.

Yaponiyaning zamonaviy pedagog-olimlari bolani kuniga 200 martagacha erkalatishni tavsiya beradilar. Bu zamonaviy g‘oyalarning debochasi, buyuk ajdodimiz Al-Buxoriyning «Hadis» kitobida «Bolaga rahmdillik qilmoq, uni o‘pib quchoqlamoq haqida» bobida yoritilgan. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarning o‘zagi shaxslar o‘rtasidagi yuqori qadriyatlarga, teng huquqlilikka asoslangan munosabat hisoblanadi. Bu qadriyatlar Al-Buxoriyning «Hadis» kitobida «Shirin so‘z odam haqida», «So‘kmoq va la’natlamoq ta’qiqlanganligi haqida» boblarida namoyon etilgan. Unda shaxsni so‘kish uni o‘ldirish bilan tenglashtirilgan.

Xulosa qilib ta’kidlash lozimki, ajoyib shaxsiy fazilatlarga asoslangan ta’limimiz, jahon fanning shakllanishiga va rivoji o‘zining munosib xissa qo‘shgani bilan ajralib turadi. Abu Ali ibn Sino, A.Beruniy, Al-Xorazmiy, M.Ulug‘bek, Al-Buxoriy, A.G‘ijduvoni, B.Naqshbandiy, A.Navoiy, Z.Bobir kabi

buyuk ajdodlarimizning ta'limoti, jahon sivilizatsiyasidagi bebaho ulushini bugungi kunda butun dunyo tan olmoqda.

Pedagogika fanining rivojlanishiga Yevropa buyuk pedagog-olimlari hissa qo'shgan, jumladan: italiyalik Vittarino di Feltre, fransuz Fransua Rable, ingliz Tomas More, nemis A.Distruverg, rus K.D.Ushinskiy va boshqalarni ta'kidlab o'tish mumkin.

Bular gumanistik tarbiyani, mustaqil fikrlashni rivojlanishini, ijodni, faolligini, ko'rgazma materiallarni keng foydalanishini, nazariy ta'limni mehnat bilan bog'lanish tarafdori edilar. Ular pedagogik jarayonda o'quvchilarni sub'ekt deb hisoblar edilar.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interaktiv metodlar. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik sohasidagi kreativlik ularning ijodiy faoliyatlari natijasi orqali baholanadi. Dizaynning faoliyat natijalari verballigi, moslashuvchan obrazli xarakterga egaligi va betakrorligida namoyon bo'ladi. Kasbiy-pedagogik faoliyati natijalarining moslashuvchanligi strategiyalar, g'oyalar, qarashlarning rang-barangligida namoyon bo'ladi. Bo'lajak pedagogning yo'nalishlar orasidagi mantiqiy aloqadorlikni anglashi muhim ahamiyatga ega. Pedagog faoliyatidagi betakrorlik yangi g'oyalarni ilgari sura olishida o'z ifodasini topadi.

Pedagogika entsiklopediyasida KREATIVLIK (ijodiylik) (lot. creation – yaratuvchanlik, ijodkorlik) – 1) qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g'oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon. 2) shaxsning yangi g'oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorligini tavsiflovchi ijodiy qobiliyati ekanligi ko'rsatilgan. 2 Bo'lajak o'qituvchining kasbiy xatti-harakati, faoliyatida kreativlik mavjudligini bir qator holatlar namoyon etadi. Bo'lajak pedagoglar muammolarni yangicha yondashuv asosida, nostandart shaklda yechishga harakat qiladilar. Kreativlik o'ziga xos qobiliyat tarzidagi ko'rinishlarga ham ega bo'ladilar. Kreativlik bir qator omillar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi yoki yashirin ko'rinish kasb etishi ham mumkin. Ta'lim oluvchilarda kreativlikning namoyon bo'lishida o'quv jarayoni, unda

qo‘llaniladigan metod va texnologiyalar muhim ahamiyatga ega.

Bo‘lajak pedgoglar turli yangi g‘oyalar va integratsiyalashgan bilimlarga asoslangan holda kasbiy faoliyat tajribasini egallashlari lozim. Professor-o‘qituvchilar muayyan ijodiy vaziyatlarni yaratish orqali bo‘lajak pedagoglarda kasbiy faoliyat ko‘nikmalarini hosil qiladilar. Bo‘lajak o‘qituvchilar an'anaviy tafakkur tarzidan voz kechib yangi g‘oyalarni ilgari surish layoqatini egallaydilar. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kerativlik imkoniyatiga egaliklari ularni bilish faolligiga undaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodkorlik sohasida katta tajriba to‘planishiga qaramasdan yangidan-yangi bilimlarni egallashga ehtiyoj sezadilar. Mazkur bilimlar bo‘lajak o‘qituvchilar ham amaliy ham muayyan natijalarga erishishlarini ta'minlaydi. Shuningdek pedagogning kreativligini baholovchi yagona metodikani ishlab chiqish ehtiyoji mavjud. Mazkur metodika bo‘lajak o‘qituvchilarning dizayn ijodkorligini baholash imkoniyatini berishi lozim. K.Rodjers ta'kidlashicha kreativlik tushunchasi doirasida muammo yechishning yangi usullarini hamda kreativlikni ifodalashning yangi yo‘llari tushuniladi. Shuningdek taniqli mutaxasis K.Teylor kreativlik muammosi bilan bog‘liq bo‘lgan to‘rtta muhim yo‘nalishni ajratgan. Ular: - kreativ jarayonni amalga oshiruvchi ijodkor shaxs; - ijodkorlikka nisbatan ehtiyojning shakllanishi; - kreativ jarayon; - kreativ faoliyat natijasi; Turli ilmiy manbalarni tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatdiki, ijodkor shaxs bir qator sifatlar va layoqatlarga ega bo‘ladi. Mazkur sifat va layoqatlar integrativ xarakterga ega. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodkorlikning rivojlanishi barobarida shaxsiy sifatleri ham takomillashadi. Bunday sifatlar ijodkor shaxsning haqiqatlarni bilishi uchun muhim hisoblanadi. Mazkur sifatlar talabalarning hamkorlikdagi faoliyati mahsuli hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchining kreativ kreativlik sifatleri quyidagilarda namoyon bo‘ladi: - turli g‘oyalarni ilgari surish; - nozik kechinmalar, tuyg‘ular va ranglarni his etish; - muammolarga nisbatan sezgirlik bilan yondashish; - atrof-muhitdagi voqelikni aniq baholash; - muayyan vaziyatlarda katta hajmdagi g‘oyalarni ilgari surish va ularni amalga oshirishga intilish; - qo‘shimcha g‘oyalar, tahminlarni taklif qilish; - o‘z qarashlarini yumor

hissi bilan boyitish va farazlarini bayon qilish; - kutilmagan, betakror, go‘zal hatti-harakatlarni namoyon etish; - dastlab yuzaga kelgan, ommaviy qabul qilingan fikrlarni bayon qilishdan saqlanish; - turli nostonlartg‘oyalarini mustaqil tarzda ilgari surish; - o‘z qarorlarining to‘g‘riligiga ishonch bildirish; - faoliyatida vujudga keladigan qiyinchiliklarga qaramasdan o‘z g‘oyalarini yuzaga chiqarish; - nostandart nuqtai nazarlar uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish; - muammoning yechimiga olshib keladigan fikrlarni qo‘llab-quvvatlash; - o‘z kuchiga ishonish va o‘z kuchiga tayangan holda harakatlarining to‘g‘riligiga ishonish; - harakatlarining aniqqligi va yetarliligini baholash kabilar.


Ijodiy aloqalar buzilgan vaziyatlarda bo‘lajak o‘qituvchi o‘z harakatlarini tuzatishga va kreativ yondashuvlardan foydalanishga muhtoj bo‘ladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar nostandart topshiriqlarni yechishga moyilliklarkrini ko‘rsata olishlari kerak. Bo‘lajak pedagoglar tabiiy harakatlarni amalga oshirishga intiladilar. Ular har doim yangi, betakror narsalarni yaratishga harakat qiladilar. Bunday harakatlar kreativ harakatlar sifatida baholanadi. 4 Shaxs tafakkkuridagi ijodiy jarayonlar kreatilikni ifodalovchi to‘rtta asosiy sifat ko‘rsatgichlari orqali namoyon bo‘ladi. Ular: - obrazli moslashuvchan moyillik. Bu o‘quvchi tomonidan idrok etilgan ob’ektning noma’lum tomonini ko‘ra olishni anglatadi. - tafakkurning betakrorligi. Bunda g‘oyalar va obrazlarning noodatiy, o‘ziga xosligi nazarda tutiladi. - tafakkurning moslashuvchanligi. Bu ob’ektni turli tomon va turli nuqtai nazardan ko‘ra olish, uning noma’lum jihatlarini kashf etishni anglatadi. - tafakkurning mustaqilligi. Bunda nostandart vaziyatlarda turli vaziyatlarni ilgari surish nazarda tutiladi.

Bo‘lajak pedagoglar turli ishlarni an’anaviy usullar yordamida milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda sifatli bajara olishi kerak. Shu bilan bir qatorda dizayner-pedagoglar mahoratli hunarmand sifatida o‘zlarining ijodiy mahsulotlarini yaratishlari muhim ahamiyatga ega. Bunda ular iste’molchilarning talablari, didilari, dunyoqarashlari, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ijod na’munalarini yaratishlari talab etiladi. Bo‘lajak pedagoglarni kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorlash ushbu jarayonda tizimli yondashuvni qo‘llashni taqozo etadi.

Bo'lajak pedagogning kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mazkur jarayonni tizimli tarzda tashkil etish zaruriyati kuchaymoqda. Chunki bo'lajak pedagoglar turli obrazlar va qabul qilingan, tasdiqlangan chizmalar asosida ishlaydilar. Shuning uchun ham har qanday vaziyatda ijodkorlikning yetishmasligi, bo'lajak pedagogning ijodiy-kasbiy faoliyat ko'nikmasiga ega bo'lishini ta'minlashda bo'shliqlar vujudga keladi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ta'lim muassasalarida pedagoglarni tayyorlash jarayoni to'laqonli tarzda tashkil etilib, turli vositalar va metodlarni qo'llash asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish nazarda tutiladi.

Interaktiv metodlarni quyidagicha tasniflash mumkin (9-rasm):

9-rasm. TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANILADIGAN INTERAKTIV METODLARINING TASNIFI



Nazorat savollari:

1. Innovatsion ta'lim qanday ta'lim sanaladi?
2. Ta'lim innovatsiyalari deganda nimani tushunasiz?
3. Ta'lim innovatsiyalarining qanay turlari mavjud?
4. Nimalar innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari sanaladi?
5. Novatsiya va innovatsiyaning asosiy farqlari nimalarda ko'rinadi?
6. Innovatsion jarayonlar qanday yondashuvlar asosida tashkil etiladi?
7. Innovatsion faoliyat nima va unga qanday belgilar xos?

Adabiyotlar ro'yxati va internet ilovalari:

1. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
2. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
3. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.
4. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob/ Metodik qo'llanma. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog'omova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – 193 bet.

II.BOB. BO'LAJAK TEXNOLIYA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJALNTIRISH METODIKASI

1-Amaliy mashg'ulot. Pedagogik jarayonda innovatsion ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llash shartlari.

Reja:

1. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi va pedagogik texnologiyalar mohiyatiga oid blis-so'rov.
2. Kichik guruhlar ta'lim tizimining modernizatsiyasining ahamiyatini yorituvchi "Ikki sahifali kundalik"ni shakllantirish.
3. Mavzuga oid keys topshiriqlarini bajarish.
4. Mavzuga oid arajali testlarni yechish.

Mashg'ulotning borishi

I. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi mohiyatiga oid blis-so'rov.

Topshiriq (blis-so'rov):

1. Modernizatsiya –
2. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi –
3. Ta'lim texnologiyasi –
4. Ta'lim metodi –
5. Pedagogik texnologiya –
6. "Ta'lim texnologiyasi" nazariyasining shakllanish birinchi bosqichi –
7. "Ta'lim texnologiyasi" nazariyasining shakllanish ikkinchi bosqichi –
8. "Ta'lim texnologiyasi" nazariyasining shakllanish uchinchi bosqichi –

II. Kichik guruhlar ta'lim tizimining modernizatsiyasining ahamiyatini yorituvchi "Ikki sahifali kundalik"ni shakllantirish.

Talabalar uchun quyidagi ish qog'ozi tavsiya etiladi:

1-sahifa

Modernizatsiya -
Ta'lim tizimining modernizatsiyasi –
Ta'lim tizimi modernizatsiyasining
maqsadi -

2-sahifa

Ta'lim tizimini modernizatsiyalash
vazifalari –


III. Mavzuga oid keys topshiriqlarini bajarish.

1. Keys bayoni. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish pedagogik faoliyatning muhim ko'rinishi bo'lib, u muayyan bosqichlarda amalga oshiriladi.


Keys topshirig'i: ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish yo'lida amalga oshiriladigan vazifalarni bosqichlar bo'yicha belgilang:

Bosqichlar	Vazifalar
1-bosqich	- talabalar faoliyatini nazorat qilish;
2-bosqich	- talabalar faoliyatini tashxislash;
3-bosqich	- loyihani yaratish;
4-bosqich	- pedagogik jarayonning samarali kechishini ta'minlash;
5-bosqich	- pedagogik jarayonni tashkil etish

Keys topshirig'ini bajarish uchun ish qog'ozi:




O'qituvchining yechimi:



2. Keys bayoni. Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi. Har bir turga oid ta'lim innovatsiyalari ham bir necha guruhlariga bo'linadi.

Keys topshirig'i: berilgan ta'lim innovatsiyalarini tegishli turlar

bo'yicha belgilang.



Ta'lim innovatsiyalari:

1. Pedagogik jarayonda qo'llaniladigan innovatsiyalar;
2. O'zlashtirilgan innovatsiyalar;
3. Modifikatsiyalangan innovatsiyalar;
4. Ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar;
5. Modul innovatsiyalari;
6. Radikal innovatsiyalar;
7. Jamoa tomonidan bevosita yaratilgan innovatsiyalar
8. Kombinatsiyalangan innovatsiyalar;
9. Tarmoq (lokal) innovatsiyalari;
10. Tizim innovatsiyalari.

IV. Mavzuga oid arajali testlarni yechish.

1. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, jamiyat va davlatning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olish bo'lgan talabini qondirish yo'lida uzluksiz ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishi – bu ...

- a) ta'lim tizimining rivojlanishi;
- b) ta'lim tizimining shakllantirilishi;
- c) ta'lim tizimining holati;
- d) ta'lim tizimining modernizatsiyasi.**

2. Lugʻaviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi qanday maʼnoni ifodalaydi?

a) oʻzgartirish kiritish;

b) qoʻshimcha kiritish;

c) yangilik kiritish;

d) taklif kiritish.

3. “Innovatsion taʼlim” tushunchasi dastlab qaerda asoslangan?

a) 1919 yilda Berlinda;

b) 1979 yilda Rimda;

c) 1920 yilda Vashingtonda;

d) 1995 yilda Moskvada.

4. Yangi gʻoyalar, tizim yoki faoliyat yoʻnalishini oʻzgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noanʼanaviy yondashuvlar, odatiy boʻlmagan tashabbuslar, ilgʻor ish uslublari. Ular ... koʻrinishlari.

a) texnologiyaning;

b) metodikaning;

c) innovatsiyaning;

d) loyihalashning.

5. Taʼlim (oʻqitish) jarayonining yuksak mahorat, sanʼat darajasida tashkil etilishi qanday nomlanadi?

a) taʼlim metodikasi;

b) taʼlim texnologiyasi;

c) taʼlim paradigmasi;

d) taʼlim metoologiyasi.

6. Taʼlim shakllarini takomillashtirish vazifasini koʻzlagan oʻqitish va boshqalarni oʻzlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etish va aniqlashning izchil metodi. “Pedagogik texnologiya” tushunchasining ushbu taʼrifi kim tomonidan berilgan?

a) U.Nishonaliev;

b) B.Farberman;

c) **YuNESKO**;

d) V.P.Bespalko.

7. Pedagogik texnologiya mezonlarini raqamlarini mos kataklarga qo'yib chiqing: 1) konseptuallik; 2) tizimlilik; 3) boshqaruvchanlik; 4) samaradorlik.

Ta'limiy texnologiya samarali natija va ta'lim maqsadlariga erishish kafolatini ta'minlaydi	Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilariga ega, ya'ni: yaxlitlik, tuzilmaviylik, barcha tashkil etuvchilarning o'zaro bo'liqligi va ularning bir-biriga bo'ysunishi, tizim va muhitning o'zaro bog'liqligi	Ta'lim texnologiyasi falsafiy, psixologik, didaktik va tahlimiy maqsadning ijtimoiy-pedagogik asoslangan aniq ilmiy g'oyalari asoslanadi	TT mohiyati – ishlarni aniq bajarilishida, ya'ni: butun tugallangan ta'lim jarayonini aniq pedagogik g'oya ostida dastlabki bashoratlash, loyihalashtirish va rejalashtirishda ko'rish mumkin

Javob:

4	2	1	3
---	---	---	---

8. Pedagoglarda innovatsion yondashuvning qaror topishi bosqichlarining mos raqamlarini yozing.

Bosqichlar	Raqamlar
Pedagog o'qitish va tarbiyalashga oid o'z konsepsiyasi yoki metodikasini yaratadi	
Yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtiradi	
Mavjud tizimga yangi g'oyalarni, metodlarni kiritadi	
Tayyor metodik tavsiyanoma (mavjud innovatsiya)lardan foydalaniladi	

Javob:

Bosqichlar	Raqamlar
Pedagog o'qitish va tarbiyalashga oid o'z konsepsiyasi yoki	4

metodikasini yaratadi	
Yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtiradi	3
Mavjud tizimga yangi g'oyalarni, metodlarni kiritadi	2
Tayyor metodik tavsiyanoma (mavjud innovatsiya)lardan foydalaniladi	1

9. Ta'lim innovatsiyalari turlariga mos keladigan innovatsiya turlarini yozing:

1) faoliyat yo'nalishiga ko'ra; 2) kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra; 3) o'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra; 4) kelib chiqish manbaiga ko'ra.

Jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar	Radikal, modifikatsiyalangan , kombinatsiyalangan innovatsiyalar	Pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar	Tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari
---	---	--	--

Javob:

4	2	1	3
---	---	---	---

10. Novatsiya va innovatsiyaga oid xususiyatlarga mos raqamlarni jadvalning o'ng tomoniga yozing: 1) amaldagi nazariya doirasida qo'llaniladi; 4) ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi; 7) metodlar yangilanadi; 9) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi; 2) tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi; 3) ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi; 5) subektlarning faoliyati to'la yangilanadi; 6) yangi texnologiyalar yaratiladi; 8) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi; 10) amaliyotning o'zi ham yangilanadi.

Mashg'ulotning yakunlanishi

Kichik guruhlar va har bir talabaning mashg'ulot jarayonidagi ishtiroki baholanadi. Ta'lim maqsadining natijalanganligi tahlil etiladi.

2-Amaliy mashg‘ulot. O‘qitish amaliyotida innovatsion ta’lim shakl, metod va vositalaridan foydalanish.


Reja:

1. “O‘qitish tizimida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni qo‘llanilishining ahamiyati” mavzusida “Qarorlar qabul qilish texnologiyasi” grafik organayzeri yordamida bahs-munozara tashkil etish.
2. Mavzuga oid keys topshiriqlarini bajarish.
3. Mavzuga oid darajali testlarni yechish.
4. Ta’lim jarayonida amaliy (didaktik) o‘yinlardan foydalanish borasida o‘zaro tajriba almashish.
5. O‘qitish tizimida interfaol metodlarni qo‘llash yuzasidan mahorat darslarini tashkil etish.

Mashg‘ulotning borishi

I. “O‘qitish tizimida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni qo‘llashning ahamiyati” mavzusida “Qarorlar qabul qilish texnologiyasi” grafik organayzeri yordamida bahs-munozara tashkil etish.

Talabalarga quyidagi ish qog‘ozi taqdim etiladi:



II. Mavzuga oid keys topshiriqlarini bajarish.

Keys bayoni. Ta’lim tizimida “novatsiya” va “innovatsiya” tushunchalari qo‘llaniladi. Har ikki tushuncha turli holatlarni ifodalaydi. Buning natijasida ular o‘rtasidagi farqlarni aniq ko‘rish mumkin bo‘ladi.

Asosiy farqlar	
Novatsiya	Innovatsiya

--	--

Keys topshirig'i: Novatsiya va innovatsiya o'rtasidagi farqlarni toping.

Keys topshirig'ini bajarish uchun ish qog'ozi:

O'qituvchining javobi:

Asosiy farqlar	
Novatsiya	Innovatsiya
1) amaldagi nazariya doirasida qo'llaniladi; 2) ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi; 3) metodlar yangilanadi; 4) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi	1) tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi; 2) amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi; 3) sub'ektlarning faoliyati to'la yangilanadi; 4) yangi texnologiyalar yaratiladi; 5) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi; 6) amaliyotning o'zi ham yangilanadi

4. Keys bayoni. O'yinlar pedagogik maqsadda ham qo'llaniladi va ular o'yin texnologiyalari deb nomlanadi. O'yin texnologiyalari ta'lim oluvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma'lum hayotiy voqelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko'nikma, malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Har qanday o'yinlar kabi pedagogik jarayonlarda foydalaniladigan o'yinlar ham o'zining aniq maqsadi va natijasiga ega bo'ladi. Mashhur pedagog G.K.Selevko pedagogik maqsadlarda qo'llanilayotgan o'yinlarni muayyan tartibda guruhlashtirgan.

Keys topshirig'i: quyidagi keltirilgan pedagogik o'yinlarni mashhur pedagog G.K.Selevko tomonidan tavsiya etilgan sxemada qayta ifodalang.

1. Produktiv, reproduktiv va ijodiy o'yinlar.
2. Jismoniy o'yinlar.
3. Intellektual o'yinlar.
4. O'rgatuvchi, mashqlantiruvchi, nazorat qiluvchi, umumlashtiruvchi o'yinlar.
5. Ishbilarmonlik o'yinlari.
6. Muloqotga asoslanuvchi, tashxislovchi, kasbga yo'naltiruvchi, psixologik-texnik o'yinlar.

7. Mehnat, texnik, ishlab chiqarishga doir o‘yinlar.
8. Kompyuter, televizion va texnik vositalarga asoslanuvchi o‘yinlar.
9. Stol o‘yinlari, xona o‘yinlari, ko‘cha o‘yinlari, joy bilan bog‘liq o‘yinlar.
10. Mehnat o‘yinlari.
11. Ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi o‘yinlar.
12. Didaktik o‘yinlar.
13. Jismoniy, sport, harbiy, sayyohlik, xalqona o‘yinlar.
14. Imitatsion o‘yinlar.
15. Rolli o‘yinlar.
16. Syujetli o‘yinlar.
17. Texnik va harakatni ta’minlovchi o‘yinlar.
18. Ijtimoiy, boshqaruv, iqtisodiy, tijorat xarakteridagi o‘yinlar.
19. Dramatik o‘yinlar.
20. Predmetli va predmetsiz o‘yinlar.
21. Musiqiy, teatr tomoshasi, badiiy o‘yinlar.
22. Matematik, biologik, kimyoviy, fizik va ekologik o‘yinlar.
23. Ijtimoiy o‘yinlar.
24. Psixologik o‘yinlar.

5. Keys bayoni. Zamonaviy Yevropada yagona kasbiy ta’lim makonini yaratish zamonaviy o‘qitishning eng muhim talabi deya e’tirof etildi. Ana shu maqsadda Bolonya jarayoni tashkil etili. Bu jarayon yagona Yevropa oliy ta’limi makonini yaratish maqsadida Yevropa mamlakatlari oliy ta’lim tizimining bir-biriga yaqinlashishi va o‘zaro uyg‘unlashuvini ta’minlovchi jarayon sanaladi. 1999 yilning 19 iyunida Yevropaning 29 mamlakati vakillari ishtirokida Bolonya deklaratsiyasi imzolandi. Unga ko‘ra keng ko‘lamda talabalar almashinuvini qo‘llab-quvvatlash uchun Yevropa sinov birliklari (kredit) tizimi (ESBT) joriy etildi.

“Kredit” atamasi (ESTS-credit) – “sinovdan o‘tdi” ma’nosini anglatib, talabanning o‘quv yurtida ma’lum bir kurs (modul)ni muvaffaqiyatli yakunlaganligi to‘g‘risida ma’lumot beradi.

Keys savoli: kredit (sinov birligi) nima anglatadi: ma’lum o‘quv fani

(moduli)ni o'zlashtirish va sinovlarni birinchi, ikkinchi yoki uchinchi urinishda topshirish mumkinliginimi yoki ma'lum o'quv fanini talabaga yuklatiladigan yuklanma hajmi (mehnat sarfi)dan kelib chiqqan holda modul (blok – qism) holda o'zlashtirish va har bir modul (qism) o'zlashtirilgandan so'ng sinovdan o'tish zarurliginimi?

O'qituvchining javobi. Kredit ma'lum o'quv fani (moduli)ni o'zlashtirish va sinovlarni birinchi, ikkinchi yoki uchinchi urinishda topshirishni anglatmaydi. Aksincha, kredit har bir o'quv fanining umumiy hajmi, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soatlar (nazariy mashg'ulotlarga nisbatan amaliy mashg'ulot va mustaqil ta'lim soatlarining ko'pligi), bir so'z bilan aytganda, talabaning mehnat sarfidan kelib chiqib ajratiladi. Kredit – o'quv fanini o'zlashtirish va sinovlarni topshirish uchun birinchi, ikkinchi yoki uchinchi urinish emas. Balki bir o'quv fani uchun ajratilgan umumiy soatni bir necha modul (blok – qism)ga ajratgan holda o'zlashtirish va sinov topshirib borish deganidir.

6. Keys bayoni. Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimida vebinar texnologiyalar tobora keng qo'llanilmoqda. **“Vebinar texnologiyalar” tushunchasi** ingliz tilidan tarjima qilinganda (“webinar” – web-based seminar) web-texnologiyalari va an'anaviy ta'limning o'zaro birligi asosida tashkil etiladigan seminarni anglatadi. Biroq, keng ma'noda web-texnologiyalari yordamida tashkil etiladigan nafaqat seminarni, balki turli onlayn tadbirlar (seminar, konferensiya, bahs-munozara, uchrashuv, taqdimot, ayrim holatlarda trening, turli hodisalar bo'yicha tarmoq translyatsiyalari (kompyuter yoki Internet tarmog'ida namoyish etiladigan lavhalar)ni yoritishga ham xizmat qiladi.


Ushbu texnologiyalarni o'zlashtirish orqali pedagoglar interfaol o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Talabalar uchun esa bu texnologiyalar vaqtni va boshqa resurslarni tejash imkoniyatini yaratadi. Chunki ushbu interfaol ta'lim jarayoni bilan qulay vaqt va qulay joyda tanishish imkoniyati mavjud. Bu esa pedagoglardan vebinar texnologiyalar asosidagi mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun muayyan ko'nikmalarga ega bo'lish, bir qator shart va qoidalarga rioya etish talab qilinadi.

Keys savoli: ko'pchilikning fikricha vebinar darslarning sifati web-texnologiyalarining ta'minotiga bog'liq. Bu fikr qanchalik to'g'ri.

O'qituvchining javobi: vebinar darslarning sifati web-texnologiyalarining ta'minoti ham muhim ahamiyatga ega. Biroq, boshqa turdagi darslar kabi vebinar darslarning sifat hamda samaradorligi ularning metodik jihatdan tashkil etilishiga bog'liq. Tashkiliy-texnologik masalalar, ya'ni vebinar darsining Internet tarmog'igi orqali talaba, talabalarga uzatib berilishining hal qilinishigina vebinar darslarning sifati web-texnologiyalarining ta'minoti bilan bog'liq. Bordi-yu, vebinar darslarining translyatsiyasi juda sifatli bo'lgani holda kutilgan ta'limiy natija qo'lga kiritilmasa, u holda o'quv mashg'uloti pedagog tomonidan samarali, sifatli tashkil etilmagan bo'ladi.

7. Keys bayoni. Innovatsion jarayonlarni boshqarish o'z mazmuniga ega. Tadqiqotchilar innovatsion jarayonlarni xarakterlovchi bir qator modellarni yaratishgan. Har bir modelda innovatsion jarayoning u yoki bu jihatlari aks etadi.

Keys topshirig'i. K.M.Ushakov g'oyasiga ko'ra innovatsion jarayonlarni boshqarishga doir modellarni o'rganing va har biriga tavsifnoma (xarakteristika) yozing:



O'qituvchining yechimi:

- 1. Inkori etish** – har qanday yangilikning rad etilishi, qabul qilinmasligi.
- 2. Qarshilik** – yangiliklarning qabul qilinishiga nisbatan salbiy munosabatning mavjudligi, yangiliklarning qabul qilinishini xohlamaslik.
- 3. Tadqiqot etish** – yangiliklarning amaliy ahamiyatga egaligini amaliy izlanishlar asosida o'rganish.

4. Ommalashtirish – amaliy ahamiyati isbotlangan yangiliklarning amaliyotga keng tatbiq etilishi.

5. An'anaviylashtirish – amaliy ahamiyati isbotlangan yangiliklarni amaliyotda izchil qo'llanilishiga erishish.

III. Mavzuga oid darajali testlarni yechish.

1. Ta'lim innovatsiyalari necha turga bo'linadi?

a) 2 turga;

b) 4 turga;

c) 6 turga;

d) 8 turga.

2. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra ta'lim innovatsiyalari qanday turlarga bo'linadi?

a) tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari;

b) radikal, modifikatsiyalangan va kombinatsiyalangan innovatsiyalar;

c) jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar;

d) pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

3. Faoliyat yo'nalishiga ko'ra ta'lim innovatsiyalari qanday turlarga bo'linadi?

a) tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari;

b) radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar;

c) jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar;

d) pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

4. Ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar ... deb nomlanadi?

a) ta'lim vositalari;

b) ta'lim texnologiyalari;

c) ta'lim metodlari;

d) ta'lim innovatsiyalari.

5. ... muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat.

a) innovatsiya;

b) novatsiya;

c) gravitatsiya;

d) gradatsiya.

6. Yangi g'oyalar, tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan'anaviy yondashuvlar, odatiy bo'lmagan tashabbuslar, ilg'or

ish uslublari. Ular ... ko‘rinishlari.

- a) texnologiyaning;
- b) metodikaning;
- c) innovatsiyaning;**
- d) loyihalashning.

7. O‘zgarishlarning ko‘lamiga ko‘ra ta’lim innovatsiyalari ... kabi turlarga bo‘linadi?

- a) tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari;**
- b) radikal, modifikatsiyalangan va kombinatsiyalangan innovatsiyalar;
- c) jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o‘zlashtirilgan innovatsiyalar;
- d) pedagogik jarayonda yoki ta’lim tizimini boshqarishda qo‘llaniladigan innovatsiyalar.

8. Faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lmay, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat qilsa ... deb yuritiladi?

- a) novatsiya;**
- b) evrika;
- c) innovatsiya;
- d) intuitsiya.

22. **Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida _____, _____, _____, _____, _____ va _____ kompetentlik ko‘zga tashlanadi:

- 1) psixologik kompetentlik;
- 2) ijtimoiy kompetentlik;
- 3) metodik kompetentlik;
- 4) shaxsiy kompetentlik;
- 5) texnologik kompetentlik;
- 6) informatsion kompetentlik;
- 7) kreativ kompetentlik;
- 8) innovatsion kompetentlik;
- 9) ekstremal kompetentlik;
- 10) kommunikativ kompetentlik.

23. Ushbu ta’rif qaysi tushunchaning mohiyatini yoritadi?

Pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va sub’ektiv

jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligi _____ deb ataladi.

Javob. Pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va sub'ektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligi **pedagogik mahorat** deb ataladi.

24. Ta'riflar mohiyatini ifodalovchi tushunchalarni toping.

A. Ijodiy ishlar, loyihalar, tadqiqot ishlarini qaysi portfolio o'zida aks ettiradi –

V. Talabalar yoki pedagoglar tomonidan jamlangan eng yaxshi ishlarni o'zida aks ettiradigan portfolio –

Javob:

A. Ijodiy ishlar, loyihalar, tadqiqot ishlarini qaysi portfolio o'zida aks ettiradi – **ishlar portfoliosi**.

V. Talabalar yoki pedagoglar tomonidan jamlangan eng yaxshi ishlarni o'zida aks ettiradigan portfolio – **natijalar portfoliosi**.

IV. Ta'lim jarayonida amaliy (didaktik) o'yinlardan foydalanish borasida o'zaro tajriba almashish.

Talabalar quyidagi savollar asosida ta'lim jarayonida o'zlari tomonidan qo'llanilayotgan amaliy (didaktik) o'yinlar va ulardan samarali foydalanishga oid tajribalarini o'zaro o'rtoqlashadi:

1. Sizningcha, mashg'ulotlarda foydalanilayotgan didaktik o'yinlar talabalarni qanchalik darajada faollashtiradi?

2. Shaxsan Siz ta'lim jarayonida qanday didaktik o'yinlardan foydalanasiz?

3. Talabalarning faolliklarini oshirish uchun mashg'ulotlar jarayonida amaliy (didaktik) o'yinlardan samarali foydalanish uchun aynan nimalarga e'tibor qaratish zarur deb hisoblaysiz?

V. O'qitish tizimida interfaol metodlarni qo'llash yuzasidan mahorat

darslarini tashkil etish.

Talabalar kichik guruhlarga birlashgan holda o'zlari tomonidan ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llashga doir mahorat darslarini tashkil etadi.

Mahorat darslarini tashkil etish quyidagi texnologiyaga asoslanadi:

1. Mahorat darsini tashkil etish mavzusi, maqsadi va vazifalarini belgilash.
2. Mahorat darsining texnologik loyihasini ishlab chiqish.
3. Mahorat darslarini tashkil etish.
4. Mahorat darsini tashkil etgan pedagog bilan interfaol muloqotni tashkil etish.
5. Mahorat darsini yakunlash.

Mashg'ulotning yakuni

Talabalarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg'ulot yakunlanadi.

3-4- Amaliy mashg'ulot. Pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish.

Reja:

1. Pedagogik deontologiya – pedagogning odab ahloqi fani: mazmuni, mohiyati, ahamiyati. Pedagog obro'si va uni faoliyatda namoyon bulishi. Pedagog nafasati va odobini shakllantirish, rivojlantirish yo'llari xamda unga erishish shart-sharoitlari.

2. Talabalarning o'quv-bilish faoliyati faolligini oshirish va mustaqil ta'limini tashkil etish.

3. Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik troektoriyalarini ishlab chiqish.

Ishdan maqsad: Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatiga olingan nazariy bilimlarini mustahkamlash.

Amaliy mashg'ulotning borishi:

Talabalarga kasbiy -pedagogik jarayonda duch kelishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlar (hayotiy yoki syujetli) taqdim etiladi.

1-topshiriq. Quyida keltirilgan diqqatning har bir sifati uchun uning namoyon bo'lishini tasvirlashga doir ta'lim muassasasi hayotidan aniq misollar va dalillarni izlab toping.

Tushunchalarni ta'riflang

Kasbiy tajriba	Kasbiy mahorat	Kasbiy kompetentlik

2-topshiriq. Pedagogik mahorat va pedagogik kompetentlikka xos sifatlarini belgilang

Pedagogik mahorat sifatleri	Pedagogik kompetentlik sifatleri
1.	1.
2.	2.
3.	3.
4...	...

3-topshiriq. “O‘zini-o‘zi baholash modeli” asosida pedagogik kompetentlik sifatlariga egaligingizni asoslang

№	Mavjud yutuqlar	O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		
6.		
7.		
...		

4-topshiriq. Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik troektoriyalarini ishlab chiqish

Bilim, malaka va shaxsiy sifatlar	Mavjud darajani belgilovchi baho ko‘rsatkichlari
Pedagogik bilimlar	
Psixologik bilimlar	
Mutaxassislik bilimlari	
Didaktik malakalar:	

bilishga oid (gnostik) loyihalash ijodiy-amaliy (konstruktiv) tadqiqotchilik muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) tashkilotchilik izchillikni ta'minlovchi (protssessual) texnik-texnologik malakalar	
Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari: bilishga oid (gnostik) loyihalash malakalari ijodiy-amaliy (konstruktiv) tadqiqotchilik muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) tashkilotchilik izchillikni ta'minlovchi (protssessual) texnik-texnologik malakalar	
Ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar: pedagogik fikrlash tizimlilik moslashuvchanlik mobillik ijodkorlik hozirjavoblik hissiy rivojlanganlik pedagogik refleksiya	
O'z-o'zini rivojlantirish maqsadlari	
O'z-o'zini rivojlantirish uchun topshiriqlar	

5-topshiriq. Pedagogik deontologiyani "Sinkveyn" strategiyasi yordamida yoritilgan mohiyati

1-qator. Deontologiya (1ta ot)

2-qator. pedagogning odab ahloqi fani (2 ta sifat)

3-qator. Pedagog nafosati va odobini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishga yordam beradi (3 ta fe'l)

4-qator. Deontologiya kasbiy odobni o'rganadi (4 ta so'z)

5-qator. Deontologiya pedagogikaning alohida tarmog'i hisoblanib, fan sifatida paydo bo'lgan.

(1 ta gap)

6-topshiriq. “Kasbiy rivojlanish shkalasi” asosida talabalarining pedagogik kompetentligi darajasini baholash

№	Kasbiy kompetentlik sifatlari	Shkala koʻrsatkichlari									
		10	9	8	7	6	5	4	3	2	1
1. Ijtimoiy kompetentlik											
1)	ijtimoiy tashkilotlar va subʼektlar bilan oʻzaro munosabatda boʻla olish koʻnikma, malakalariga egalik										
2)	kasbiy muloqot va xatti-harakat uslublarini oʻzlashtira olganlik										
2. Shaxsiy kompetentlik											
1)	doimiy ravishda kasbiy oʻsishga erishish va kasbiy malakani oshirib borish										
2)	kasbiy faoliyatda oʻz ichki imkoniyatlarini roʻyobga chiqara olish										
3. Maxsus kompetentlik											
1)	mustaqil ravishda kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish										
2)	odatiy kasbiy-pedagogik vazifalarni toʻgʻri hal qilish va oʻz mehnatining natijalarini real baholash malakasiga egalik										
3)	mutaxassisligi boʻyicha yangi bilim va koʻnikmalarni mustaqil ravishda izchil oʻzlashtirib borish qobiliyatiga egalik										
4. Texnologik kompetentlik											
1)	kasbiy-pedagogik bilim, koʻnikma va malakalarni boyitadigan ilgʻor texnologiyalarni oʻzlashtirish qobiliyatiga egalik										
2)	zamonaviy didaktik vositalar (texnik vositalar, oʻquv qurollari)dan foydalanish malakasiga egalik										
5. Ekstremal kompetentlik											
1)	favqulotda holatlarda (tabiiy ofatlar sodir boʻlganda, texnologik jarayon ishdan										

	chiqqanda) oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik										
2)	muammoli vaziyatlarda (pedagogik ziddiyatlar yuzaga kelganda) oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik										

Kasbiy-pedagogik fantaziyani faollashtirishga doir topshiriqlar

6-topshiriq. “Istiqboldagi ta’lim muassasasi” qanday bo‘lishi haqida o‘ylang va uni yozma bayon eting. Mazkur ta’lim muassasasi o‘qituvchilari va talabalarini siz qanday tasavvur etasiz? Uning o‘ziga xosliklari va farqli jihatlarini ajrating.

8- topshiriq. Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o‘zingizning fikr – mulohazalaringizni bildirib, “Mustaqil ish” yozing:

“Pedagogik ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish”. “Dars jarayonida o‘qituvchining kompyuter texnologiyalaridan foydalanishi”.

9- topshiriq. Pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablar va ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilang

Pedagogik nizo ko‘rinishlari	Sabablari	Bartaraf etish yo‘llari
1.	1.	1.
2.	2.	2.
3.	3.	3.
4....	4....	4....

10- topshiriq. Sizningcha “Zamonaviy pedagog imidji” qanday bo‘lishi kerak?

Imidjni belgilovchi asosiy holatlar	Zamonaviy pedagogning imidji
1. Kiyinishi	
2. Soch turmagi	
3. Yuz pardozi	

4. Bezaklardan foydalanishi	
-----------------------------	--

Mashg‘ulotning yakuni

Talabalarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg‘ulot yakunlanadi.

5- Amaliy mashg‘ulot. Pedagogik mahoratni rivojlantirish

Reja:

1. Pedagog faoliyatida uchraydigan to‘siqlar va ularni yechish yo‘llari. Yosh pedagoglar faoliyatida odatda yul qo‘yiladigan xatolar va ularni yengish yo‘llari.

2. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlarning xilma-xilligi va o‘ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritilishi, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan birgalikda aniqlanishi.

3. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda uchraydigan to‘siqlarni yechishda, to‘g‘ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasi. Kichik guruhlarda tarqatma materiallar bilan ishlash. Guruhlar taqdimoti.

Ishdan maqsad: Talabalarni kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llariga olingan nazariy bilimlarini mustahkamlash.

Amaliy mashg‘ulotning borishi:

Talabalarga kasbiy -pedagogik jarayonda duch kelishi mumkin bo‘lgan muammoli vaziyatlar (hayotiy yoki syujetli) taqdim etiladi.

1-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Qaysi biri qiyin – mashg‘ulotning boshlanishimi yoki yakuni?
a) o‘qituvchi uchun; b) talabalar uchun.
2. Mashg‘ulot jarayonida pauza davomiy bo‘lishi mumkinmi?
3. Ishlash uchun nima samarali: o‘qituvchi butun guruhga savol bilan murojaat qilishimi yoki alohida o‘quvchiga?

4. Mashg'ulotni qanday tashkil etish ma'qul: talabalarni fikriy faoliyatini bitta tor doiradagi savolni muhokama qilishga qaratishmi yoki ularni xilma-xil faoliyat turlariga jalb etishmi?

5. Agar talabalar o'quv materialini birinchi martaning o'zida anglab va



tushunib olishgan bo'lsa, uni bir necha marotaba o'qib chiqishga yo'naltirish kerakmi?

2-topshiriq. O'qituvchi diqqatining yo'nalganligini aniqlang:

- yangi materialni tushuntirish jarayonida;

- bilimlarni tekshirish jarayonida;

- talabalarning mustaqil va nazorat ishlarini bajarishlari jarayonida;

- yaxlit tarzda mashg'ulotni o'tkazish jarayonida.

Talabalar faoliyatidagi qanday tashqi belgilar o'qituvchiga mashg'ulotning har bir bosqichida pedagogik xulosalar chiqarishga yordam beradi.

3-topshiriq. Quyida keltirilgan vaziyatlar bilan tanishing va berilgan vaziyatga mos mimik, pantomimik ko'rinishni ifoda etib bering.

1-vaziyat. O'qituvchining xonaga kirib kelishi. Salomlashish. O'zini tanishtirish va guruh bilan tanishuv.

2-vaziyat. O'qituvchining auditoriyaga kirishi. Salomlashish. Tasodifan eshik taqillashi. Harakatlaning va munosabat bildiring.

3-vaziyat. O'qituvchining auditoriyaga kirib kelishi. Salomlashish. Quyidagi tarzda hikoyani boshlash: "Talabalar men sizlarga quyidagi haqida aytmoqchiman...". Hikoyani davom ettirish (fan bilan bog'liq yoki qiziqarli biror voqeaga taalluqli). Hikoya qiluvchining vazifasi – talabalarning diqqatini voqeaga jamlash, auditoriya bilan kontaktga kirishish, o'zining tashqi ko'rinishi haqida o'ylash.

4-topshiriq. Umumiy mimik reaksiyani aniqlashga doir topshiriq.

Dars boshlandi. Siz o'qituvchi stolini oldidasiz. Eshik ochildi. Kirib kelgan talabaga qarang:

Talabchanlikka doir: "Kiring, tezroq o'tiring".

Hayratlanishga doir: “Men sizdan buni kutmagan edim”.



So‘roq ohangida: “Tushunmadim, nimadir sodir bo‘ldimi?”

Norozi ohangda: “Ruxsat, sizga! Darsga xalaqit qilmang?”

Xursand ohangda: “Va nihoyat keldizmi?”

3-topshiriq. Individual reaksiyani aks ettirishga doir topshiriq.

Siz doskaga yozyapsiz. Talabalar siz bilan birga daftarlariga yozib borishlari kerak. “To‘satdan” qanaqadir shovqin eshitildi, orqaga qaradingiz, quyidagilarni ifoda eting:

Hayrat bilan: “Tushunmadim, nimadir bo‘ldimi?”

Mulohaza bilan: “Kim, shu shovqin qilayotgan? Haliyam yozishni boshlamadizmi?”

Talabchanlik bilan: “Shovqin qilmang, tinch o‘tirib yozing”.

Zarda ohangida: “Jim, yozayotgan vaqtda shovqin qilmaslik kerak”.

Qayg‘urish ohangida: “Men tushunmayman, yozayotganda vaqtda ham shovqin qilish mumkin-mi?!”

5-topshiriq. Ovoz buzilishlarining 4ta sababini izohlang.



1. Har kungi ovoz **zo‘riqishi**

2. Ovoz apparatining **zaifligi**

3. **Gigiena** qoidalarini bilmaslik

4. Ovoz apparatining **tug‘ma zaifligi**.

Talaba (o‘qituvchi)larning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid pedagogik muammoli vaziyatli topshiriqlar!

1-kichik guruh uchun topshiriq.

1-vaziyat. Siz dars mashg‘ulotini boshladingiz.

Talabalar tinchlikni saqlagan holda Sizni tinglayapti.

To‘satdan kimdir ovoz chiqarib kulib yubordi. Siz hech narsa deyishga ulgurmay, kulgan talabaga qaraganingizda, u: «Sizga qarasam doim kulgim kelaveradi», -



dedi.

Siz bu vaziyatdan qanday chiqib ketgan bo‘lar edingiz?

2-vaziyat. O‘quv yilining boshidayoq yoki bir nechta mashg‘ulotni o‘tkazganingizdan so‘ng talabalar Sizga: «Siz pedagog sifatida bizga nimalarnidir o‘rgata olishingizga ishonmayapmiz», - deb qolishdi.

Bu vaziyatda Siz qanday yo‘l tutasiz?



2-kichik guruh uchun topshiriq.

1-vaziyat. O‘qituvchi talabaga topshiriq berdi. Talabada esa uni bajarishga xohish yo‘q, shuning uchun: «Buni bajarishni istamayman», - deb ochiq aytdi.

Bu vaziyatda Siz qanday yo‘l tutasiz?

2-vaziyat. «Men sezyapmanki - Siz o‘tayotgan darslarning menga foydasi tegmayapti. Shuning uchun darslaringizga umuman kelgim kelmayapti», - dedi talaba o‘qituvchiga.

Sizning javobingiz qanday bo‘ladi?

Mashg‘ulotning yakuni

Talabalarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg‘ulot yakunlanadi.

KASBIY KOMPETENTLIK fani bo'yicha test savollari

№	Test topshirig'i	To'g'ri javob	Muqobil javob	Muqobil javob	Muqobil javob
1.	“Kompetentlik” tushunchasining lo'g'aviy ma'nosi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	inglizcha “competence” – “qobiliyat”	lotincha “competence” – “iqtidor”	grekcha “competence” – “mahorat”	italyancha “competence” – “ijodkor”
2.	“Kompetentlik” pedagogik kategoriya sifatida ta'lim sohasiga qaysi fanning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan?	psixologiya	deontologiya	sotsiologiya	falsafa
3.	Mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi nima deb ataladi?	Kasbiy kompetentlik	Kasbiy mahorat	Kasbiy ijodkorlik	Kasbiy iqtidor
4.	“Ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olishi” qaysi kompetentlikning mazmuni hisoblanadi?	Ijtimoiy kompetentlik	Kasbiy kompetentlik	Psixologik kompetentlik	Kommunikativ kompetentlik
5.	“Pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olishi” qaysi kompetentlikning mazmuni hisoblanadi?	Psixologik kompetentlik	Pedagogik kompetentlik	Ijtimoiy kompetentlik	Kommunikativ kompetentlik
6.	Pedagog kasbiy kompetentligining tarkibiy asoslari qaysi javobda to'g'ri	Maxsus yoki kasbiy kompetentlik; Ijtimoiy	Psixologik kompetentlik; Ijtimoiy kompetentlik;	Ijtimoiy kompetentlik; Kommunikati v	Texnologik kompetentlik; Ektremal kompetentlik;

	ko'rsatilgan?	kompetentlik; Shaxsiy kompetentlik; Individual kompetentlik	Kommunikati v kompetentlik	kompetentlik	Ijtimoiy kompetentlik;
7.	M.Stobart tomonidan tayanch kompetensiyalarning nechta guruhini belgilab ko'rsatilgan?	5 ta	4 ta	6 ta	3 ta
8.	... o'qitishning maqsadi va natijalariga erishish (amalga oshirish) yo'llari tizimi	Metod	Mashq	Takrorlash	Mustahkamlas h
9.	Aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko'nikmalarini egallash yo'lidagi ko'p marta takrorlanish bu-...	Mashq	Masala yechish	Faoliyat	Suhbat
10.	O'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi bu-...	natija	monitoring	diagnostika	ma'ruza
11.	Akmeologiya (akme) tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?	yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, yetuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi	yunoncha o'z qadriyatlariga sodiq, yosh avlodga maslahat bera oladigan eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi	yunoncha o'z qadr-qimmatini saqlash, muntazam o'z-o'zini nazorat qilib borish yosh avlodga maslahat bera oladigan eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi	inglizchadan kelib chiqqan bo'lib, uning ma'nosi yangilanish, yangilik kiritish, o'zgartirish degan ma'nolarni bildiradi
12.	Imidj (inglizcha image) so'zining ma'nosi nima?	“siymo”, “timsol”, “qiyofa”, “tasvir”, “obraz”	“siymo”, “qiyofa”	timsol”, “tasvir”, “obraz”	“qiyofa”, “tasvir”, “obraz”
13.	Innovatsion ta'lim jarayonida nima yetakchi o'ringa ega?	interfaol metodlar	refleksiya	texnologik model	texnologik xarita

14.	Pedagogik faoliyat – bu?	o‘qituvchi tomonidan aniq maqsadlarga muvofiq tashkil etiladigan kasbiy harakatlar majmui	talabalar tomonidan aniq rejaga muvofiq tashkil etiladigan kasbiy harakatlar majmui	ishlab chiqarish ta’limi ustasi tomonidan aniq maqsadlarga muvofiq tashkil etiladigan kasbiy harakatlar majmui	metodist tomonidan rejalarga muvofiq tashkil etiladigan kasbiy harakatlar majmui
15.	Inson his tuyg‘ulari uning ... namoyon bo‘ladi	yuzida – yuz mushaklarini qisqarishi va bo‘shashishi natijasida	ko‘zida	kayfiyatida	gavda, qo‘l, oyoq harakatida
16.	Lug‘aviy jihatdan “interaktiv” tushunchasining ma’nosi	“o‘zaro harakat qilmoq”	“o‘zaro fikr almashmoq”	“o‘zaro yordam bermoq”	“o‘zaro kelishib olmoq”
17.	Ta’limiy mazmunga ega loyiha, o‘qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo‘lgan hujjat	dars ishlanmasi	tadqiqot hisoboti	ishlar rejasi	savollar to‘plami
18.	Ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar bu-...	Ta’lim innovatsiyalari	Ta’lim texnologiyalari	Ta’lim jarayoni	Ta’lim natijalari
19.	Kattalarning (psixologik, natijalarga va mahorat cho‘qqisiga erishish) rivojlanish qonunlarini qaysi fan o‘rganadi?	Akmeologiya	Psixologiya	Andragogika	Sotsiologiya
20.	Qaysi rus olimi Akmeologiya-“Yetuk odamlarning rivojlanishi” haqidagi fan sifatida e’tirof etgan?	Nikolay Aleksandrovich Ribnikov	Sharlotta Byuler	Markova Anastasiya Konstantinovna	Choshanov Murat Ashirovich
21.	Qadriyatshunoslik, ma’naviy qadriyatlar sohasini o‘rganadigan, uning qonun va	Aksiologiya	Akmeologiya	Sotsiologiya	Pedagogika

	kategoriyalarini tadqiq qiladigan fan qanday nomlanadi?				
22.	Aksiologiyani lo'g'aviy ma'nosi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.	yunoncha axio – qadriyat va logos – fan, ta'limot	yunoncha axio – cho'qqi va logos – fan, ta'limot	yunoncha axio – bola va logos – fan, ta'limot	yunoncha axio – o'tmish va logos – fan, ta'limot
23.	Pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratishi bu - ...	Pedagogik kreativlik	Pedagogik kompetentlik	Texnik kompetentlik	Texnik ijodkorlik
24.	“Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin” ta'rif qaysi pedagog olimga tegishli	A.S Makarenko	Ya.A. Komenskiy	V.A. Suxomlinskiy	Adolf Disterveg
25.	“O'qituvchi, – aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur” ushbu ta'rifni qaysi Sharq allomasi izohlagan?	Al-Farobiy	Abu Rayhon Beruniy	Alisher Navoiy	Abdulla Avloniy
26.	Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyot davrida ta'limning keng tarqalgan tashkiliy shakli to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang	Yakka tartibda	Jamoaviy	Ommaviy	Kichik guruhlarda
27.	Sinf-dars tizimining muallifi kim?	Ya.A. Komenskiy	V.A. Suxomlinskiy	Adolf Disterveg	V.V Kraevskiy
28.	Ta'lim-tarbiya ishining asosiy shakli bu-	Dars	Nazorat	Boshqarish	Loyihalash
29.	"Andragogika" tushunchasi qaysi olim tomonidan fan sifatida amaliyotga kiritilgan?	Aleksandr Kapp	Adolf Disterveg	Ya.A. Komenskiy	V.V Kraevskiy

30.	Har bir ta'lim oluvchi va jamoaga ta'sir o'tkazishda samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar, usullar majmuasi bu-...	Pedagogik texnika	Pedagogik takt	Pedagogik mahorat	Pedagogik kreativlik
31.	Pantomimika bu—	Gavda, qo'l va oyoqlarning harakatidir	Yuz mushaklarini ng harakatidir	Ko'z, qosh, lablarning harakatidir	Bosh, bo'yin harakatidir
32.	Mimika bu -	Yuz muskullari orqali o'z sezgisi, fikri, kayfiyatini ifodalashdir.	Qo'l, oyoq orqali o'z sezgisi, fikri, kayfiyatini ifodalashdir.	Bosh, gavda orqali o'z sezgisi, fikri, kayfiyatini ifodalashdir.	Butun tana orqali o'z fikrini ifodalashdir.
33.	O'qituvchi nutqi –	Pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida til vositalaridan foydalanishi	Yuz muskullari orqali o'z sezgisi, fikri, kayfiyatini ifodalashdir.	Butun tana orqali o'z fikrini ifodalashdir.	Ko'z, qosh, lablarning harakatidir
34.	O'qituvchi nutqining asosiy shakllari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping	monolog, dialog, polilog	suxbat, debat, diskutsiya	Passiv, aktiv, interaktiv	Induktiv, diduktiv
35.	O'qituvchi o'z nutqini tashkil etishda nimalarga jiddiy e'tibor qaratishi zarur?	Adabiy, talaffuz, kelishik meyorlariga	Gavda, qo'l va oyoqlarning harakatiga	Yuz mushaklarini ng harakatiga	Ko'z, qosh, lablarning harakatiga
36.	Diksiya bu-...	So'zlarni aniq talaffuz qilish	Ohista talaffuz qilish	Bir maromda talaffuz qilish	Baland ovozdv talaffuz qilish
37.	Ayrim so'z va bo'g'inlarning aytilish muddati va to'xtalishi, nutq va ifodalarning navbat bilan o'z o'rnida ishlatilishi nimani bildiradi?	Ritmika	Artikulyatsiya	Diksiya	Takt
38.	O'qituvchi axloqiy-ma'naviy qiyofasini namoyon etuvchi meyor tuyg'usi yoki xulq va odob qoidalariga rioya qilishi qanday ataladi?	Pedagogik nazokat	Pedagogik maxorat	Pedagogik madaniyat	pedagogik texnika
39.	“Relaksatsiya” qanday holat?	Jismonan va ruhan bo'shashish, butunlay osoyishtalik	Jizzakilik va asabiylik, o'zini boshqara olmaslik	Jismoniy charchash, baqirish yoki so'kish	Jismonan va ruhan tetiklik, jizzakilik

40.	O'quvchilarning muloqot asosida ma'naviy madaniyatini shakllantirish mezonlari ifodalanmagan javob?	Jizzakilik va asabiylik, o'zini boshqara olmaslik	Har bir insonning qiziqishlarini hurmat qilish, milliy ma'naviy madaniyat manbalarini o'rganish	Inson hayotida mehnatning o'rnini tushunish, insonparvarlik, mehr oqibat, iymon, e'tiqod, milliy qadriyatlarni e'zozlash	Vatanga muhabbat, sadoqat, o'z manfaatlarini jamiyat, xalq manfaatlaridan ustun qo'ymaslik
41.	Pedagog o'zining qaysi tomonlarini boshqarishni o'rganishi kerak?	Diqqatini, ruhiyatini, mahoratini, hatti harakatini	Pedagogik mahoratini	Nutq madaniyatiga doir bilimlarini	His tuyg'usi bilimi, nutqi, hatti harakatini
42.	O'qituvchi ta'lim oluvchilarni o'zi bilan hamkorlikka jalb eta olishi uchun nima qilishi kerak?	Pedagogik faoliyat jarayonida ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlariga va qiziqishlariga to'g'ri kelishi lozim	O'quvchilarning ma'naviy axloqiy jihatdan dunyoqarashi ning rivojlanmasligi	O'qituvchi o'quvchilarga pedagogik va psixologik jihatdan to'g'ri vazifa qo'ymasligi mumkin	Sinf jamoasida o'qituvchi ham ishtirokchi, ham maslahatchi vazifasini bajarmasligi mumkin
43.	O'qituvchi pedagogik qobiliyatini namoyon etmaydigan xususiyatlarni belgilang?	Ma'naviy madaniyat darajasining yuksak bo'lmashligi, pedagogik qobiliyatning rivojlanmasligi	Aql idrokning muayyan turlari: hozirjavoblik, sobitqadamlik	O'qituvchining nutqi: notiqlik san'ati, so'z boyligi	Aktyorlik xususiyati: mimika va pantomimika, xayoliy fantaziya
44.	Nutqning toza bo'lishiga xalaqit beruvchi unsurlarni belgilang.	Dialektizm va varvarizm	ovoz tembri	Rezonator va diapazon	intonatsiya
45.	O'qituvchi ta'lim oluvchilar bilan muloqot jarayonida paydo bo'ladigan turli ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etishi uchun...	Avvalo o'z iqtidoriga, pedagogik va psixologik mahoratiga tayanishi lozim	O'zi ishlayotgan o'quv muassasasi rahbariyatiga yordam so'rab murojaat qilishi kerak	Darhol tartibsiz o'quvchini topib unga nisbatan tarbiyaviy jazo metodini qo'llashi shart	Ota onasini o'quv muassasasiga chaqirtirishi va suhbat o'tkazib ogohlantirishi kerak

46.	Pedagogik jarayonning harakat vositasi bu...	Pedagogik o'zaro ta'sir	Faoliyat	Pedagogik vaziyat	Pedagogik hodisa
47.	O'z-o'zini bilish, anglash, belgilash, rivojlantirish, nazorat qilish bu:	Pedagogik refleksiya	Pedagogik relaksatsiya	Pedagogik deontologiya	Pedagogik aksiologiya
48.	O'qituvchining asosiy pedagogik funksiyalari bu-	ta'lim, tarbiya, rivojlantirish, shakllantirish jarayonini boshqarish	kasbiy faoliyat loyihasini tashxislash	kasbiy faoliyat loyihasini baholash	kasbiy faoliyat loyihasini ishlab chiqish va rejalashtirish
49.	O'qituvchi muvaffaqiyatining siri nimada?	ta'lim oluvchilar faoliyatini boshqara olishida	o'quv mashg'ulot loyihasini ishlab chiqishida	o'quv mashg'ulotni to'g'ri rejalashtirishda	o'quv mashg'ulotni tashkillashtirishda
50.	Pedagogik faoliyatni rejalashtirish bu:	kasbiy faoliyat loyihasini ishlab chiqish va rejalashtirish	kasbiy faoliyat loyihasini tashxislash	kasbiy faoliyat loyihasini baholash	kasbiy faoliyat loyihasini bashoratlash
51.	Qulay muhitni yaratuvchi o'qituvchi bu:	fasilitator	moderator	tyutor	edvayzer
52.	Pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish nima deb nomlanadi?	"O'qituvchining innovatsion faoliyati"	"O'qituvchining evristik faoliyati"	"O'qituvchining texnologik faoliyati"	"O'qituvchi-tyuter faoliyati"

Xulosa

Ta'lim samaradorligini oshirishda pedagogik ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish qoydalariga amal qilish ta'lim tizimida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan dolzarb masalalaridan biri. Shu boisdan quyidagi xulosalarga keldik:

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o'z o'rnida foydalanish o'quvchilarning bilim darajasini o'sishiga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi, bilish faoliyatini faollashtiradi, ta'lim-tarbiya jarayonining salmog'i yuqori darajada bo'lishiga imkon yaratadi. innovatsion faoliyat moyillik, texnologik yondashuvga egalik, refleksiya ko'nikmalarini mavjudligida namoyon bo'ldi.

Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash yangilikni idrok etishga pedagogik tayorgarlikni shakllantirish va ularni yangicha pedagogik faoliyat ko'rsatmasiga yo'naltirishni ta'minladi.

3. Texnologik ta'lim mavzularini o'rganishda an'anaviy va noan'anaviy dars natijalarini taqqoslaganda guruhning sifat ko'rsatgichlari oshishi va fanni o'zlashtirishga qiziquvchi talabalar sonining ortganligi aniqlandi.

Mavzularni o'qitish doirasida ilg'or xorijiy tajribalarga tayangan holda o'qitishning pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish samarali ekanligi kuzatildi. Interfaol metodlarni foydalanish orqali talabalar hunarmandchilik turlari bilan tanishdi, egallagan bilimlarini iqtisodiyotning qaysi sohalarida qo'llash mumkinligini ko'rsatdi, fanga bo'lgan qiziqishlari ortdi, qo'shimcha adabiyotlardan mustaqil foydalanishga, o'z o'rtog'ining fikrini chidam bilan tinglashga, bilimlarini nazorat qilishga, o'z-o'zini baholashga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2016. - 56 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 48 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 104 b..

2. Normativ-huquqiy hujjatlar

5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.-128 b.
6. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to’g’risida”gi O’RQ-637-son Qonuni.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 февралдаги “Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4623-сон Қарори.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida” gi PF-60-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevraldagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi PF-27-son Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi “O'zbekiston- 2030” Strategiyasi to'g'risida” gi PF-158-son Farmoni.

3. Maxsus adabiyotlar

11. Авлиякулов Н. Х., Мусаева Н. Н. Педагогик технологиялар. - Олий ўқув юртлари учун дарслик. Т.: - 2008. – 196 б.
12. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
13. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
14. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш / Монография. – Т.: Фан, 2004.

15. Муслимов Н.А., ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси/ Монография. – Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2013.
16. Ishmuhammedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Т.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.
17. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob/ Metodik qo‘llanma. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog‘omova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – 193 bet.
18. Sh. L. Mamasoliyeva. Xalq hunarmandchiligi. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri. 2021.– 220 b.
19. Qodirova Ch. O‘quvchilarga naqqoshlik kompozitsiyasi tuzish yo‘llarini o‘rgatish. BMI. Qarshi – 2015.
20. Kurbanova Y. Amaliy san‘at buyumlariga badiiy ishlov berishda turli ranglardan foydalanish. BMI. Toshkent – 2014.
21. Компетенсии педагога ХХИ века [Электронный ресурс]: сб. материалов респ. конференции (Минск, 25 нояб. 2021 г.) / М-во образования Респ. Беларусь, ГУО «Акад. последиплом. образования», ОО «Белорус. пед. о-во». – Минск: АПО, 2021.

Elektron ta’lim resurslari

<http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

<http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

<http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi.

<https://psychologos.ru/articles/view/andragogika-i-pedagogika>.